

10 ta


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TILLAYEVA G.H.

AKMEOLOGIYA ASOSLARI

(«Akmeologiya» fani mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy
mashg'ulotlarning o'zbek milliy modeli asosida tuzilgan
loyihalari)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan olyi o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*



**«TAFAKKUR BO'STONI»
TOSHKENT — 2014**

UO'K: 37.017(075)
KBK 88.3
T49

Mas'ul muharrir:

falsafa fanlari doktori, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi **X.O.Shayxova**

Taqrizchilar: **M.Tojiyev**, pedagogika fanlari doktori, professor;
H.Aliqulov, falsafa fanlari doktori, professor;
N.Latipova, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent.

T49 Tillayeva G.

Akmeologiya asoslari: o'quv qo'llanma / G.Tillayeva.
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.
— T.: «Tafakkur Bo'stoni», 2014. —192 b.

ISBN 978-9943-4239-8-5

KBK 88.3

Axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis — akme-shaxs jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy kuchidir. Chunki hozirgi ilmiy-texnik asarda adabiyot ideali bo'lgan orzudagi komil inson g'oyasi bilan chegaralanish mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalardagi rivojlanishiga yetarli emasdир. Ilg'or fikrli, intellektual salohiyatlari, bilmeli, jahon standartlariga javob beradigan professional yetuk kadrlarni tayyorlash hozirgi kunning ustuvor vazifalaridan bo'lmog'i lozim. Ayniqsa, yosh avlodning bilim egallashi, kasb-hunar odobi va madaniyati, ijodiy salohiyatlari bo'lishi davr talabi bo'lib qoldi.

Ushbu o'quv qo'llanma aynan shu masalalar yechimiga qaratilgan bo'lib, unda mustaqil O'zbekistonning porloq kelajagini ta'minlash uchun teran fikrli, ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish davlat siyosatining bosh masalasi ekanligi haqida fikr yuritiladi.

UO'K: 37.017(075)
KBK 88.3

ISBN 978-9943-4239-8-5

© G.Tillayeva, 2014.
© «Tafakkur Bo'stoni», 2014.

SO'ZBOSHI

Respublikamiz mustaqilligining yigirma ikki yillik rivojlanish davrida ta'lif-tarbiya jarayonini takomillashtirish va zamona-viylashtirish masalasi dolzARB bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, jamiyatimizga yuksak professional kadrlar tayyorlash masalasi pedagoglardan o'quv mashg'ulotlarining yangi shakllarini izlab topish, zamonaviy ta'lif texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy etish, o'quv jarayonini samarali tashkillantirish va shu orqali oliy o'quv yurtlarida talabalarning fanlardan o'zlashtirish darajasini yanada oshirish maqsadini amalga oshirishni talab qilmoqda.

Ana shunday o'qitish usullaridan biri bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan pedagogik texnologiya usulidir.

Ammo so'z ta'lif texnologiyasini qo'llash jarayonida o'z talabalarining u yoki bu fanlarga individual imkoniyatlarini birgalikda loyihalash jarayonida olingan natijalar oldimizda turgan muammolarni tanqidiy tahlil qilish orqali, nostonart yechimlarni topish kabi masalalarni ishlab chiqishga yondashish ustida ketadi. Shu bois, texnologiyani qo'llash pedagogning tejalgan vaqtin, ta'lif olayotgan o'quvchilarining mutaxassislik mala-kalarini yanada oshirishlarida juda zarur bo'lgan shaxsiy muloqotlari uchun asqotadi.

Biz ana shu kabi ta'lif texnologiyalaridan yana biri «Akmetexnologiya», ya'ni «Akmeologiya» fanining texnologiyasini sizning e'tiboringizga tavsiya etmoqchimiz.

«Akmeologiya» fanidan o'quv qo'llanma respublikamiz ta'lif tizimi uchun yangi yo'nalish sifatida ilk bor tavsiya etilayotgan ekan, biz uni amalga oshirishda «majmuli yondashuv», didaktika tamoyillari va qonun-qoidalari hamda «akmetexnologiya» tamoyillariga qanday qilib amal qilish mumkin, uning afzalligi nimada, nimasi bilan boshqa texnologiyalardan farq qiladi, degan o'rinni savollar yuzaga keladi.

Shuni alohida e'tirof etish lozimki, har qanday fanning puxta o'ylab modellashtirilgan loyihasi pedagogik faoliyatning bir necha yillik samarali kechishiga asos bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, o'quv mashg'ulotlarini ushbu modellashtirilgan loyiha asosida olib borish ularni «a'lo» yoki «yaxshi» kechishini kafolatlaydi. «Akmeologiya»ning ushbu modellashtirilgan loyihasidan nafaqat soha mutaxassislari, balki qator fan vakillari ham andaza sifatida foydalanishlari mumkin.

«Akmetexnologiya»ning yuqorida sanab o'tilgan tamoyilaridan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlari loyihasini tuzishda bajariladigan vazifalar quyidagi tartibda amalga oshiriladi, uni o'quv mashg'uloti loyihasini tuzish algoritmi deyiladi.

Birinchi vazifa. O'quv kursining asosiy mavzulari (boblari) aniqlanib, ularni birgalikda yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilib, «mego» (o'ta katta) modul deb olinadi va uning maqsad va vazifalari belgilanib, jadval ko'rinishida ifodalanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada «Alohida ijtimoiy guruhlar va qatlamlar bilan ijtimoiy ish» o'quv fani bir butun sifatida mego-modul deb olinib, maqsadi aniqlandi.

Izoh: ushbu maqsad o'quv kursi uchun belgilangan davlat ta'lim standartlariga mos kelishi shart.

Ikkinci vazifa. Ushbu modul tarkibiga kiruvchi bilimlarning umumiy hajmi, izchilligi, fikrning tugallanganligidan kelib chiqib, undagi o'quv materialini «makro» (katta) modullarga ajratib, ularning ham maqsadlari aniqlab olinadi va jadval shakliga keltiriladi.

«Alohida ijtimoiy guruhlar va qatlamlar bilan ijtimoiy ish» o'quv fani «mego» moduli ichidagi bilimlarning hajmi, mantiqiy bog'liqligi va fikrlarning tugallanganligidan kelib chiqib, uning tarkibidagi «Akmeologiya» kursini «makro», ya'ni «katta» modul sifatida ajratib olib, uning maqsadini belgilab olamiz.

Uchinchi vazifa. Har bir juft soatli o'quv mashg'ulotlarining, ya'ni mezo-modullarning xususiy jadvallari tuzib olinadi.

Bunda, birinchidan, bir juft soatli o'quv mashg'uloti mezo-moduli bir nechta kichik mavzulardan iborat bo'lgan «mikro», ya'ni kichik modullarga ajratiladi va ularning maqsadlari hamda ularga ajratilgan vaqt ko'rsatiladi.

Ikkinchidan, bir juft soatli o'quv mashg'ulotidagi mikro-modullar orqali beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalarini ajratib, ular asosida talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash uchun nazorat savollari tuziladi va baholash mezonlari ko'rsatiladi.

Uchinchidan, mikro-modulning mazmunidan kelib chiqqan holda mashg'ulot turi va tipi belgilab olinadi.

To'rtinchidan, mikro-modulning mashg'ulot turi va tipiga ko'ra qo'llanilishi lozim bo'lgan an'anaviy yoki interfaol usullar, texnik vositalar va didaktik materiallarning o'rni ko'rsatiladi.

Beshinchidan, mikro-modulni samarali amalga oshirishda foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

«Akmetexnologiya» tamoyillari asosida yuqorida keltirilgan shartlarni amalga oshirish orqali «Akmeologiya» o'quv mashg'u-lotlarining barcha mavzularining loyihasini tuzish mumkin.

O'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «Falsafiy tadqiqotlar o'quv-ilmiy kompleksi»-ning № Ф1 ФА-0-20927 ФА-Ф1-ГО16 «Илакс акмеологик muammolarining axloqiy yechimlari: ijtimoiy-etik tadqiqot (holat va istiqbol)» granti asosida tayyorlanib, O'zMU «Falsafa» fakulteti «Sotsiologiya» kafedrasining 2013-yil 8-may (17/1-soni bayonnomasi), O'zMU «Falsafa» fakulteti Ilmiy kengashining 2013-yil 14-may (9-soni bayonnomasi) hamda O'zMU Ilmiy kengashining 2013-yil 31-maydagi (13-soni bayonnomasi) qarori bilan muhokama etilib, nashrga tavsiya qilingan.

Umuman olganda, ushbu algoritmdan foydalangan holda nafaqat ijtimoiy-gumanitar, balki istalgan boshqa fanning mavzularini modellashtirish mumkin.

Muallif.

«AKMEOLOGIYA» O'QUV FANI MASHG'ULOTLARI LOYIHALARINING UMUMIY JADVALLARI

«AKMEOLOGIYA» MAKRO-MODULINING UMUMIY MAQSADI

Talabalarning o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlariga muvofiq, hozirgi paytda puxta o‘ylangan, ilmiy asoslangan davlat siyosati vositasida mamlakatimiz fuqarolarining qobiliyatlari, bilimlari, malakalari, kasb-hunarga layoqtatlari va sa’y-harakatlaridan oqilona foydalanish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O‘zbekistonning ravnaq topishida ularning ehtiyojlari, ijtimoiy manfaatlari, hayotiy istiqbollarini belgilab olish va ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Jonajon respublikamizda shiddat bilan amalga oshirilayotgan davlat va jamiyat qurilishidagi o‘zgarishlar boshqaruvin masalasiga tubdan yangicha yondashish hamda jamiyatda olib borilayotgan professional kadrler tayyorlash siyosati borasidagi islohotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

I. AKMEOLOGIYA FANIGA KIRISH MEZO-MODULINING LOYIHASI

Pedagog, birinchi navbatda, «Akmeologiya faniga kirish» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlarni belgilaydi (1.1-jadval).

Ikkinchidan, «Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli mazmunidan kelib chiqadigan tayanch tushunchalarini ajratib, shular asosida nazorat savollari tuzib, ularni baholash mezonlari belgilanadi (1.2-jadval).

Uchinchidan, «Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo‘llaniladigan o‘quv mashg‘ulotlarining tiplari hamda pedagogik uslublar tanlanib, joylari belgilandi (1.3-jadval).

To‘rtinchidan, «Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli tarkibidagi mikro-modulda qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiya va didaktik materiallarning turi va joyi ko‘rsatildi (1.4-jadval).

Beshinchidan, «Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatildi (1.5-jadval).

Quyida mazkur jadvallarni keltiramiz.

1.1-jadval

«Akmeologiya» faniga kirish mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

T/r	Mezo-modulning nomi	Mikro-modullar, ularning tartib raqamlari, mashg'ulot turi va mavzuning nomi	Mikro-modular yakunida erishiladigan maqsadlar
1.	Akmeologiya	1.1. Nazariy mashg'ulot. Kirish.	Maksimal yetuklik individ, shaxs rivojining cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, ana shu cho'qqi yunon-chada «akme» deyladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi. Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar. Ya'ni, biror-bir sohada erishgan oliv yutuqlari (N.V.Kuzmina).

1.2-jadval

«Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli tarkibidagi tayanch tushunchalar va shular asosida tuzilgan nazorat savollari

T/r	Mezo-modul tarkibidagi tayanch tushunchalar	Nazorat savollari
1.	Akme, akmeologik moyillik, axloqiy kamolot, akmetexnologiya, algoritm, beqiyoslik, buyuklik, yetuklik, inson resurslari, komillik, mu-kammallik, mashhurlik, mahsuldarlik, professionallik, yuksalish, yuksaklik.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maksimal yetuklik nimaga bog'liq? 2. »Akme» so'zining asosiy lug'aviy ma'nosini aytинг. 3. Akme, akmeologik moyillik, axloqiy kamolotni o'rganuvchi soha qanday nomlanadi? 4. Shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar, biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari akmeologiyaning bahs mavzusi bo'la oladimi?

Baholash turi. Savol-javob. (Biz savollarni ushbu qo'llanmada berishni lozim topmadik.)

1.3-jadval

«Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi	Qo'llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Kirish o'quv mashg'uloti»	«Tanishuv»
2.	«Yangi bilimlarni egallahsh»	«Yozuv»
3.	«Yangi bilimlarni egallahsh»	«O'qish va yozuv», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum»

**«Akmeologiya faniga kirish» mezo-modulida qo'llaniladigan
axborot texnologiyalari va didaktik materiallar**

T/r	Axborot texnologiyalari	Didaktik materiallar
1.	Yozuv doskasi	Ma'ruza matni
2.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
3.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
4.	Tarqatma materiallar	Savol-javob

«Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli, ya'ni 1-juft soatl o'quv mashg'ulotining loyihasi tuzib olindi. Unda barcha mikro-modullar, ularda beriladigan bilimlar tizimi, ularni ta'lim oluvchilarga yetkazishda qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotlari tipi hamda pedagogik uslublar, axborot texnologiyasi va didaktik materiallar o'z ifodasini topdi.

Endi ushbu mashg'ulot ssenariysini keltiramiz: pedagog «*tanishuv*» va «*aytib berish*» usullarini qo'llab hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o'quv mashg'ulotini quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum hurmatli talabalar!

Bugundan e'tiboran sizlar «Akmeologiya» fani bilimlarini o'rGANISHGA KIRISHASIZ. Bu bilimlarni egallash uchun sizlarga yordam berish vazifasi menga yuklatilgan. Mening ismi-sharifim, Tillayeva Gulسانам Hamdamovna, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Siz ushbu fan bilimlarini egallash jarayonida faol qatnashib, har bir o'quv mashg'ulotida qo'yilgan maqsadga erishishda sidqidildan harakat qilsangiz, ko'zlangan maqsadga albatta erishish imkoniyatiga ega bo'lishingiz mumkin.

Men sizlarni mashg'ulotlar davomida bajarilishi shart bo'lgan bir nechta qoida bilan tanishtiraman. Sizlar bu qoidalarni albatta yozuv daftaringizning birinchi betiga qayd etib qo'y-sangiz foydadan xoli bo'lmaydi. Iltimosim, ana shu qoidalarga amal qilib yuring.

Yozinglar! Avvalo, dars mashg'ulotlariga kech qolmasdan kelishingiz lozim.

Ikkinci qoida, dars mashg'ulotlarida ishtirok etib, bilim egallashga ishtiyoqingiz bor ekan, o'zingiz bilan ortiqcha texnik vositalar (planshet, telefon, blutus, shunga o'xshagan boshqa chalg'ituvchi vositalar)ni olib kirishingiz mumkin emas. Mashg'ulotlar vaqtida telefonlaringizni vaqtinchha o'chirib qo'yishin-gizni iltimos qilar edim. Zero, har bir xatti-harakatingiz «Ustoz» daftari»da qayd etib boriladi.

Izoh. Jahon tajribasi ta'lim va tarbiyada individual yondashuvning eng maqbulligini e'tirof etadi. «Ustoz-shogird» tizimi ommaviy tarbiyadan individual tarbiyaga o'tishning boy imkoniyatlarini yaratadi. «Ustoz daftari» — «Ustoz-shogird» tizimi doirasida amalga oshiriladigan vositalardan biri. Bunda ustoz har bir shogirdi harakatidagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni qayd qilib boradi.

Yozuv har oyda bir marta amalga oshiriladi. Unda shogird hulqi, ma'naviyatida oy davomida kuzatilgan xarakterli jihatlar xolis aks ettiriladi. Qaydlarda rasmiyatçilik, yuzakilikka yo'l qo'yilmaydi.

«Ustoz daftari»dagi yangiliklar har oyda bir marta murabbiylar kengashida muhokama qilinadi. Umumlashtirilib, ustozning tarbiyaviy ishlar vazifalariga aylantiriladi va hal qilib boriladi. Shu tariqa ustozlarning tarbiyachilik ishi aniqligiga erishiladi.

Bugungi mavzu bo'yicha quyidagi adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.

(Pedagog, o'quv mashg'uloti davomida talabalarning amal qilishlari lozim bo'lgan qoidalarni kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi.)

**«Akmeologiya faniga kirish» mezo-moduli uchun foydalananish
lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati**

T/r	Adabiyotlar ro‘yxati
1.	Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008.
2.	Anan’ev B.G. O проблемах современного человекознания. – СПб.: 2001.
3.	Bodaliev A.A. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. – М.: 1998.
4.	Derkach A.A. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований. – М.: 1999.
5.	Ziyomuhamedov B.G. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari: monografiya. – T.: «Sano-standart», 2011.
6.	Kuzmina N.B. Предмет акмеологии. – СПб.: 1995.
7.	Tillaeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq in-ti, 2009.
8.	Shayxova X.A. Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2009.

Hurmatli talabalar, bugungi mashg‘ulotimiz nazariy bo‘lganligi bois, biroz yozishingizga to‘g‘ri keladi. Marhamat, daftarlaringizni ochib yozing!

Izoh. Loyihada kursiv bilan belgilangan barcha yozuvlar ta ’lim oluvchilar uchun mo ’jallangan bo ’lib, konsept daftarlariiga yozish uchun tavsiya etiladi.

So‘z bilan. Hozirgi paytda puxta o‘ylangan, ilmiy asoslatigan davlat siyosati vositasida mamlakatimiz fuqarolarining tabiiy qobiliyati, bilimi, malakasi, kasb-hunarga layoqati va sa’y-harakatlaridan oqilona foydalananish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O‘zbekistonning ravnaq topishida ularning ehtiyojlari, ijtimoiy manfaatlari, hayotiy istiqbollarini belgilab olish va ro‘yogda chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz Islom Karimovning bu borada, «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘imasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yasha-

shi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ular-dan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin¹, degan fikrlari ayni haqiqat.

Bu vazifalarini amalga oshirishda yuksak bilimli, yetuk profesional kadrlarni axloqiy kamolot ruhida shakllantirish, mammakatimiz ravnaqi hamda gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan akmeshaxslarni vujudga keltirish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu mexanizmlardan biri – inson resurslarini rivojlantirish, undan oqilona foydalanishning yangicha yo‘llarini izlab topish, ya’ni o‘ta muhim yechimlaridan biri – akmeologiyaning ijtimoiy-axloqiy muammolarining ilmiy muomalaga kirib kelishidir.

Shu bois, uchinchi ming yillik bo‘sag‘asida shiddatli kechgan intellektual izlanishlar davrida evriologiya, ergonologiya, refleksologiya bilan bir qatorda yuksak texnologiyalarni yaratish g‘oyalari, nafaqat an‘anaviy ishlab chiqarish, balki insonning ijtimoiy-axloqiy faoliyatlarini o‘rganuvchi fan – akmeologiyaning rivojlanishi bilan bog‘landi.

Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananyev, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so‘nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko‘proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo‘lishi mumkin», deydi.

Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsnинг individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g‘oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o‘smirlik va yetuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mayjud bo‘la olmaydi, degan nazariyalar ham yo‘q emas.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat». 2008. 4-b.

Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo'l-mog'i lozim (A.A.Bodalyov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshq)¹, degan qat'iy konsepsiya yuzaga keldi.

Maksimal yetuklik individ, shaxs rivojining cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, demak ana shu cho'qqi yunonchada «akme» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi.

Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar, ya'ni biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari (N.V.Kuzmina).

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning «akme» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» – bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniiga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o'rab tur-ganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-onasida sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgara olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir².

Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik belgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini «akme» deb ataganlar. Akme – yunoncha («yuksalish», «cho'qqi») kamolot, yuksalish, yetuklik ma'nolarini anglatadi. Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarini oqilona yechishni muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmoqdalar. Bu degani, ularni integrativ-

¹ Кузмина Н.В. Предмет акмеологии. – СПб.: 1995; Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. – М.: 1998; Деркач А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований. – М.: 1999.

² Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. – М.: 1998. С. 5.

kompleks o'rganish muhimlik g'oyasini ilgari suradilar. Bizning fikrimizcha, faqatgina kasbiy yuksaklikka erishish g'oyasi bilan chegaralanish muammoning yechimiga olib kelishi mushkul.

Yetakchi faylasuf olim Xatima Shayxova bu borada: «Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnraqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobjiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat»¹, deydi.

Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalari asosida nasaqat kasbiy mahoratning yuksak muvafqaqiyatga erishishi, balki insonning yetuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o'rganish haqidagi fandir. Bunda biz Sharq allomalarining «komil inson», muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Barkamol inson» g'oyalarini akmeologiyaning obyekti «akmeshaxs» tushunchasi bilan bir qatorda tadqiq etgan holda, ushbu fanning fundamenti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qo'lyozmalarida o'z ifodasini topgan va bugungi kunda bizning mamlakatimizda keng foydalanilmoqda, desak, aslo adashmaymiz.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, «akme» tushunchasini albatta yuksak cho'qqi, avj nuqta, eng oliv hissiyotlar (A.Maslou), deyish mumkin.

Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi bo'lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xossasini anglatadi.

Akmeshaxs – akmeologiyaning asosiy predmeti bo'lib, uning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim or-

¹ Shayxova X.A. Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-b.

qali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobjiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mu-kammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg'unlikda o'rghanishdan iborat bo'lib, u insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy dunyosida yuksakroq cho'qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o'rGANADI¹.

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo'lib, u insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o'zaro dialektik munosabatlarinimn shakllanishiga olib keladi. Akmeologiya inson kasbiy faoliyati doirasidagi professionallik va ijodiylikning akme shaklining rivojlanishi uchun zarur qonuniyatlarini o'rGANUVCHI fan bo'lgani uchun «akmeologiya» atamasining mazmuni, mohiyati insonshunos olimlar tomonidan turli babs va munozaralarini keltirib chiqarmoqda.

Buning boisi, birinchidan, akmeologiya sohasida ilk davrlarda asosan pedagoglar, psixologlar tomonidan chop etilgan ilmiy asarlari, etika ixtisosligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari fanning u yoki bu jihatlarinigina qamrab olganligi sababli ayrim tushumovchiliklarni keltirib chiqardi.

Izoh. Bugungi kungacha akmeologiya sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari shaxsning psixologik xaritasi, uning xarakter xususiyatlarini aniqlash hamda uning u yoki bu sohaga qiziqishini alohida o'rghanishga qaratilgan.

Ikkinchidan, akmeologiyaning tabiiy, umumjamoa va insoniy goidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak takomiliga erishishi, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi hamda bundanda yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini o'rGANISHI, ya'ni biron kasbga, sohaga astoydil mehr qo'yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashini bildirishi hamda akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik mo-

¹ Tillayeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. 149-b.

yillik» iborasi ekanligining fanlar integratsiyasi kesimida kompleks o'rganilmaganligidadir. Shu bois ham fikrimizcha, akmeologiyani faqat shaxs kasbiy faoliyatining psixologik va pedagogik jihatlarini tadqiq etish inson resurslarining barcha imkoniyatlarini kompleks tarzda o'rganish, yo'lida yetarli emasligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz o'zining yuksak rivojlanish nuqtasi, fuqarolik jamiyatini barpo etishga yaqinlashmoqda. Bu esa ayni paytda akmeologiyaning asosiy kategoriyalardan mukammallik, yuksaklik, oliy daraja kabi tushunchalar kundalik turmushda ishlatalib kelingan bo'lsa-da, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy nuqtayi nazardan maxsus ilmiytadqiqot sifatida to'la o'rganilmagan.

«Akmeologiya», agar ularni hududga moslashitirlsa, insonshunoslikdagi barcha tajribalardan o'zining yuqori samaradorligi va ta'lim berishdagi ayrim qulayliklari bilan ajralib, o'quv jarayonining sifatini pedagogik mahoratdan ozod qiladi va ta'lim-tarbiya jarayonining faqat yaxshi va a'lo darajada bo'lishligini kafolatlashi bilan birga, uni qaytadan tiklash imkonini beradi.

Akmeologiya quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi.

Birinchisi, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda barkamol avlod tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda sog'lom ijtimoiy-axloqiy muhitni yaratish, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va e'zozlash, axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis, ilg'or fikrli, salohiyatlari, bilimli, jahon standartlariga javob beradigan yuksak g'oyaligi bilan tayyorlash hozirgi paytda ustuvor vazifalardan bo'lmoq'i lozim.

Ikkinchisi, zamonaviy tafakkur rivojida akmeshaxs qiyofasiga axloqiy munosabat zarur. Zero, yurt ravnaqi, millat rivoji, barqarorligini akmeshaxslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, O'zbekistonda barkamol avlod tarbiyasida jismoniy, aqliy, ma'nnaviy jihatlar kabi uch asosiy jihatga e'tibor berish o'ta muhim va dolzarb masala bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning faol kechishida muhim omillardan hisoblanar ekan, shaxsning intellektual boy,

yuksak ma'naviyatlari akmeshaxs bo'lib yetishishi «vaqt o'zagi» elagidan o'tgan ma'naviy merosga bog'liqligi yoshlar ongiga singdirib borilishi lozim.

Uchinchisi, respublikamizda yangilanish va taraqqiyot jadal davom etayotgan bir davrda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda yoshlar muammosini respublika oldidagi umumiy vazifalardan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas. Shu bois, yoshlar shaxsining shakllanishi, kamol topishi muammosini o'rganishda akmeologik bilimlardan foydalanish usuvor vazifalardan biri bo'lib qolmog'i lozim.

Umuman olganda, B.G.Ananyevning fikriga ko'ra, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenetika, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin»¹. Va bularning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o'smirlilik va yetuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi. Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo'lmog'i lozim.

So'z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida akmeologiya tushunchasining mohiyati va asosiy kategoriyalari haqida gapirdik. Siz bugungi konspektlar va qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o'zlashtirishingiz lozim.

Shu bilan, nazariy o'quv mashg'ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

¹ Аナンьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. — СПб.: 2001. С. 232.

II. «AKMEOLOGIYANING MOHIYATI, RIVOJLANISH TARIXI, BOSQICHLARI, O'ZIGA XOS USLUBIY YO'NALISHLARI» MEZO-MODULINING LOYIHASI

Pedagog: birinchi navbatda, «Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o'ziga xos uslubiy yo'nalishlari» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlarni belgilaydi (2.1-jadval).

Ikkinchidan, 2-mezo-modul mazmunidan kelib chiqadigan tayanch tushunchalarni ajratib, shular asosida nazorat savollari tuzib, ularni baholash mezonzlari belgilanadi (2.2-jadval).

Uchinchidan, shu mezo-modul tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotining tiplari hamda pedagogik uslublar tanlanib, joylari belgilanadi (2.3-jadval).

To'rtinchidan, shu mezo-modul tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiya va didaktik materiallarning qo'llanish turi va joyi ko'rsatiladi (2.4.-jadval).

Beshinchidan, shu mezo-modul uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi (2.5-jadval).

Quyida mazkur jadvallarni keltiramiz.

2.1-jadval

«Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o'ziga xos uslubiy yo'nalishlari» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

T/r	Mezo-modulning nomi	Mikromodullar, ularning tartib raqamlari, mashg'ulot turi va mavzuning nomi	Mikro-modullar yakunida erishiladigan maqsadlar
2.	Akmeologiya ning mohiyati, rivojlanish tarixi,	2.1.Nazariy mashg'ulot. Akmeologiyaning mohiyati	Akmeologiya atamasining ilmiy muomalaga kiritilishi, akmeologiya va akmeshaxs tushunchalarining mohiyati va

	bosqichlari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari	va asosiy kategoriyalari	ta’riflari, predmeti, obyekti maqsadi va vazifalari, asosiy yo‘nalishlari, usullari, boshqa ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi, akmeologik moyillik nazariyasи, inson yetukligining ma’lum vaqt kesimiga to‘g‘ri keladigan rivojlanishining eng yuqori darajasi, uning cho‘qqisi «akme» bilan belgilanishi, hozirgi davrda akmeologiyaning obyekti sifatida: yetuk inson, aqliy zukkolik, kasbiy faoliyat mahorati belgilari, omillari, cheksiz salohiyati, qibiliyati va iqtidorlari sifatida qabul qilinganligini talabalar ongiga singdirish.
	2.2.Amaliy mashg‘ulot. Akmeologiya- ning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘na- lishlari	Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlarini «Avesto», Islom dinining muqaddas kitobi Qur‘oni Karim, hind eposi «Kalila va Dimna» hamda Kaykovusning «Qobusnom» asarlari, qadimgi Yunoniston mutafakkirlari Aristotel, Seneka Lusiy Anniy, zardushtiylik ta’limoti misolida o‘rganish. Insoniyat taraqqiyotining bosqichma-bosqich rivojlanishi jarayonida har bir bosqichda o‘ziga xos yangi-yangi cho‘qqilar, muvaffaqiyatlar va komillik sari intilishini kuzatish. Markaziy Osiyo mutafakkirlari Kaykovus, Nizomulmulk, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad G‘azzoliy, Ahmad Yassaviy,	

			Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiyarning asarlarida insondagi kasb-hunar fazilati tug‘ma emasligi haqidagi g‘oyalar. G‘arb tarixiy tafakkurida akmeologik nazarialar. Frenolog olimlar – Iogann Kasar Lavater, Frans Iosif Gall, Georg Kombe, Chezare Lombroz asarlarida insonning oliy va tuban nuqtalari haqidagi g‘oyalar. Zamonaviy psixolog, pedagog va faylasuf olimlar tomonidan akmeformni o‘rganish va tahlil qilish, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlanТИRISH uchun optimal texnologiyalar yaratishning yangicha shaklining ilgari surilishini talabalarga tushuntirish.
		2.3. Nazariy mashg‘ulot. Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institutsional	Akmeologiyaning latent bosqichi insonshunoslikning yangi jabhalarini o‘rganishda tarixiy, madaniy-ma’naviy, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, ilmiy va pedagogik bilimlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi. Akmeologiyaning latent bosqichi rivojiga Sankt-Peterburg maktabi vakilasi Nina Vasilevna Kuzminaning munosib xizmati. Akmeologiyaning kombinatsion bosqichida tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi ta’limotlar, insonning

			yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi haqidagi yanada yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasining tadqiq etilishi. Akmeologiyaning inkubatsion bosqichi va N.V.Kuzmina tomonidan insonning yashirin xislat va fazilatlari hamda kasbiy yashirin imkoniyatlari bazasini ochishda zarur bo'lgan akmeologik masalalarning konstelyatsion yechimi borasidagi konseptual g'oyalariga to'g'ri kelinishining ilmiy asoslanishi. Akmeologiyaning institusional bosqichida ijtimoiy tuzilishlar yaratilishi, o'quv yurtlarida akmeologiya kafedralari, laboratoriyalari va nihoyat Xalqaro akmeologik fanlar akademiyasining ochilishi. Bu akademiyada ilmiy izlanishlar olib borish bilan bir qatorda, akmeologik texnologiyalarning ishlab chiqilishi.
--	--	--	--

«Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari» mezo-modul tarkibidagi tayanch tushunchalar va shular asosida tuzilgan nazorat savollari

Mezo-modul tarkibidagi tayanch tushunchalar	Nazorat savollari
<p>Akme, akmeizm, akmeshaxs, akmeologiya, akmeologik moyillilik, barkamol avlod, mukammallik, olyi nasab, xalq qahramonlari, bunyodkorlar, olimu-fuzalolar, uyg‘onish, tiklanish, renessans, yuksalish, yuksaklik, beqiyoslik, komillik, buyuklik, mashhurlik, mahsuldarlik, sog‘lom turmush tarzi, fan, bilim, bilimlar integratsiyasi, bilimga asoslangan iqtisadiyot.</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Akmeologiya nima? 2. Akmeologiya qanday fanlar ilmiy bilimlarining integratsiyasida shakllangan? 3. Akmeologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlarini sanang. 4. Tarixiy tafakkur rivojida akmeologiyaning o‘rnii qanday ahamiyat kasb etadi? 5. Qadimgi davr akmeologik qarashlar tariхini sharhlab bering. 6. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining akmeologik qarashlari nimalarda ifodalangan? 7. XX asrda Turkistonda paydo bo‘lgan jadidchilik harakati vakillari qanday kategoriyalarning shakllanishiga hissa qo‘shdilar? 8. Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari qaysilardan iborat? 9. Akmeologiyaning o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlarini sharhlang. 10. Respublikamiz mustaqilligi yillarda kasb-hunar egallahsha mukammallikka erishish, kasbiy mahorat to‘g‘risida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? 11. Yurtboshimiz I.A.Karimovning: «Taraqqiyot taqdirini ma‘naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi», degan so‘zlarinining mazmunini ta’riflang. 12. Akmeologiyaning uslubiy yo‘nalish va tiplarini sanab bering.

Baholash turi: savol-javob (2.2-javvallarda berilgan savollardan samarali foydalilanildi).

2.3-jadval

«Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari» mezo-modul o‘quv mashg‘ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi	Qo‘llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Kirish o‘quv mashg‘uloti»	«O‘qish va yozuv»
2.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O‘qish va yozuv», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O‘qish va yozuv», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkam-lash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

2.4-jadval

«Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari» mezo-modulida qo‘llaniladigan axborot texnologiyasi va didaktik materiallar

T/r	Axborot texnologiyalari	Didaktik materiallar
1.	Yozuv doskasi	Ma’ruza matni
2.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
3.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
4.	Tarqatma materiallari	Savol-javob

Uchinchi vazifa, II mikro-modul loyihasi tuzib olindi. Unda barcha mikro-modullar, ularda beriladigan bilimlar tizimi, ularni ta’lim oluvchilarga yetkazishda qo‘llaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari tipi hamda pedagogik uslublar, axborot texnologiyasi va didaktik materiallar o‘z ifodasini topdi.

«Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari» mezo-modulda 2.5-jadvalda keltirilgan adabiyotlar ro‘yxati tavsiya etiladi.

Pedagog, o‘quv mashg‘uloti davomida talabalarning amal qilişhlari lozim bo‘lgan qoidalarni kompyuterdan PowérPoint slaydi ko‘rinishida namoyish etadi.

«Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari» mezo-modulida foydalanish lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati

T/r	Adabiyotlar ro‘yxati
1.	<i>Karimov I.A.</i> Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: «O‘zbekiston», 1996. 34-b.
2.	<i>Karimov I.A.</i> Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. 19-b.
3.	<i>Karimov I.A.</i> O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011.
4.	<i>Aliqulov H.</i> Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. 148-b.
5.	<i>Аристотель.</i> Никомахова этика. Сочинения. В 4-х т. Т.4. – М.: «Мысль», 1983.
6.	Avesto. «Videvdat», 3-fargard, 2–3-bandlar. – T.: «Sharq», 2001.
7.	<i>Avloniy A.</i> Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
9.	<i>Beruniy Abu Rayhon.</i> O‘tgan avlodlardan qolgan yodgorliklar. – T.: O‘zdavnashr, 1957.
10.	<i>Behbudiy M.</i> Bolalar uchun kitob. – T.: 1905.
11.	<i>Behbudiy M.</i> Islomning qisqacha ta’rif. – T.: 1910.
12.	<i>Бодалев А.А.</i> Как становятся великими и выдающимися. – М.: 1997.
13.	<i>Бодалев А.А.</i> Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. – М.: 1998.
14.	<i>Гальтон Ф.</i> Наследственность таланта, ее законы и последствия. 1869 (русский перевод 1875).
15.	<i>Деркач А.А., Кузьмина Н.В.</i> Акмеология – наука о путях достижения вершин профессионализма. – СПб.: 1993.
16.	<i>Деркач А.А.</i> Акмеология: личность и профессиональные развития человека: Методолого-прикладные основы акмеологического исследования. – М.: 2000.

17.	Dr. FJ. Gall's system of the functions of the brain extracted from Charles Augustus Blsde's, account of Dr. Gall's lectures, held on the abore subject at Dresden. 1815.
18.	«Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog'lom turmush tarzining o'mni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2008-yil 30-may). – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
19.	<i>Ibn Sino</i> . Kitobul ishorat fil mantiq val hikmat. – O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, kitob fondi.
20.	<i>Ibn Sino</i> . Tadbiri manzil (arabchadan fors tiliga Muhammad Najmiy Zanjoniy tarjimasi). – Tehron, 1939.
21.	<i>Ibn Sino</i> . Tib qonunlari. 1, 2, 3-jildlar. – T.: «Meros», 1993.
22.	Kalila va Dimna. – T.: «O'zbekiston», 1992. 155-b.
23.	<i>Kaykovus</i> . Qobusnoma. – T.: «O'qituvchi», 1986. 104-b.
24.	Курбет Н.В. Акмеологические условия и факторы развития образа профессии у студентов политехнического колледжа: Автoref... канд. псих. наук. / ФГОУ ВПО «Российская академия государственной службы при Президенте Российской Федерации». – М.: 2007. 20-с.
25.	Кузьмина Н.В., Зимичев А.П. Проблемы акмеологических наук. -СПб.: 1990.
26.	<i>Komilov N.</i> Tasavvuf yoki komil inson axloqi. -Toshkent: Yozuvchi, 1996. K.1. –271 b.
27.	Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство. Пер. с итальянского. –Ростов на Дону: Изд-во «Феникс», 1997.
28.	<i>Lavater</i> . Physiognomische Fragmente zur Befrderung der Menschenkenntnis und Menschenliebe (Fragmenty fiziognomiki). 1775-1778.
29.	Михайлов О.В. Готовность к деятельности как акмеологический феномен: содержание и пути развития: Автoref...канд. псих. наук/ ФГОУ ВПО «Российская академия государственной службы при Президенте Российской Федерации». –М.: 2007. –23 с.
30.	<i>Navoiy A.</i> Xamsa. Asarlar. Besh jildlik, 1–5-jildlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.

31.	<i>Рыбников Н.А.</i> Деревенский школьник и его идеалы. — М.: 1916.
32.	<i>Сенека Луций Анний.</i> Нравственные письма к Луцилию. — М.: «Наука», 1977.
33.	<i>Temur tuzuklari.</i> — Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1992.
34.	<i>Tillayeva G.H.</i> Oila va inson kamoloti. Monografiya. — Т.: Falsafa va huquq instituti noshirlik bo'limi, 2011. 104-b.
35.	<i>Tillayeva G.H.</i> Akmeologiyaning ijtimoiy-axloqiy muammolari. — Т.: Falsafa va huquq, 2012. 160-b.
36.	<i>Tillayeva G.H.</i> Akmeologiya asoslari. — Т.: Falsafa va huquq, 2012. 168 b.
37.	<i>Forobiy Abu Nasr.</i> Fozil insonlar shahri. — Т.: «Xalq merosi», 1993.
38.	<i>Forobiy Abu Nasr.</i> Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida./ Muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: Qodirov M. Mas'ul muharrir: A.Jalolov. — Т.: «Yozuvchi», 2001.
39.	<i>Fitrat A.</i> Oila. — Т.: «Ma'naviyat», 1998.
40.	<i>Shayxova X.O., Nazarov Q.N.</i> Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. — Т.: «O'zbekiston», 1992. 116-b.
41.	<i>Shayxova X.O.</i> Ma'naviyat — kamolot ko'zgusi. Saylanma. — Т.: Falsafa va huquq instituti, 2009. 216-b.
42.	<i>Yassaviy A.</i> Devoni hikmat. — Т.: 1992.
43.	O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, kitob fondi, inv. №11763.
44.	<i>Qahhorova M.</i> Ma'naviy ideal. — Т.: «Ma'naviyat», 2008. 64-b.
45.	<i>Qubro Shayx Najmiddin.</i> Sharxe risolaye odob-ul zokirin. — Urganch, 1997.
46.	<i>Qur'oni Karim.</i> Baqara surasi. Uchinchi juz'. 269-band./ Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. — Т.: «Chö'lpön», 1992.
47.	<i>G'azzoliy Abu Homid.</i> Misbahun najot (Najot qandili) yoxud tarbiya. / A.Abdullaev tarjimasи. — Т.: «Istiqlol», 2007.
48	<i>Husayn Voiz Koshifiy.</i> Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. — Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.

Endi «Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o'ziga xos uslubiy yo'nalishlari» mezo-moduli tarkibidagi mikro-modullar asosida tuzilgan mashg'ulot loyihamonini keltiramiz.

2.1. «Akmeologiyaning mohiyati va asosiy kategoriyalari» mikro-moduli nazariy mashg'uloti loyihasi

Pedagog «stanishuv» va «aytib berish» usulini qo'llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o'quv mashg'ulotini quyidagicha boshlaydi.

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Bugungi «Akmeologiyaning mohiyati va asosiy kategoriyalari» mikro-moduli nazariy mashg'ulotimizda biroz yozishga to'g'ri keladi. Shu bois, daftarni ruchkalariningizni hozirlab, tayyorgarlik ko'ring.

So'z yordamida. Bugungi nazariy mashg'ulotimiz mavzusi: «Akmeologiyaning mohiyati va asosiy kategoriyalari» deb nomlanadi.

Hurmatli talabalar, marhamat, daftarlaringizni ochib yozing!

Izoh. Loyihada kursiv bilan belgilangan matn ta'lim oluvchilar uchun bo'lib, konspekt daftarlariiga yozish uchun tavsiya etiladi.

So'z bilan. *XXI asr insoniyat tarixida inson bilimining eng yuqori darajaga ko'tarilishi, uning aqlu-zakovati, fikrlash qobiliyati, manaviyati va taffakurining boyib borishi orqali professionallik darajasini shakllantirib borish lozimligini talab etmoqda. Ammo, qobiliyat, iste'dod, komillik, insondagi intiluvchanlik akmeologiya bilan uzviy bog'liq. Intiluvchanlik – istak, xohish, mayl, qiziqish, xobbi va boshqalar o'zini ochiq yoki yashirin holda ko'rsatadi. Bilim olishga ehtiyoj insonda ko'payib boradi. Inson miyasi tirik ekan, fikr yuritishi tabiiydir, zero, «Bilim inson ongi va ruhining oziqasidir»¹.*

¹ Ziyomuhamedov B. Mahorat asoslari. – T.: «Tib-kitob», 2009. 24-b.

Yetuklik holati insonda kutilmaganda va birdaniga paydo bo‘lmaydi. Unga va uning qandayligi uchun insonni barcha o‘ychan hayoti «ishlab beradi», faqat tabiatdan berilgani uchun emas, balki insonni yetuklik bosqichiga qanday jismoniy mustahkamlik zaxirasi bilan yaqinlashuvi ko‘proq yashab o‘tilgan turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu bosqichdan turib inson cho‘qqiga chiqish va tushib ketishlarini, qanchadan-qancha kechinmalarni boshidan o‘tkazishini unutish kerak emas. Bu uning sihat-salomatligi, shaxs sifatida va o‘zini turli faoliyatlarda ifodalashiga ham bog‘liq. Inson yetukligining qandaydir vaqt kesmasiga to‘g‘ri keladigan rivojlanishining eng yuqori darajasi, uning cho‘qqisi «akme»ning o‘zginasidir.

1. Uning akmeologiya erishuvidanagi faoliyatining natijalari bundan dalolat beradi.

2. Uning qay darajada mazmunan ko‘p qirraligi, boy ijtimoiy buyukligi, tashabbuskor va originalligi.

3. Ushbu professional cho‘qqining qaysi balandligini egallaganligidan dalolat beradi.

Albatta, insonning akmesiga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik vaziyatlar orqali hayot yo‘lining xususiyatlari ham bog‘liq bo‘ladi, ko‘tarilgan yetuklik bosqichiga u ko‘p jihatdan uning akmesining miqdor-sifat ko‘rsatkichlari, qanday qilib dunyoqarashi tashkil topganligi, umumiy va maxsus intellektining shakllangani, axloqli yadrosi tuzilganligi va ijodkorlik qobiliyatlarining rivoj topganligi bilan belgilanadi.

Insonlar noxush holatlarga qarshi turishlari va ularga qaramasdan o‘z fikrlarini amalga oshirishlari bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Ularning akmelari paydo bo‘lishini konkret sharoitlarini hisobga olib baholash, har doim individ, shaxs, faoliyat subyekti sifatida nimaga qodir ekanligini ko‘rsatadi.

Aytib o‘tilganlar akmeologiya yechadigan vazifalarning quydagi guruhini ochib beradi. Unga shaxs akmesining miqdor-sifat tavsifini belgilaydigan omillarning harakatini kuzatish, turli insonlardagi umumiylig va farqlarni ilmiy yoritish kabi masalalar kiradi.

Yuqoridagi masalaning birinchisi inson tomonidan to'laqonli akme ga erishishda va haqiqatan sodir bo'lishda qonuniyatlar va mexanizmlar ochib berishning muhimligini anglatadi.

Inson yadrosining qanday qadriyatli yo'nalişlari va munosabatlar tashkil etishi hamda qanday qobiliyatları va bilim, o'quv, ko'nikmalarining qanday zaxirasi katta bo'lganda uning faoliyat subyekti sifatida tavsiflab berilishiga ham bog'liqdır.

Akmeologiya makro, mezo, mikromuhitlar (davlat, jamiyat ta'lim va mehnat tamoyillari, oila va boshqalar bilan) hamda tashqi sharoitlarning insonga ta'sirining mexanizmlari va natijalarini qadamma-qadam kuzatib boradi.

Akmeologiya inson rivojida o'tadigan eng muhim bosqichning xususiyatlarini har tomonlama yoritib beradi. Yetuklikning induvidual kartinasining turli omillari, o'ziga xos harakatini tushuntirar ekan, insonlardagi o'shashliklar va farqlanishlarni ham belgilaydi. Yetuklik bosqichida insonning individ, shaxsiy, subyektiv xususiyatlarining paydo bo'lishi darajasini oddiy va mo'tadil deb bo'l-maydi.

Ushbu akmeologik jarayonda «jismoniy», «ruhiy», «intellektual» xususiyatlarning o'zaro ta'sirini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning ontogenezidagi rivojlanish xususidagi fanning bir bo'lagini ilmiy jamoatchilik «akme» termini bilan bog'laydi. Yetuklik yoshidagi inson taraqqiyotini kompleks o'rGANADIGAN fan esa akmeologiya deb ataladi.

O'tmishtdagagi uzoq tarixiy madaniyatimizga nazar tashlar ekanmiz, o'zbek xalqi insoniyatning ajralmas bir qismi ekanini, ushbu zaminda ko'plab allomalar yetishib, bu allomalarimizning ilmiy asarlarini tadqiq etar ekanmiz, ular akme, akmeologiya tushunchalariga yaqin iboralarni qo'llaganlarining guvohi bo'lamiz.

Hurmatli talabalar, endi ruchkalaringizni qo'yib, ushbu slaydga e'tiboringizni qarating.

Pedagog, kompyuterdan tarixda akmeshaxsga berilgan nom-larni PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi.

Tarixiy davr	Akmeshaxsga berilgan nomlar
Antik davr	Akmeinson, buyuk inson.
O'rta asrlar	«Valiulloh», «qibla», «qutb», «g'avs» (madadkor), «avtod» (ustunlar), «abdol» (badal qilingan), «maestro» va h.k.
Yangi davr	«Mutafakkir», «nuriy», «donishmand».
XX asr	<ol style="list-style-type: none"> Bizning zamonamizda buyuk san'atkorlarga «usta» yoki «yulduz» deb ta'rif beriladi. Buzruk olimlarga «ustoz», «ustod» degan ta'rif berilgan. Keksa yoshdagи inson, agar u barchaning hurmatiga sazovor bo'lib, el orasida obro'-e'tiborga erishgan va o'zining o'gitlari bilan boshqalarga ibrat bo'lsa, ularni «faxriy» deb ataydilar. Agarda shaxs siyosiy sohada o'z yo'nalishiga ega bo'lib, jamoani o'zining ketidan ergashtira olsa, o'z g'oyalariga boshqalarni ishontira olsa, bu «siyosiy arbob»ga «jamoat arbobi» deb murojaat qiladilar. Pedagogika va falsafa sohasida mukammallikka erishgan Abu Nasr Forobiya «muallimi soniy» kabi ramziy unvonlar berilgan. Sport sohasida, jumladan, tennisda eng yuqori yutuqlarni qo'lga kiritganlar «birinchi raketka» deyiladi.
XXI asr	Akme inson, akmeshaxs degan ta'rif berilgan.

So'z yordamida. Hozirgi davrda akmeologiyaning obyekti sifatida yetuk inson aqliy zukkolik, kasbiy faoliyat mahorati belgilari, omillari, cheksiz salohiyati, qobiliyati va iqtidolari sifatida qabul qilingan. Akmeologiyada mahsuldarlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi ko'rsatiladi. Shuningdek, insonning samaradorlik faoliyati uning rivojlanish apparatini tashkil qiladi. Akmeologiyada tekshiruv obyekti – yetuk professional shaxs, uning rivojlanishida obyektiv va subyektiv omillar, shaxsiy hayoti jarayonida yuksak marralarga erishishi o'rganiladi. Shuningdek, akmeologiya katta yoshdagи odamlarning yoshlik davrini

larida ijodiy yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishi va o‘z kasbiy akmesiga erishish yo‘llarini o‘rganishda milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanadi.

Akmeologiya jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarни o‘rganar ekan, insonlarning turli davr va sharoitlarda barqaror hayot yaratish uchun kurashi, mavjud qiyinchiliklarni yengib o‘tishi, bунyodkorlikda o‘zini ifodalash, ezgulikka intilish va erishishning yo‘nalishini, bunday faoliyatning ichki mexanizmlarini yoritib beruvchi fandir. Ushbu ma’noda akmeologiya insonning o‘z manfaatlarini ko‘zlab tutgan murakkab mashaqqatli tanlov yo‘lini ifodalab beradi.

Bu borada taniqli faylasuf olim Xatima Shayxova: «Akmeologiya — zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati — insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan iborat»¹, deydi.

Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishish haqidagi fandir va insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmini hamda asosan bundanda yuksakrok darajalarni egallash fenomenologiyasini o‘rganadi. Akmeologiya fan sifatida nafaqat alohida shaxs, balki millat va xalqning tarixiy yo‘lini ham tahlil etar ekan, turli madaniyatlar to‘qnashuvida dunyoga mislsiz daho, mashhur olimu mutafakkirlar yetishib chiqishini tadqiq etishda davom etmoqda.

Ushbu atama biror kasbga, biror bir sohaga mehr qo‘yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashni bildiradi.

¹ Shayxova X.A. Ma’naviyat — kamolot ko‘zgusi. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-b.

Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» bo‘lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik qobiliyatini anglatadi.

Akmeologiyaning mazmun-mohiyati — insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobji ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iboratdir. Akmeologiya kishining jamiyatda munosib o‘rnini topishga intilishi, ijtimoiy mavqeyiga, yuksaklikka intilishi deganidir.

Hurmatli talabalar, endi ruchkalaringizni olib, yozing!

Akmeologik izchillik, ya’ni mukammallik cho‘qqisiga intilish, bu — inson hayotining ajralmas xususiyati bo‘lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga moyillik anglatiladi. Bunday izchillik insonning ijodiy potensialida va kasbiy mahoratida o‘z ifodasini topadi. Akmeologik izchillik inson hayot-mamotining ontologik attributidir, ya’ni insonning tug‘ilganidan toki umrining oxirigacha bo‘lgan individual rivojlanish yo‘lini qamrab oladi. Akmeologiya aynan shu jihat bilan jamiyatshunoslik va insonshunoslik fanlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanib ketadi. Akmeologiyaning ijtimoiy bilimlar bilan aloqasi uning tarixiy va madaniy ildizlarini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ta’kid akmeologiyaning falsafa bilan o‘zaro bog‘liqligida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday aloqa ikki yo‘nalishda amalga oshadi — birinchidan bu, dunyo-qarashga oid tomon bo‘lsa, ikkinchidan, metodologik tomonni tashkil etadi.

Akmeologiya inson kasbiy faoliyati doirasidagi professionallik va ijodiylikning akme shaklining rivojlanishi uchun zarur qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lgani uchun «akmeologiya» atamasining mazmuni, mohiyati insonshunos olimlar tomonidan turli bahs va munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Buning boisi, birinchidan, akmeologiya sohasida ilk davrlarda asosan pedagoglar, psixologlar tomonidan chop etilgan ilmiy

asarlar, etika ixtisosligi bo'yicha himoya qilinayotgan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari fanning u yoki bu jihatlarinigina qamrab olganligi sababli ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi.

Ikkinchidan, akmeologiyaning tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak takomiliga erishishi, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi hamda bundanda yuksakroq darajalarini egallash fenomenologiyasini o'rganishi, ya'ni biron kasba, sohaga astoydil mehr qo'yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashini bildirishi hamda akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi ekanligining fanlar integratsiyasi kesimida kompleks o'rganilmaganligidadir.

Shu bois ham, fikrimizcha, akmeologiyani faqat shaxs kasbiy faoliyatining psixologik va pedagogik jihatlarini tadqiq etish inson resurslarining barcha imkoniyatlarini kompleks tarzda o'r ganish yo'lida yetarli emasligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Aytib o'tish kerakki, inson qancha ko'p bilim olsa, u barkamollikka erishadi va unda yaxshilik, bag'rikenglik, mehr-muhabbat, uzoqni ko'ra olish va tezkor fikrlash, his-tuyg'ular ko'proq shakllanadi. Akmeologiya shuning uchun ham «Intilganga tole yor», «Xudo yorlaqagan» kasb-korga erishish qonunlari va mexanizmlarini o'rganmoqda. Akmeologiyada hal etish lozim bo'lgan muammolardan biri inson va ijtimoiy muhitning tafsiflaridagi bir-biri bilan o'zaro aloqasini ochib berish hisoblanadi.

Chunki iqtidorli yoshlar har bir jamiyatning asosiy ijtimoiy-axloqiy qudratini, salohiyatini, kelajagini belgilaydigan kuch-qudrat hisoblanadi.

Unga shaxslarning kichik va katta jamoalarini misol keltirish mumkin: boshqaruv guruhlari, sport jamoalari, ishlab chiqarish birlashmalari, siyosiy partiyalari, etnoslar, elatlari, davlatlar va boshqalar ularning rivojlanish va o'z-o'zini rivojlanish qonuniyatları va mexanizmlarini qidirish, tahlil etish natijasi bo'lib, ularning akmega erishishlari bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda ular kutgan cho'qqilar yoki ularning akmesi asosiy fenomen

bo‘lib chiqadi. Ularni umumiy, xususiy alohida xarakteristikalarini maqsadga yo‘nalgan, tarzda ketma-ketlikda ochib boriladi va bayon etiladi.

Binobarin, bular insonlar jamoasida kelib chiqqan obyektiv va subyektiv omillar o‘zgarishlarini o‘rganish chog‘ida sodir bo‘ladi. Masala konkret ravishda qo‘yiladi va yechiladi.

Ayrim tadqiqotchilar shaxsni fuqaro, umr yo‘ldoshi, ota-onasi va ma’lum konkret sohaning mutaxassisi sifatida shakllanganiga qarab «**katta yoshdagi**»lik tushunchasini «**yetuklik**» tushunchasining sinonimi sifatida tahlil etadilar. Bu esa, turli tarmoq olimlarining ilmiy munozaralariga sabab bo‘lmoqda.

Avstriyalik shifokor **Frans Iosif Gayll (1758—1828)** inson xarakteri va uning intellektual qobiliyatlarini bosh suyak chanoga‘i (frenos)dagi bo‘rtiqlar va botiqlar joylashuvi hamda turmush tarzining kechishi bilan chambarchas bog‘liq, deb hisoblaydi¹. Olimning fikriga ko‘ra, insonning ilk yoshlik davrida mavjud frenologik xarita turmush tarzi ta’sirida o‘zgarishi mumkin². Buni quyidagi 2-slayddagi suratdan ko‘rib, olimning g‘oyasini qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Pedagog kompyuterdan inson xarakteri va uning intellektual qobiliyatlarining turmush tarzining kechishi bilan chambarchas bog‘liqligi haqidagi Frans Iosif Gayll nazariyasini PowerPoint slaydi ko‘rinishida namoyish etadi.

Endi biroz yozamiz. Akmeologiyada yetuklik tushunchasi ko‘plab obyektiv va subyektiv jarayonlar va holatlarning o‘zaro murakkab aloqadorlik natijasi bo‘lib, insonning shaxsiy hayoti, ijodkorligi, ishbilarmonlik qobiliyati, novatorlik xususiyatlarini ham qamrab oladi. Akmeshaxsnинг yetuklik darajasi, mohiyati tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy fanlar bilan yaqin aloqadorlikda kompleks ochib beriladi.

¹ Qarang: Dr. F .J. Gall's system of the functions of the brain extracted from Charles Augustus Blode's, account of Dr. Gall's lectures, held on the above subject at Dresden. 1815.

² Qarang: Dr. F .J. Gall's system of the functions of the brain extracted from Charles Augustus Blode's, account of Dr. Gall's lectures, held on the above subject at Dresden. 1815.



Umuman olganda, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz o'zining yuksak rivojlanish nuqtasi, fuqarolik jamiyatini barpo etishga yaqinlashmoqda. Bu esa ayni paytda akmeologiyaning asosiy kategoriyalaridan mukammallik, yuksaklik, oliy daraja kabi tushunchalar kundalik turmushda ishlatalib kelingan bo'lsa-da, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy nuqtayi nazardan maxsus ilmiytadqiqot sifatida to'la o'r ganilmagan. Xulosa o'rnidida shuni e'tirof etish lozimki, insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida yuksaklik va mukammallikka intilish kishini sog'lom turmush tarzi yo'laklaridan o'tishga undaydi. Zero, sog'lom turmush tarzi muvaffaqiyatlar va yutuqlar asnosida maydonga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda, akmeologiyaning asosiy mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'nnaviy-huquqiy jihatlariga ijobiyligi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga

sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishish jihatlarini fanlar bilan uyg'unlikda o'rganishdan iborat bo'lib, u insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy dunyosida yuksakroq cho'q-qilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o'rganadi¹, deya olamiz.

Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarining ogilona yechimini muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmoqdalar. Bu degani, ular integrativ-kompleks o'rganish muhimlik g'oyasini ilgari suradilar². Bizning fikrimizcha, faqatgina kasbiy yuksaklikka erishish g'oyasi bilan chegaralanish muammoning yechimiga olib kelishi mushkul.

Akademik B.G.Ananyevning ilmiy maktabida inson ontogenetika uning taraqqiyotini belgilovchi vositalarni yoritishda kompleks yondashuv qo'llaniladi. Shunga ko'ra bir yosh darajasidan ikkinchisiga o'tishda inson ruhiyatni va ichki dunyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatganda ushbu o'zgarishlarning sabablarini chuqurroq tushuntirish uchun nafaqat psixologiya, balki ma'naviyat, axloq, falsafa, pedagogika, fiziologiya, anatomiya kabi fanlar bilan bir qatorda, iqtisod, siyosat, huquq, sotsiologiya kabi fanlarni kompleks qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ruchkangizni qo'ying! Biz yuqorida inson ruhiyatini kompleks o'rganish dasturi haqida gapirdik. Endi uning tasnifini slayd ko'rinishida tahlil etamiz.

Pedagog kompyuterdan inson ruhiyatini kompleks o'rganish dasturini PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi (3-slayd).

Hozirda umumiy akmeologiya bilan bir qatorda insonning aniq sohalardagi faoliyatini professional shakllantirish va rivojlantirish xarakteriga ega boshqa tarmoqlar shakllanmoqda.

Biz yuqorida akmeologiyaning tarkibiy bo'lmalari haqida gapirdik. Endi uning tasnifini slayd ko'rinishida tahlil etamiz.


Pedagog kompyuterdan akmeologiyaning tarkibiy bo'lmalarini PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi (4-slayd).

¹ Tillayeva G.T. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – T.: Falsafa va huquq, 2009. 149-b.

² Яценко Н.Е. Толковый словарь обществоведческих терминов. – СПб.: 1999.


3-slayd

INSON RUHIYATINI KOMPLEKS O'RGANISH DASTURI



4-slayd

AKMEOLOGIYANING TARKIBIY BO'LIMLARI



Umumiy akmeologiya – akmeologiya fanining predmeti va uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni, metodologik tamoyillari va yondashuvlari, metodlari, individ, shaxs, faoliyat subyekti sifatida odamni akmeologik tushunish, insonning yoshi va rivojlanish davriyligiga akmeologik yondashuv, inson rivojlanishining cho'q-qilari – «akme»si va uning asosiy xarakteristikalarini o'rganadi.

Tatbiqi akmeologiya – akmeologiyaning amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, turli soha vakillari yutuqlarining akmeogrammik tahlili asosida shaxsiy va professional rivojlanishining akmeologik texnologiyalari mohiyati, shaxsiy va professional rivojlanishni sifatiy baholash metodlari va miqdoriy o'lchovlari, shaxsiy va

professional rivojlanishni takomillashtirishning akmeologik texnologiyalari asosiy turlari, shaxsiy va professional rivojlanishni tashkil etish va ularni optimal amalga oshirishda akmeologik texnologiyalar bilan ishlaydi.

So‘z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida akmeologiya tushunchasining mohiyati va asosiy kategoriyalari haqida gapirdik. Siz bugungi konspektlar va qo‘srimcha tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o‘zlashtirishingiz lozim.

Shu bilan, nazariy o‘quv mashg‘ulotimiz tugadi, yana uch-rashguncha xayr, omon bo‘linglar!

2.2. «Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlari» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi

Amaliy mashg‘ulot nazariy mashg‘ulotga nisbatan ta’lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritib, aytib va ko‘rsatib berishlari bilan amalga oshganligi sababli, pedagog ta’lim oluvchilar faoliyatini boshqarib turishi munosabati bilan, bu jarayonni loyihalashda faqat o‘quv mashg‘ulotini modullarga ajratib, ularning maqsadlarini, ularga ajratilgan vaqt va qo‘llaniladigan o‘quv mashg‘uloti tipi va pedagogik usullarini hamda nazorat savollarini ifoda etuvchi jadvallar tuzib olinadi.

2.2.1-jadval

«Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlari» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish-harakatlar
1.	Akmeologiya atamasining ilmiy muo-malaga kiritilishi, akmeologiya va akmeshaxs tushunchalarining mohiyati va ta’riflari.	20 daqiqa	Yozish

2.	Akmeologiyaning predmeti, obyekti maqsadi va vazifalari, asosiy yo‘nalishlari, usullari, boshqa ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.	20 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
3.	Akmeologik moyillik nazariyasi.	20 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
4.	Akmeologiyada inson yetukligining ma’lum vaqt kesimiga to‘g‘ri kela-digan rivojlanishining eng yuqori darajasi, bu cho‘qqining «akme» bilan belgilanishi, hozirgi davrda akmeologiyaning obyekti sifatida: yetuk inson, aqliy zukkolik, kasbiy faoliyat mahorati belgilari, omillari, cheksiz salohiyati, qobiliyati va iqtidorlari sifatida qabul qilinganligini talabalar ongiga singdirish.	20 daqiqa	Yozish. Munozara.
5.	Talabalarni baholash.	10 daqiqa	Savol-javoblar va mavzuni mustah-kamlash.

2.2.2-jadval

2.2. «Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlari» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi	Qo‘llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Kirish o‘quv mashg‘uloti»	«O‘qish va yozuv»
2.	«Yangi bilimlarni egallahsh»	«O‘qish va yozuv», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni egallahsh»	«O‘qish va yozuv», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

«Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlari» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo‘llaniladigan savollar

T/r	Nazorat savollari
1.	Akmeologiya atamasi qachon va kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?
2.	Akmeologiya yangi fanmi yoki ma’naviyay merosimizda uning poydevori mavjud edimi?
3.	Sharqda «akme» tushunchasida ma’nodosh qanday so‘zlardan foydalaniilgan?
4.	Sharqda farzand tarbiyasiga akmeologik tarbiya nazariyasi nimalarga asoslanar edi?
5.	Akmeologiyaning rivojlanish tarixi borasida G‘arb mutafakkirlarining nazariyasi qanday?

Endi ushbu mashg‘ulot ssenariysini keltiramiz.

Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usulini qo‘llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalaniib, o‘quv mashg‘ulotini quyidagicha boshlaydi.

Assalomu alaykum hurmatli talabalar!

Bugungi amaliy mashg‘ulotimizning mavzusi: «Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlari» deb nomlanadi.

Iltimos, yozing. *Akmeologiya atamasi 1928-yilda rossiyalik psixolog N.A.Ribnikov¹ tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan. Inson ontogenezidan keyingi bosqichlarida rivojlanib boradigan, yetuklik bosqichigacha shakllanadigan, individual shaxsiy va subyektiv taraqqiyotida ko‘tarilib boradigan cho‘qqini ilmiy mifiktabning bu namoyondalari ko‘pincha kulminatsiya yoki optimum deb ataydilar.*

¹ Деревенский школьник и его идеалы. – М.: 1916; Биографии и их изучение. – М.: 1920; Психология и выбор профессии. – М.: 1923; Методы изучения ребенка. – М.: 1923; Память, ее психология и педагогика. – М.-Л., 1930; Об ошибках чтения и приемах борьбы с ними. – М.: 1939.

Insoniyat tarixida fan, madaniyat rivojlanishida tub o'zgarish yasagan Uyg'onish davrining akmeologik tomoni shundaki, bunda insomning o'z-o'zini anglash tizimi va uning darajalarini aniq-lovchi tashkiliy tuzilmalarning turli-tumanligidadir. Bir soha akmesi, masalan, falsafa, boshqa soha va yo'nalishlar — astronomiya, matematika, meditsina va boshqa fanlar akmesi bilan bog'lanib ketdi.

Ayrim manbalarda akmeologiya B.G.Ananyev, V.M.Bexterev, V.N.Myasishev, E.S.Kuzmin, N.V.Kuzmina, N.A.Ribnikov va boshqalar tomonidan yaratilgan yangi fan, degan qaydga nazarimiz tushadi. Ammo bu kabi ta'rifning qanchalik to'g'ri ekanligiga albatta ilmiy nuqtayi nazardan qarash maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'yaymiz.

Sababi, akmeologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari tarixiy-falsafiy davrlar silsilasi bilan bog'liq. Ya'ni, akmeologik dunyo-qarash qadingi Yunoniston mutafakkirlari¹ va zardushtiylik ta'limotining kitobi «Avesto», islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Hind eposi «Kalila va Dimna» hamda Kaykovusning «Qobusnomá» asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu davrda «akme» so'zi o'rnila «mukammallik», «oliy nasab» kabi tushunchalar ishlatalig'an.

Kaykovusning «Qobusnomá» asarida har bir yosh kasb-hunar yo'lida ilm-bilim egallashi, aql-zakovatni charxlashi bilan birga eng oliv insoniy fazilatlarga ega bo'lsagina yuksak maqsadlarga erisha olishi mumkinligi to'g'risida so'z boradi. «Barcha donish va hunarning sarmoyasi, — deydi Kaykovus, «adab, tavoze, hayo, pokdillik, beozorlik, sabr va matonatdir. Fazl egasi bo'lay desang, so'zlash va so'zlashish san'atini egalla, chunki aql, idrok bilan aytilgan so'z yoki harakat aql va hikmat ko'zining surmasi va do'sti yog'idur»². Bizningcha, ilm-bilim va hunar egallash eng zaruriy jihat bo'lsa, ikkinchi muhim jihat — kishilar bilan doimiy muloqotda, munosabatda bo'lish har bir yoshdan ma'naviy, axloqiy madaniyatni chuqur egallahshni talab qiladi.

¹ Аристотель. Никомахова этика. / Сочинения. В 4-х т. Т. 4. — М.: «Мысль», 1983; Сенека Луций Анний. Нравственные письма к Луцилию. — М.: «Наука», 1977.

² Kaykovus. Qobusnomá. — Т.: «O'qituvchi», 1986. 19-b.

Inson yoshi, vazifasi, faoliyatidan qat'i nazar doimo insonlar orasida yashaydi, o'qiydi va o'z faoliyatini namoyon etadi. Chunki har kim ilm-bilim egasi bo'lsa ham, o'z muomala, xatti-harakati va odobida xato qilsa, saodatdan, boshqalar hurmatizzati, obro'si va qadrlashdan mahrum bo'ladi. Zero, mustaqil yurtimiz yoshlari yanada aqlli, dono, bilimdon, odobli, ijodiy va intellektual salohiyatga ega yetuk va mukammal shaxs bo'lib yetishishlari uchun, eng avvalo, o'zlarida insoniy sifatlarni jo etmoqlari muhim.

Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, Sug'diyonada o'g'il bola besh yoshga to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilgan, 20 yoshga kirganida biron kasb, hunarni egallagan bola savdo-sotiqni o'r-ganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi. Xalifalikning yangi poytaxti Bog'dodda 832-yili «Baytul hikma» («Donish-mandlar uyi») tashkil etilib, uning ehtiyoji uchun katta mablag' ajratildi. Uning qoshida ikkita rasadxona, ilmiy markaz tashkil etilib, dunyoning turli yerlaridan avvallari bitilgan, ilmga oid adabiyotlar to'plandi. Ular yunon, lotin, hind, xitoy, fors va boshqa tillardan arabchaga tarjima qilindi, o'rganildi. Bunday ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish matematika, astronomiya, geografiya kabi fanlarning yaratilish va rivojlanish davri bo'ldi, desak, aslo adashmaymiz.

Xorazmshox davlatiga xos osoyishtalik asosida moddiy ishlab chiqarish va madaniy rivojlanish jarayoni jadallahdi, shahar hayoti yuksala bordi. Ishlab chiqarish va hunarmandchilik turlari ko'paydi. Tog' jinslarini ishlash, shishasozlik, savdo-sotiq kuchaydi. Davlat boshqaruvi tizimida madaniyatni yaxshi ang-lagan, ilmli insonlar ko'paydi. Bu davrga kelib san'at, ayniqsa, devoriy tasvir, haykaltaroshlik, badiiy yog'och o'ymakorligi ham rivojlandi.

E'tirof etish lozimki, insoniyat olami o'zining yechilmagan jumboq va mo'jizalari bilan tabiatning ajoyib gultoji sifatida boshqa jonli mayjudotlardan o'z tafakkuri va aqli bilan ajralib turadi. Shu bois ham, *insoniyat taraqqiyotining bosqichma-bos-qich rivojlanishiga nazar tashlasak, har bir bosqichda o'ziga xos yangi-yangi cho'qqilar, muvaffaqiyatlar va komillik sari intilishini kuzatishimiz mumkin:*

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida inson o'z qo'l mehnati nati-jasi sifatida tanasining mukammallahishi va turli mehnat quro-larini shakllanishiga erishdi.

2. Quldarlik tuzumi davrida qishloq xo'jaligi va davlat bosh-qaruvi (siyosat)da o'ziga xos daraja, pog'onalarga erishdi.

3. Feodal boshqaruva va kapitalistik tuzumlarda inson nafaqat qishloq xo'jaligi, madaniyat, balki sanoat va ishlab chiqarishda (jumladan, paxtani qayta ishlash) katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

4. Sobiq turg'unlik davrida ham insoniyat ishlab chiqarish va sanoatni texnikalashtirishga erishdi. Ko'rinish turibdiki, insoniyat o'z taraqqiyoti davomida faqat mukammalik sari intilib, turmush sharoitini yanada yaxshilashga harakat qilib kelgan.

5. Hozirgi globallashuv davrida mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatimiz o'zining yuksak rivojlanish nuqtasiga yaqinlashmoqda desak, aslo xato qilmaymiz. Albatta, biz yugorida ta'kidlab o'tgan barcha dalillar, hammaga birdek ma'lum. Ammo mukammallik, pog'ona, daraja, yuksaklik kabi tushunchalar kun-dalik turmushda ishlatib keligan bo'lsada, uni ta'limot sifatida e'tirof etilmagan deyish to'g'riroq bo'lar edi.

Tabiiyki, akmeologiya fanining tarixiy va madaniy ildizlari uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Bu o'rinda bizga Avestoning kitobi, Bexustin bitiklari va hatto ajdodlarimiz qabr toshlaridagi yozuvlar ham muhim tadqiqot manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi «Avesto»da mukammallik haqida ayrim qaydlarni ko'rish mumkin:

«— Ey olamni yaratgan Zot!

Ey Haqiqat!

Zamin, hammadan ko'ra baxtliroq (mukammal — T.G.) bo'lgan dunyodagi ikkinchi joy qayer?

Axura Mazda javob berdi:

— Bunday joy bir Ashavan uy tiklagan makondir. O'sha uyda Mo'bat ro'zg'or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi, farzandlar va suruvsalar yashaydi bu uyda. Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi... Tevalar xo'raki farovon, yaxshi itlarning rizqi serob.

Uy bekasi baxtiyor. Farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi. Tiriklikning go'zal bir hodisasi yaxshilikka qovushadi¹.

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida akmeologik qarashlar yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, Abu Nasr Forobi, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, kabi allomalar asarlarida tariximiz va madaniyatimiz yorqin ravishda ko'zga ko'rindi. IX–XII asrlarda va undan keyingi davrlarda mintaqamiz tarixiga oid solnomalar va risololar talaygina yaratildi. Bular orasida «Buxoro tarixi», «Kesh va Nasaf o'tmishi», «Samarqand tarixi», «Xorazm tarixi» kabi u yoki bu hudud o'tmishi, aholi turish-turmushi, siyosiy ijtimoiy ahvoli to'g'risida katta-kichik asarlar vujudga keldi. Mahmud Qoshg'ariyning uch jiddlik «Turkiy so'zlar lug'ati» o'zbek va boshqa turkiy tillar tarixini o'rghanishdagi muhim manbadir. Akademik B.Axmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» kitobida o'lkamiz tarixiga oid o'rta asrlarda yaratilgan yetmish olti asarga izohlar beriladi. Vatanimiz tarixini chuqurroq o'rghanishda «Nizomul-mulkning «Siyosatnomasi», An-Nasaviyning «Sulton Jamshiddin Manguberdi», Sohibqironning «Temur tuzuklari», Ali Yazdiyning «Zafarnomasi» Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Zahiriddin Boburning «Boburnoma», Abulg'ozixonning «Shajarayi turk», M.Solihning «Shayboniy nomo» asarlari ham muhim manbadir.

Akmeologiyada obyektiv va subyektiv omillarga katta e'tibor qaratiladi. Bu omillar o'zaro aloqadorlikda bo'lib, katta yosh-dagi insonni akme darajasiga erishishiga imkoniyatlar yaratadi.

Markaziy Osiyoda IX–XII asrlar fan va madaniyatning yuksalishi, «uyg'onish», «tiklanish» ma'nosidagi renessans jarayoni bilan ifodalananishi mumkin. Bunday holat ma'lum bir davrdagi alohida jamiyatning «akme»sini ifodalabgina qolmay, balki mod-diy va ma'naviy taraqqiyotga erishish omillarini ham ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mutasakkirlaridan Kaykovus, Nizomulmulk, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida insondagi kasb-hunar fazilati tug'ma

¹ Avesto. Videvdat, 3-fargard, 2–3-bandlar. – T.: «Sharq», 2001. 112-b.; Mahmudov T. «Avesto» haqida. – T.: «Sharq», 2000. 14-b.

emasligi, aks holda fikriy fazilatda mutlaqo kuch va ulug'lik bo'imasligi, agar *kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda*, *podshohlar ham o'zлari istab va harakat qilib emas*, *balki podshohlik ularga faqat tabiiy bir majburiyat bo'lib qolishi*, *kasb-korlikda mukammallikka erishish uchun ham fikriy va aqliy fazilat*, *va ham tug'ma qobiliyatlarni birdek ishga solish*, *ta'lim va tarbiya, o'rganish orgali malaka hosil qilishi mumkinligi uqtiriladi*.

Me'morchilikdagi yangi g'oyalar, yangicha naqsh uslublari ning rivojlanishi, binokorlikda pishgan g'isht ishlatish shular qatoridan o'rin olishi mumkin. Yoki Markaziy Osiyoda so'fiylik ta'limoti sifatida paydo bo'lgan qarashlarda insonning pok bo'lishi, Alloh yo'lida har qanday noma'qul ishlarni qilmaslik, adolatli bo'lish kabi xislatlarni rivojlantirgan.

XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida paydo bo'lgan jadidchilik harakati davri tafakkur rivoji insonlar ongida yuksaklik, beqiyoslik, komillik kategoriyalarining shakllanishiga olib keldi. *Jadidchilik harakatining fidoyilaridan Mahmudxo ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziylarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko'zga tashlanadi: mustahkam irlsiy ildiz hamda Sharq va G'arb ma'rifatchilari, faylasuflarining nazariy merosini egallashga intilish, ular mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqishning garovi G'arb va Sharq madaniyatlarini uyg'unlashtirib, xalqning ko'zini ochish va shu asosda mukammal jamiyatga ega bo'lish g'oyasi tafakkur rivoji insonlar ongida yuksaklik, beqiyoslik, komillik tu-shunchalarining shakllanishiga olib keldi.*

Jumladan, Abdurauf Fitrat millatning saodati va izzati, albatta, shu millat oilalarining intizomiga tayanishi, *qayerdaki oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va mastahkam bo'lishligi haqida fikrlarni e'tirof etadi!* *Biz bu fikrga albatta ijobjiy yondashamiz. Zero, farzandni*

¹ Umarova F. Fitratning «Oila» asarida komil inson muammosi. // «Yosh-larning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog'lom turmush tarzining o'mni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2008-yil 30-may). – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. 144–145-b.

kamol toptirib o'stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma'naviy tarbiyadan iborat ko'p tarkibli tarbiya berish muhimdir. Fitratning akmeologik qarashlari negizida ayol qiyofasining yangicha talqini ilgari surilgan bo'lib, u o'z davridagi erving ayoliga nisbatan feodallarcha munosabatini keskin tanqid qiladi va ayollar huquqini mensimaslik sabablarini ilm diniy va dunyoviy ishlarni bajarish uchun zarur, ayollar ham ilm o'rganishlari muhimligi haqidagi g'oyadan qidiradi. U ilmli tarbiya ko'rgan ayollar erlarini o'zlariga oshiq qilishi, farzandlarini jismonan sog'lom, aqlan va axloqan mukammal tarbiyalashi, eng muhimi esa yoshlarning har tomonlama kamolotga erishuvida ota-onaning bir xil javobgarligini unutmaslik lozimligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, Sharq mutafakkirlarining qarashlarida kasb egallahsha kamolotga erishish bilan birga uning ma'naviy axloqiy fazilatlar bilan chambarchas bog'liqligi haqida so'z boradi.

G'arb tarixiy tafakkurida akmeologik nazariyalar N.A.Ribnikov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa-da, V.G.Ananyev tomonidan shakllantirilgan va A.A.Bodalyov tomonidan rivojlantirilgan.

Zamonaviy akmeologiyaning vakili rossiyalik psixolog, akademik A.A.Derkachning ilmiy izlanishlari bu fanni institusional bosqichga ko'tardi.

Akmeologiyaning tabiiy fan sifatida shakllanishini izohlashda Frensis Galtonning xizmati alohida ahamiyat kasb etadi. U ijodiy faoliyatida insonning o'xhash qobiliyatları, ozod iroda kuchini o'rgana turib uning toza nasli, ya'ni yevgenik jihatni atrof-muhitning holati bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqidagi g'oyani ilgari suradi, I.Perna¹ inson qobiliyatları sifat mahsulorligining turli psixobiologik omillarga bog'liqligini isbotladi.

¹ Пэрна И.Я. Ритмы жизни и творчества: акмеология. — Петроград: 1925; Пэрна И.Я. Жизнь человека (из дневниковых записей). — СПб.: 1993.

Insonning oliv va tuban nuqtalari, shaxsning yetuk, mukammal, professional mutaxassis sifatida shakllanishi, uning «akme» cho‘qqlarga erishishi barobarida ijtimoiy-axloqiy muhit hamda irsiy sabablar ta’sirida tubanlikka yo‘l tutishi haqidagi g‘oyalar bir guruhi frenolog olimlar – Iogann Kasar Lavater, Frans Iosif Gall, Georg Kombe, Chezare Lombroz asarlarida o‘z ifodasini topgan¹. Bu olimlar ilgari surgan nazariyaning asosiy mazmuni inson tabiatining asosiy shakllanish sharti, avvalo, uning irsyili-gida bo‘lsa, so‘ngra sog‘lom turmush tarzining takomillasha borishidadir.

Akmeologiya sohasi tadqiqotchilar – psixolog, pedagog va faylasuflar B.B.Barsis, I.A.Bespalov, G.P.Verbitskaya, L.E.Elshina, S.E.Zakovryashina, Y.P.Kostenko, N.V.Kurbet, N.V.Kozlova, Y.A.Lixacheva, O.V.Mixaylov, K.V.Petrov, V.N.Sofina, V.A.Semikov, I.N.Stepanova, O.V.Faller psixologik nuqtayi nazardan akmeformni o‘rganish va tahlil qilish, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratish, turli kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarining ish jarayoni, usullari ustida kompleks tekshiruvlar o‘tkazish asosida yangi yutuqlarga erishishning institusional shaklini yaratish taklifini ilgari surdilar.

Lekin, shuni aytish lozimki, ko‘pchilik adabiyotlarda kasb-hunar va kasbiy mahorat alohida, shaxs ma’naviy-axloqiy kamoloti alohida tahlil qilinadi. Ammo bizning akmeologiya sohasida tahlil qilgan ilmiy asarlarimizda, olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda akmeologiyaning faqat psixologik, pedagogik va sotsiologik muammolari o‘rganilgan.

Jumladan, G‘arb falsafasida kasb-hunar egallash moddiyun-chilik nuqtayi nazaridan qaralib, mukammallikka erishish ijtimoiy-axloq, xulq-odob qoidalari bilan chambarchas bog‘liqligi hisobga olinmaydi.

¹ *Lavater. Physiognomische Fragmente zur Beforderung der Menschenkenntnis und Menschenliebe* (Фрагменты физиогномики). 1775–1778; Dr. F.J.Gall’s system of the functions of the brain extracted from Charles Augustus Blode’s, account of Dr. Gall’s lectures, held on the abore subject at Dresden. 1815; *Комбе Г. Конституция человека. 1828; Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство. Пер. с итальянского. – Ростов на Дону: Изд-во «Феникс», 1997.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng olimlarimiz kasb-hunar egallashda mukammallikka erishish, kasbiy mahorat to‘g‘risida o‘tmish mutafakkirlarining qarashlari, hozirgi zamonda turli kasblarning ijtimoiy-axloqiy jihatlari to‘g‘risida qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar. Jumladan, akademik M.Xayrullaev, falsafa fanlari doktorlari X.A.Shayxova, Y.Jumaboev, H.Aliqulov, A.Q.Qodirov, R.Nosirov, G.Navro‘zova, filologiya fanlari doktori N.Komilov, falsafa fanlari nomzodlari M.M.Qahhorova, X.Rahmatova, filologiya fanlari nomzodi S.Olim va boshqalar mutafakkirlar turli kasb egalarining axloqiy qiyofasi, ularning qanday axloqiy fazilatlar va xulq-odob qoidalarini egallashlari lozimligi to‘g‘risidagi fikrlarni tarixiy-falsafiy jihatdan o‘rgandilar.

Umuman olganda, mavjud tadqiqotlarda akmeologiya yaxlit va tizimli holda o‘rganilmagan, uning maxsus fan sohasi, ta‘limot sifatida, qirralari, muhim xususiyatlari kasbiy etikasiz tasavvur qilib bo‘lmasligi ochib berilmagan.

Shular asosida barcha fanlar qatori akmeologiyaning o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari yuzaga keldi. Birinchidan, **tabiiy ilmiy yo‘nalish** – klassik tabiiy fanlarni murakkablashtiruvchi metodologik jihatdan intizom standartlari bilan (dalillar, mexanizmlar, qonuniyatlar, matematik modellashtirish) mustaqil fan sifatida shakllanishiga yo‘naltirilgan. Ikkinchidan, bir qator akmeologik masalalarni, tabiiy qobiliyat, genetik va psixofiziologik qobiliyatlar tarkibiy qismlari va professional mahoratli bo‘lishda psixologik ko‘nikma va boshqalarni hal qilishda yoshlar fiziologyysi, psixogenetika, mehnat psixofiziologiyasi tabiiy bilimlari apellyatsiya o‘rnini egallaydi.

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish yanada ko‘p qirrada namoyon bo‘ladi. Akmeologiya bir tomonidan, inson haqidagi bu fanlarning genetik manbayi sifatida tarixan birgalikda rivojlanadi, ikkinchi tomonidan, ularning fan sifatida erkin rivojlanishini shakllantirish orqali o‘z ontologik ahamiyatini ko‘rsatadi. Demak, akmeologiya fan sifatida kirib kelgunga qadar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika fanlari akmeologik masalalarga o‘xshab ketuvchi professionalizm, ijomat, salohiyat va gerontologiya masalalari bilan shug‘ullangan. Ammo aynan mahoratning kamol topishi – akmeform cho‘qqisiga erishishda asosiy

urg‘u berilishi avvaliga maxsus akmeologik masalalar tug‘ilishi hamda keyinchalik o‘ziga xos akmeologik texnologiyalarning konseptual-metodologik tuzilishiga olib keldi. Taraqqiy qilgan sayin asosiy fan, ya’ni akmeologiyaning maxsus obyekti va uslubi paydo bo‘ldi.

Texnologik yo‘nalish – bu nafaqat bir qancha texnik fanlar (kibernetika, tizimli texnika, ma’lumotlar nazariyasi va boshqalar)ning o‘zaro harakati bo‘lmay, balki ularni mavjud bilimlarni amaliyotga yo‘naltirishda aniq dasturdan foydalanish hamdir. Bunda akmeologiyaning texnik qoidalar bilan o‘zaro aloqasi o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmay, balki inson omillarini texnikaga moslashtirishga yo‘naltirilgan ergonomika bilan bog‘lanadi. Shu o‘rinda, ya’ni qayd qilish lozimki, boshqa tarafdan ikki tomonlama ko‘rinishda: gumanitar bilimlarning o‘sishi (masalan, psixotexnika va o‘yin texnikasi, innovatika va refleksika kabilalar) natijasida texnik fanlarning insonparvarlashishi (bionika, sotsionika, sinergetika va boshqalarning paydo bo‘lishi) – zamonaviy praksiologiya doimo akmeologiya diqqatida bo‘ladi.

Umuman olganda, akmeologiya bugungi insonshunoslik fanlari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, yuksak professional kadrlar tayyorlash siyosatining ajralmas qismi desak, aslo xato qilmaymiz.

So‘z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlarini «Avesto», Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karim, hind eposi «Kalila va Dimna» hamda Kaykovusning «Qobus-noma» asarlari, qadimgi Yunoniston mutafakkirlari Aristotel, Seneka Lusiy Anniy, zardushtiylik ta’limoti misolida o‘rganish; insoniyat taraqqiyotining bosqichma-bosqich rivojlanishi jarayonida har bir bosqichda o‘ziga xos yangi-yangi cho‘qqilar, muvaffaqiyatlar va komillik sari intilishni kuzatish; Sharq ma’naviy merosida insondagи kasb-hunar fazilati tug‘ma emasligi haqidagi g‘oyalar; G‘arb tarixiy tafakkurida akmeologik nazariyalar; frenolog olimlar – Iogann Kasar Lavater, Frans Iosif Gall, Georg Kombe, Chezare Lombroz asarlarida insonning oliv va tuban nuqtalari haqidagi g‘oyalar; zamonaviy psixolog, pedagog va faylasuf olimlar tomonidan akmeformni o‘rganish va tahlil qi-

lish, ijodiy-kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratishning yangicha shaklining ilgari surilishi haqida gapirdik. Siz bugungi konspektlar va qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o'zlashtirishingiz lozim.

Izoh. «Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo'naliishlari» mikro-moduli amaliy mashg'uloti uchun yuqorida tavsiya etilgan matn asosida tarqatma materiallar, talaba tomonidan tayyorlanadigan seminar ma'ruzasi, diskussiya kabi mikro-ssenariylar tuzish talabalarning fanni yanada yaxshi o'zlashtirishlarida maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan, amaliy o'quv mashg'ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

2.3. «Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli nazariy mashg'uloti loyihasi

Avvalo, «Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli nazariy mashg'ulotining xususiy jadvallarini tuzish lozim. Shu bois:

Birinchi navbatda, «Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt belgilandi (2.3.1-jadval).

Ikkinchidan, ushbu «Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar belgilandi (2.3.2-jadval).

Uchinchidan, ushbu «Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo'llaniladigan savollar ko'rsatildi (2.3.3-jadval).

Quyida mazkur jadvallarni keltiramiz.

«Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish-harakatlar
1.	Akmeologiyaning latent bosqichi insonshunoslikning yangi jabhalarini o'rganishda tarixiy, madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, ilmiy va pedagogik bilimlar ko'rinishida namoyon bo'lishini tushuntirish. Akmeologiyaning latent bosqichi rivojiga Sankt-Peterburg maktabi vakilasi Nina Vasilevna Kuzminaning munosib xizmati haqida tushuncha berish.	20 daqiqa	Yozish
2.	Akmeologiyaning kombinatsion bosqichida tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi ta'lilotlar, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi haqida yanada yuskadroq darajalarini egallash fenomenologiyasi ekanligini yoshlar oniga singdirish.	20 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
3.	Akmeologiyada mahsuldarlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi tahlil qilinishi, shuningdek, samarador faoliyat, professionalizm va ijod rivojlanishidagi va texnologiyani ishlab chiqib, kasb faoliyatida yuksaklikka erishishning yo'naliish va usullarini izlash va ularning bu jarayon qonuniyatlariga tatbiq etish, professionalizmning ijodiy yutuqlari sari yo'naltirilgan samarador tizimlar	20 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish

	darajalari haqida tushunchalarni paydo qilish.		
4.	Akmeologiyaning inkubatsion bosqichi va N.V.Kuzmina tomonidan insонning yashirin xislat va fazilatlari hamda kasbiy yashirin imkoniyatlari bazasini ochishda zarur bo'lgan akmeologik masalalarining konstelyatsion yechimi borasidagi konseptual g'oyalariga to'g'ri kelishini ilmiy asoslash.	20 daqiqa	Yozish. Munozara.
5.	Akmeologiyaning institusional bosqichida ijtimoiy tuzilishlar yaratilishi, akmetexnologik g'oyalar.	10 daqiqa	Mavzuni mustahkamlash.

2.3.2-jadval

«Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi	Qo'llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Kirish o'quv mashg'uloti»	«O'qish va yozish»
2.	«Yangi bilimlarni egallahash»	«O'qish va yozish», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni egallahash»	«O'qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

«Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo'llaniladigan savollar

T/r	Nazorat savollari
1.	Akmeologiyaning latent bosqichidagi rivojiga Sankt-Peterburg maktabidan munosib hissa qo'shgan olimlarni bilasizmi?
2.	Akmeologiyaning kombinatsion bosqichida qanday ta'limotlar g'oyalari yotadi?
3.	Akmeologiyada mahsuldarlik tushunchasi qanday o'ringa ega?
4.	Akmeologiyaning inkubatsion bosqichida insonning qanday imkoniyatlari ochib beriladi?
5.	Akmeologiyaning institusional bosqichida qanday yangiliklar yuz berdi? Akmetexnologik g'oyalari nimalar?

Endi ushbu mashg'ulot ssenariysini keltiramiz.

Pedagog «*tanishuv*» va «*aytib berish*» usulini qo'llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o'quv mashg'ulotini quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Nazariy mashg'ulotimizning mavzusi «Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» deb nomланади.

Hurmatli talabalar, bugungi mashg'ulotimiz nazariy bo'lganligi bois, biroz yozishingizga to'g'ri keladi. Marhamat, daftarlaringizni ochib yozing!

Izoh. Loyihada kursiv bilan belgilangan matn ta'lim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, konsept daftarlariiga yozish uchun tavsiya etiladi.

So'z bilan. *Akmeologiyaning rivojlanishi to'rt bosqichdan iborat ketma-ketlikka ega bo'lib, birinchi bosqich – latent, ya'ni inson-shunoslikning yangi jahbalarini o'rGANISHDA tarixiy, madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, ilmiy va pedagogik bilimlar ko'rinishida bo'лади. Baholash uchun birlamchi latentli xususiyat-*

ning tashqi ko'rinishlar – aniq obyektning munosabatida joyga ega yoki ega emas jamlanmasi asosida tartibli shkala yordamida «Gutman shkalasi» nomini olgan mos keluvchi shkalalar tuzilishining maxsus algoritmi ishlab chiqilgan¹. Kasbiy rivojlanishni baholash uchun tartibli o'lcovlarning tarqalishi tipik tartibli shkalani keltirib chiqaradigan «egallagan amaliga mos» – «ishni yaxshilanishi sharti asosida egallagan amaliga mos» – «faoliyat turini o'zgartirish taklif etiladi» kabi attestatsiyaviy tahlillarning odatiy yakuni bilan izohlangan.

Akmeologiyaning latent bosqichi rivojiga Sankt-Peterburg maktabi vakilasi Nina Vasilevna Kuzmina asos soldi. U mustaqil ravishda bog'cha tarbiyachilari, maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining turli fanlar, jumladan, rus tili va adabiyoti, chet tili, fizika, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya va xususiy uslubiyotchi o'qituvchilarining kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha umumiy o'rta hamda kasbiy tayyorgarlik va fanlararo kompleks tadqiqotlarni tashkil etib, akmeologiya predmetini ishlab chiqdi. Uning tadqiqot obyekti – bog'cha tarbiyachilari, maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining turli fanlar, jumladan, rus tili va adabiyoti, chet tili, fizika, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya va xususiy uslubiyotchi o'qituvchilarini bo'lishdi.

Latent bosqichining asosiy jihat shundaki, 10–15 kishilik katta bo'limgan mehnat jamoalarining samaradorlik koefitsiyentini baholashda tartib bo'yicha klassifikatsiya metodi yaxshi va yomon ishchilarni ajratib ko'rsatishni ko'zlagan va shu bois ham u yetarlicha tarqalgan. Buning uchun ekspertlar ishchilarni eng yaxhisidan boshlab eng yomonigacha tartibda hamda baholanadigan mezonlar bo'yicha taqsimlab chiqadilar. Bunday baholash tufayli jamoaga odilona tartibli yakuniy baho berish imkoniyati tug'iladi.

Akmeformni o'rganish va tahlil qilish asnosida, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratish maqsadida akmeologiya turli kasb faoli-

¹ Ядов В.А. Социологическое исследование. Методология, программа, методы. – М.: 1987. С. 98–102.

yati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning ish jarayoni va usullari ustida kompleks tadqiqotlar o'tkazmoqda. Ayni paytda muvaffaqiyatga erishish uchun qiyosiy jihatdan boshqa bilimlarni ham tadqiq qilmoqda. Chunonchi, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, genetika va pedagogika kabi fanlardan unumli tarzda foydalanimoqda.

Akmeologiya o'zining ontologik ma'nosini inson hayot faoliyatida psixologik va kasb-korda ijtimoiy-axloqiy yutuqlarga erishishini ifodalash, tasvirlash va akmeform fenomenologiyasi tahlili orqali aks ettiradi. Fenomenologyaning akmeologik jihatni mehnatda ijodiy mahorat bilan ko'rsatiladi.

Ikkinch bosqich kombinatsion bo'lib, akmeologiya atamasi bilan asoslanadi. Ammo fikrimizcha, haqiqatan ham akmeologiya atamasi fanda keskin va ijobjiy burilish yasadi. Ammo bu, yangi fan yaratildi, degani emas. Zero, akmeologiyaning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu haqda oldingi faslda falsafiy-etik tahliliy xulosalarni berdik.

Akmeologiya – tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi ta'llimot bo'lib, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi haqida yanada yuksakroq darajalarни egallash fenomenologiyasini tadqiq etadi. Akmeologiyada mahsuldarlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, samarador faoliyat, professionalizm va ijod rivojlanishidagi hamda texnologiyani ishlab chiqib, kasb faoliyatida yuksaklikka erishishning yo'nalish va usullarini izlash va ularning bu jarayon qonuniyatlariga tatbiq etish, professionalizmning ijodiy yutuqlari sari yo'naltirilgan samarador tizimlar darajalarini belgilash bilan shug'ullanadi.

Globallashuv davrida fan va texnologiyalar rivojlanish cho'q-qisiga chiqar ekan, «barkamol avlod», «akmeshaxs» kabi tushunchalar ilmiy muomalaga kirib keldi. Buning asosiy sababi – insonning intellektual qobiliyati zamon va makon bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fan va texnologiyalar rivojiga qarab mukammallahib boradi va nihoyat o'z «akme»siga erishadi.

Akmeologiyaning eng muhim jihat – yuksak kasb-korlikning ijodiy pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganuvchi in-

son muammolari bilan shug‘ullanuvchi insonshunoslik fanidan ajrab chiqqan muhim zamonaviy tarmoq bo‘lib, insonning kasbhunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy-axloqiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobjiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar, ayniqsa, insonshunoslik bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iboratdir.

Hozirgi globallahuv sharoitida yoshlarning ma’naviy olamini yuksak darajada shakllantirmasdan, ularni ijtimoiy-axloqiy jarayonlarning ijodkor subyektiga aylantirmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda: «Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi¹. Albatta, yoshlarning har jabhada ijodkorligini shakllantirish o‘ziga xos ilmiy-amaliy tamoyillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Uchinchi inkubatsion bosqich N.V.Kuzmina tomonidan insonning yashirin xislat va fazilatlari hamda kasbiy yashirin imkoniyatlari bazasini ochishda zarur bo‘lgan akmeologik masalalarning konstelyatsion yechimi borasidagi konseptual g‘oyalariga to‘g‘ri keladi. To‘plangan ma’lumotlar XX asrning ikkinchi yarmida tadqiqotchi B.Ananyevning umumlashtirish va tizimga solish, insonshunoslik tahlili va differensiatsiyasidagi xizmatlari orqali yuzaga chiqdi. Bu bosqich akmeologiyada rivojlanish dasturining ishga tushirilishi, ya’ni amalga oshirilishi bilan tugadi.

To‘rtinchi institusional bosqichda qator ijtimoiy tuzilishlar yaratilishi bilan bog‘liq holda o‘quv yurtlarida akmeologiya kafedralari, laboratoriyalari va, nihoyat, Xalqaro akmeologik fanlar akademiyasi ochildi². Bu akademiya tuzilmalarida ilmiy izlanishlar olib boriladi, akmeologik texnologiyalar ishlab chiqiladi.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdahog kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: «O‘zbekiston», 1996. 34-b.

² Bu o‘rinda Rossiya akmeologiya akademiyasi va akmeologlar uyushmasi nazarda tutilgan.

Bugungi kunga kelib, fan va texnologiyalar rivojlanish cho‘q-qisiga chiqqan bir vaqtida «barkamol avlod», «akmeshaxs» kabi yangi tushunchalar ilmiy muomalaga kirib keldi. Buning asosiy sababi – insonning intellektual qobiliyati zamon va makon bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, fan va texnologiyalar rivojiga qarab mukammallahib boradi va, nihoyat, o‘z «akme»siga erishadi.

Akmeologiyaning eng muhim jihat – yuksak kasb-korlikning ijodiy pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganuvchi inson muammolari bilan shug‘ullanuvchi insonshunoslikdan ajrab chiqqan muhim zamonaviy tarmoq bo‘lib, insonning kasb-hunarni bilim va tafakkur orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’nnaviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas‘uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iboratdir.

Akmeformni o‘rganish va tahlil qilish, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratish maqsadida akmeologiya turli kasb faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarining ish jarayoni va usullari ustida kompleks tadqiqotlar o‘tkazmoqda. Ayni paytda, muvaffaqiyatga erishish uchun boshqa bilimlarni ham tadqiq qilmoqda. Chunonchi, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, genetika va pedagogika kabilardan unumli tarzda soydalanmoqda. Akmeologiya o‘zining ontologik ma’nosini inson hayot faoliyatida psixologik va kasb-korda ijtimoiy yutuqlarga erishishini ifodalash, tasvirlash va akmeform fenomenologiyasi tahlili orqali aks ettiradi. Fenomenologiyaning akmeologik jihat mehnatda ijodiy mahorat bilan ko‘rsatiladi.

Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish ko‘p jihatdan murabbiylarga bog‘liqligi sababli, ustoz-murabbiylarning ijodiy mahoratini aniqlash bugungi kunda turli shakldagi attestatsiyalar orqali o‘rganilmoqda.

Attestatsiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘qituvchi va murabbiylarni o‘z kasbining yuksak bilimdoni, yetuk salohiyat egasi etib qayta tayyorlashdan iboratdir. Bu esa akmeologik

bilimlar, ya’ni yuksaklik sari intilishning amaliyotga joriy etilishidir.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida millatimiz ruhiyati, mentalitetida ham tub islohotlar o’tkazish hamda an’anaviy tu-shuncha va tasavvurlarimizni zamon talablari asosida yangilashimiz lozimligi zarurat bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi — raqobatdir. U insonni doimo yuksakkiga, takomillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o‘zaro dialektik munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Yoshlar tarbiyasida milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning akmeologik jihatlari dialektik, ziddiyatli tabiatga ega bo‘lib, insondan ruhiy va intellektual yangilanishning yangicha tarbiya paradigmasini shakllantirish va unga og‘ishmay rioya qilishni talab qiladi.

Bu o‘rinda inson ma’naviyatini yuksak darajada shakllantirish asosiy vazifa bo‘lmog‘i lozim. Ma’naviyat cheksiz borliqning inson ruhida ifodalanishidir. U komil va barkamol insonlarni yetishtiribgina qolmay jamiyatning ongi, qalbi va vijdonidir. Shuning uchun insoniy oliv ma’naviyatni moddiy dunyodan ustun qo‘yadi. Bu so‘zning eng mukammal ta’rifi Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarlarida berilgan: «**Ma’naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, insonning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir**»¹. Demak, ma’naviyat amaliy jihatdan keng ma’noda insonning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulq-odobi, insonlar bilan bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lsa, tor ma’noda esa insonlarning falsafiy, diniy, siyosiy-axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkur va, umuman, dunyoqarashlarida namoyon bo‘ladi.

Biroq bunday insonlar ona qornidan ushbu xislat va qarashlar bilan tug‘ilar ekan-da, degan xulosaga kelmaslik lozim. Ammo insonlarga ushbu qarash va xislatlarni shakllantirish imkoniyati

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: «Ma’naviyat», 2008. 19-b.

berilgan. Bu imkoniyatlardan foydalanish u yoki bu jamiyatda ma'naviyati qay darajada ekanligi bilan uzviy bog'liq jarayondir. Shu bois, milliy ma'naviyatimizning maqsadi, mohiyati va asl mazmuni yangicha fikrlaydigan milliy g'urur va iftixorni chiqur his etadigan, vatan tuyg'usini diliga jo qilgan fozil insonni tarbiyalashdan iborat. Bu esa, ayni paytda, mukammallik – akme-shaxsni shakllantirish demakdir.

*Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy olamini yuksak darajada shakllantirmsandan, ularni ijtimoiy jarayonlarning ijodkor subyektiga aylantirmsandan tasavvur qilib bo'lmaydi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: «*Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi*»¹. Albatta yoshlarni har jahhada ijodkorligini shakllantirish o'ziga xos tamoyillar bilan chambarchas bog'liqdir.*

Unutmaslik lozimki, biz globallashuv davrida yashamoqdamiz. Bunda hayot doimiy harakat, qaror va qat'iylikni talab qiladi. Zero, hayot bilan hamohang yurmasangiz, hayot sizni ortda qoldira boshlaydi. Asosiy muammolar ayni shu holatda yuzaga kelishi mumkin.

So'z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida akmeologyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institutsional bosqichlari haqida gapirdik. Siz bugungi konspektlar va qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o'zlashtirishingiz lozim.

Shu bilan, nazariy o'quv mashg'ulotimiz tugadi, yana uchraschguncha xayr, omon bo'linglar!

Izoh. Har bir mezo-modul yakunida o'tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida «Test», «Yozma ish», «Diskussiya», «Intellektual o'yin» shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996. 34-b.

III. «AKMEOLOGIYANING METODOLOGIK ASOSLARI» MEZO-MODULINING LOYIHASI

Pedagog, birinchi navbatda, «Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlarni belgilaydi (3.1-jadval).

Ikkinchidan, «Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli mazmunidan kelib chiqadigan tayanch tushunchalarni ajratib, shular asosida nazorat savollari tuzib, ularni baholash mezonlari belgilanadi (3.2-jadval).

Uchinchidan, «Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotining tiplari hamda pedagogik uslublar tanlanib joylari belgilandi (3.3-jadval).

To'rtinchidan, ushbu «Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiya va didaktik materiallarning qo'llanish turi va joyi ko'rsatildi (3.4-jadval).

Beshinchidan, ushbu «Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatildi (3.5-jadval).

Quyida mazkur jadvallarni keltiramiz.

3.1-jadval

«Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

T/r	Mezo-modulning nomi	Mikro-modullar, ularning tartib raqamlari, mashg'ulot turi va mavzuning nomi	Mikro-modullar yakunida erishiladigan maqsadlar
3.	Akmeologiyaning metodologik asoslari, asos-	3.1. Nazariy mashg'ulot. Akmeologiyaning xususiy metodologiyasi	Maqsadga yetishishda qo'llaniladigan uslublar tizimini usul, yo'l, tariqat, metod deylishi. Shaxsnинг maqsad sari qiladigan akmeologik harakati, unga shu maqsad ko'r-

	siy tamo-yillari	<p>satkichlari bilan dialektika qonuniyatları, sohaning qonun va qonuniyatları tamoyil bo'lib xizmat qilishi, ya'ni metodologiyasi. Har bir shaxsnинг eng umumiy, umumiy va shaxsiy maqsadlariga yetishish uchun eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjudligi. Akmeshaxslarning o'z faoliyatida qisqa muddatli maqsad ko'rsatkichlari bilan shu sohadagi qonun va qonuniyatlarga amal qilishini akmeologiyaning xususiy metodologiyasi sifatida.</p> <p>Insonning yetuklik bosqichi – yetukligini «akme» deb ataladigan cho'qqisi uning hayotini, vaqt birligining asosiy qismini qamrab oладиган ко'п о'lchovli holati ekanligi, shu bilan birga u statik tuzilma bo'la olmasligi, aksincha ko'п yoki kamroq variativligi va o'zgaruvchanligi bilan ajralib turishi. Akmeologiyaning nazariy metodlari tizimi (mantiqiy eksperiment, tahlilning matematik metodi, fanlararo metodlar – yondashuvlar). Akmeologiyaning amaliy metodlari (umumilmiy, alohida fanlarning metodlari: psixologik, sotsiologik psixofiziologik va h.k., akmeologik)</p>
	3.2. Amaliy mashg'ulot. Akmeologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi	Akmeologiyaning tadqiqot obyekti akmeshaxs bo'lib, obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb-korlikning va ijodiy faoliyatning metodologik, texnologik hamda gumanitar (insonparvarlik) jihatlarini o'rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlari bilan

bog'liq akmeologik muammolarni aniqlashi. Globalizatsiya jarayonlariiga ijodiy kompleks yondashish, kasb-korlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlarni va zamonaviy tajribalarni chuqur egalash, texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o'zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning obyektlaridan biriga aylanishi mumkinligi.

Akmeologiyaning tadqiqot predmeti – akmeshaxsn shakllantirishda ishtirok etadigan kasbiy bilimlar majmuyi bilan axloqiy fazilatlar hamda siyosiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy institutlar bilimlari orasidagi funksional aloqadorlikda ekanligi. Akmeologiya fanning maqsadi – o'rganilayotgan majmuda shu vaqtgacha aniqlanmagan xususiyat va aloqadorliklarni aniqlash, uni jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishda foydalanshni ko'sratib berish orqali akmeshaxsn shakllantiruvchi individual xususiyatlari bilan akmeshaxs bo'lishiga ta'sir etuvchi oila, moddiy olam va ijtimoiy muhit hamda uzlusiz ta'llim-tarbiya tizimi, omma-viy axborot vositalari, badiiy va ilmiy adabiyotlar orasidagi qonuniy aloqadorliklarni aniqlashi va shular asosida akmeologlarga tavsiyalar ishlab chiqishi.

		<p>3.3. Amaliy mashg'ulot. Akmeologiyaning asosiy tamoyillari</p>	<p>Akmeologiyaning umumetodologik tamoyillari: determinizm tamoyili, rivojlanish tamoyili, aksilogik va insonparvarlik tamoyili. Akmeologiyaning umummetodologik tamoyilining sinergetik tamoyillar bilan aloqadorligi: inson resurslarini boshqarish tamoyili (determinizm tamoyili, rivojlanish tamoyili); g'oyaviylilik tamoyili (aksilogik va insonparvarlik tamoyili).</p> <p>Akmeologiyaning konkret amaliy tamoyillari: subyekt faoliyat tamoyili, hayotiy faoliyat tamoyili, potensiallik va zaruriyat tamoyili, modellashtirish tamoyili, optimallik (eng maqbul) tamoyili, ope-ratsional va texnologik tamoyil, qarama-qarshi aloqa tamoyili, tarixiylik tamoyili, yaxlitlik tamoyili, ko'p taraflik tamoyili, birlashtirish (integratsiya) tamoyili.</p>
--	--	--	---

3.2-jadval

«Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli tarkibidagi tayanch tushunchalar va shular asosida tuzilgan nazorat savollari

Mezo-modul tarkibidagi tayanch tushunchalar	Nazorat savollari
<p><i>Metod, metodologiya, tariqat, uslub, majmu, majmua, akmeologik moyillik, ijtimoiy ehtiyoj, obyekt, predmet, maqsad, qonuniyat</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Metodologiya nima?</i> 1. <i>Uslub nima?</i> 2. <i>Tariqat, metod nima?</i> 3. <i>«Akmeologik moyillik» tushunchasini sharhlang.</i> 4. <i>Akmeologiyaning tadqiqot obyektini ilmiy asosda sharhlab bering.</i> 5. <i>Akmeologiya fanining maqsadi nimalaridan iborat?</i>

	<p><i>6. Tobora ko'payib borayotgan Yer say-yorasi aholisining barcha tabiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanday qilib qondirish mumkin?</i></p> <p><i>7. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdorning sifat darajasiga o'tishi va inkorni-inkor qonunlarini akmeologik nuqtayi nazardan sharhlang.</i></p>
--	---

Baholash turi: savol-javob (3.2-jadvallarda berilgan savollardan samarali foydalanimadi).

3.3-jadval

«Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-modulni o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi	Qo'llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Kirish o'quv mashg'uloti»	«O'qish va yozish»
2.	«Yangi bilimlarni egallah»	«O'qish va yozish», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni egallah»	«O'qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

3.4-jadval

«Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-modulida qo'llaniladigan axborot texnologiyasi va didaktik materiallar

T/r	Axborot texnologiyalari	Didaktik materiallar
1.	Yozuv doskasi	Ma'ruza matni
2.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
3.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
4.	Tarqatma materiallar	Savol-javob

Uchinchi vazifa – III mikro-modul loyihasi tuzib olindi. Unda barcha mikro-modullar va ularda beriladigan bilimlar tizimi, ularni ta’lim oluvchilarga yetkazishda qo’llaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari tipi hamda pedagogik uslublar, axborot texnologiyasi va didaktik materiallar o‘z ifodasini topdi.

«Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli uchun 3.5-jadvalagi adabiyotlar ro‘yxati tavsija etiladi.

Pedagog o‘quv mashg‘uloti davomida talabalarning amal qilishlari lozim bo‘lgan qoidalarni kompyuterda PowerPoint slaydi ko‘rinishida namoyish etadi.

3.5-jadval

«Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli uchun foydalanish lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati

T/r	Adabiyotlar ro‘yxati
1.	Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011.
2.	Abdullahayeva M.N., Abdurashidov M., Abilov O’. va boshq. Falsafa: izohli lug‘at. – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
3.	Bodaliev A.A., Vasina N.B. Akmeologiya. Настоящий человек. Каков он и как им становится? – СПб: «Речь», 2010.
4.	Davronov Z.D. Ilmiy ijod metodologiyasi. – T.: «Iqtisod-moliya», 2007.
5.	Davronov Z.D., Sharifxodjaev M. Ma’naviyat asoslari. – T.: «Iqtisod-moliya», 2005.
6.	Derkaç A.A. Akmeologiya: личность и профессиональные развитие человека: Методолого-прикладные основы акмеологического исследования. – М.: 2000.
7.	Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. –T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2000.
8.	Ziyomuhamedov B. Komillikka eituvchi kitob. – T.: «Turon-iqbol», 2006.

9.	«Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog'lom turmush tarzining o'rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2008-yil 30-may). // –T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
10.	<i>Ломброзо Ч.</i> Гениальность и помешательство. Пер. с итальянского. – Ростов на Дону: Изд-во «Феникс», 1997.
11.	Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – Т.: «Sharq», 1998.
12.	<i>To'rayev B.O.</i> Hozirgi zamon tabiatshunosligi konsepsiyalari. – Т.: O'zMU nashriyoti, 2007.
13.	<i>Tillayeva G.H.</i> Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. – Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009.
14.	<i>Tillayeva G.H.</i> Akmeologiyaning ijtimoiy-axloqiy muammo-lari. – Т.: «Falsafa va huquq», 2012.
15.	<i>Shayxova X.O.</i> Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. Saylanma. – Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009.

Endi «Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-moduli tarkibidagi mikro-modullar asosida tuzilgan mashg'ulot loyihalarini keltiramiz:

3.1. «Akmeologiyaning metodologik asoslari: xususiy metodologiya» mikro-moduli nazariy mashg'uloti loyihasi

Pedagog nazariy o'quv mashg'ulotini «tanishuv» va «aytib berish» usulini qo'llab hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

So'z yordamida. Bugungi nazariy mashg'ulotimiz «Akmeologiyaning xususiy metodologiyasi» deb nomlangan.

Hurmatli talabalar, bugungi mashg'ulotimiz nazariy bo'lganligi bois, biroz yozishingizga to'g'ri keladi. Marhamat, daftarlaringizni ochib yozing!

Izoh. Ssenariyda kursiv bilan belgilangan matn ta'lim oluvchilar uchun bo'lib, uni konsepekt daftarlariiga yozish tavsiya etiladi.

So‘z bilan. Akmeologiyaning metodologik asoslarini yoritib berishdan avval, o‘ta murakkab va doimo babs-munozaralarga sabab bo‘ladigan falsafiy tushuncha hisoblangan «metodologiya»ga ilmiy asoslangan ta’rifni berib o‘tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning boshqa mavjudotlardan asosiy farqi, uning ma’lum bir maqsad sari qiladigan harakati, ya’ni faoliyatidir. Kishi maqsad sari qiladigan harakati jarayonida bir qator tabiiy va sun‘iy, moddiy va nomoddiy to‘sqliarni yengib o‘tadi. Bu to‘sqliarni bartaraf etish uchun u bir qator tadbir va choralar qo‘llaydi.

Maqsadga yetishishda biron-bir to‘signi bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan tadbir va chora uslub deyiladi. Maqsadga yetishishda goho o‘nlab-yuzlab to‘sqliarni yengishga to‘g‘ri keladi. Bu to‘sqliarni bartaraf etish uchun tegishli uslublar tizimi qo‘llaniladi.

Maqsadga yetishishda qo‘llaniladigan uslublar tizimi usul, yo‘l, tariqat, metod deyiladi. Akmeologiyada shaxs muayyan bir usuldagи uslublarni qo‘llash jarayonida har bir harakati, oldiga qo‘ygan maqsadining ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, o‘z akmesiga erishish jarayonini amalga oshiradi. Shu bilan bir qatorda, dialektikaning eng umumiy qonunlariga hamda muayyan sohadagi umumiyl va xususiy qonuniyatlariga ham amal qiladi.

Shaxsning maqsad sari qiladigan akmeologik harakati, unga shu maqsad ko‘rsatkichlari bilan dialektika qonuniyatları, sohaning qonun va qonuniyatları tamoyil bo‘lib xizmat qilishiga **metodologiya** deyiladi.

Har qanday jamiyatning umumiy maqsadi bo‘lishi isbot talab qilinmaydigan haqiqat. O‘zbekiston jamiyatining asosiy maqsadi huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda, har qanday ijtimoiy guruhlarning ham o‘ziga mos maqsadlari mavjud. Undan tashqari, har bir shaxsda o‘ziga yarasha ijtimoiy sifatlar bo‘lganligi tusayli, uning o‘zining ehtiyojlar tizimi ham bo‘ladi. Akmeologiyada esa ushbu maqsadli tizimga «akmeologik moyillik» iborasi qo‘llaniladi. Zero, biror-bir kasb, hunar va maqsadga nisbatan shaxsning moyilligi bo‘lmasa, uni majburan shu faoliyatga undash befoydadir.

Xulosa qilib aytganda, har bir shaxsning eng umumiy, umumiy va shaxsiy maqsadlariga yetishishi uchun eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslar mayjud. Jamiyat oldiga qo‘yilgan maqsad ko‘rsatkichlari bilan dialektikaning umumiy qonunlari butun jamiyat a’zolarining faoliyati uchun eng umumiy metodologik asos hisoblanadi. Har bir sohada mayjud maqsad ko‘rsatkichlari va shu sohada hukm suruvchi qonuniyatlar shu soha bilan shug‘ullanuvchilar uchun umumiy metodologik asosdir.

Bizning misolimizda, akmeshaxslar o‘z faoliyatida qisqa muddatli maqsad ko‘rsatkichlari bilan shu sohadagi qonun va qonuniyatlarga amal qilishini akmeologiyaning xususiy metodologiyasi deyish mumkin.

Akmeologiyaning tadqiqot obyekti. Insonlar faoliyatida eng umumiy, umumiy va xususiy falsafiy metodologiyalardan birday foydalangan holda o‘z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Aks holda qilgan harakatlari behuda ketishi aniq.

Bizni o‘rab turgan atrof-olam katta va kichik, jonli va jonsiz yaxlitliklardan iborat ekanligi hech kimga sir emas. Har qanday butunlik, ya’ni yaxlitlik, majmu bo‘la turib, o‘zidan kichikroq butunliklar – unsurlardan tashkil topishi ham aniq haqiqat. Yaxlit bir butunni tashkil qiluvchi va o‘zaro funksional bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat narsa yoki hodisa majmuu deyiladi. Har qanday majmu ikki yoki undan ortiq qismlardan iborat bo‘lib, ayni vaqtida o‘zi ham o‘zidan yuqori pog‘onada turgan majmuga qism bo‘lib kiradi. O‘z navbatida, uning qismlari bir pog‘ona pastdagi majmular hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat bo‘ladi. Bu hodisa texnik majmularda chekli, tabiiy majmularda cheksiz bo‘ladi. Majmuni tashkil qiluvchi qismlar deb, faqat o‘zaro uzyiy (funksional) aloqadorlikda bo‘lgan qismlarga aytildi. Majmuni tashkil qiluvchi qismlarning birining xususiyati o‘zgarsa, qonuniy ravishda boshqa qismlarning ham xususiyatlari o‘zgarishga uchrasa, uni funksional aloqadorlik deyiladi. Majmuning har biri faqat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bir-biridan shu xususiyatlар yig‘indisi bilan ajralib turadi. Majmuning xususiyati faqat boshqa majmular bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Aloqadorlik deb, majmu xususiyatini paydo qilishiga

aytiladi. Bog'liqlik esa faqat ularning namoyon bo'lishidir. Narsa va hodisalarning funksiyaga bo'lgan nisbati funksiyaning namoyon bo'lishining asosi, majmuning ajralmas qismidir.

Funksiyalar orqali majmular holati aniqlanadi. Majmu holatining ketma-ket namoyon bo'lishi **jarayon** deyiladi. Majmular nazariyasidan kelib chiqishlik, birinchidan, jarayonni bir necha o'n barobar osonlashtiradi va tezlashtiradi. Ikkinchidan, faoliyatni to'g'ri amalgalashirishning garovidir. Uchinchidan, muayyan faoliyatni boshqa kishilar tomonidan tez tushunib, tez o'zlashtirib olishga xizmat qiladi.

Shulardan kelib chiqgan holda, akmeshaxs faoliyatini tashkil etishning majmuli yondashuv tamoyiliga amal qilishlik zamon talabiga javob beruvchi tadqiqot deyish mumkin.

Aytish lozimki, butun borliq qatta va kichik, jonli va jonsiz, shakl jihatidan turli-tuman majmularidan tashkil topgan. Shu majmularning tashkil qiluvchi qismlari orasidagi aloqadorliklarni va bu majmularning xususiyatlarining zaruriy ekanligini belgilab beruvchi inson faoliyatiga «ilm» deyiladi.

Majmular nazariyasiga binoan, har bir qism o'z navbatida majmu hisoblanib, u ham bir necha qismlardan tashkil topadi. Bu majmularning har birini soha ilmi o'rganadi. Undan tashqari, butun moddiy olam majmulari ayrim xususiyatlarini alohida-alohida ilmlar o'rganadilar. Jumladan, nomoddiy majmu – gumanitar, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy qismlardan tarkib topgan. Ularning har biri o'z navbatida majmu hisoblanib, bir necha qismlardan iboratdir. Ijtimoiy majmular ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at degan qismlarni o'z ichiga oladi. Ammo har qanday majmu, ko'p emas, ikki yoki uch qismdan iborat bo'lganda ham uning bir necha jabhalari va xususiyatlari bo'ladi. Har bir jabhani, ya'ni zaruriy aloqadorlikni alohida-alohida ilm sohasi o'rganadi va uni shu ilmning tadqiqot predmeti deyiladi. Bir obyektni bir necha soha ilmlari o'rganishi mumkin. Masalan, insonni tibbiyot, jismoniy tarbiya, psixologiya va boshqa bir qator ilm sohalari o'rganadi. Ammo har biri o'zining tadqiqot predmetiga ega.

Akmeologiyaning tadqiqot obyekti – bu akmeshaxs bo'lib, obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb-korlikning va

ijodiy faoliyatning metodologik, texnologik hamda gumanitar (insonparvarlik) jihatlarini o'rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlari bilan bog'liq akmeologik muammolarni aniqlaydi.

Masalan, bozor munosabatlарининг rivojlanishida yangi kasb-hunarlarni shakllantirish, davr talabiga monand yetuk kadrlarni yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Globalizatsiya jarayonlariga ijodiy kompleks yondashish, kasb-korlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil etishda milliy va umum-insoniylar qadriyatlarga xos jihatlarni va zamonaviy tajribalarni chuqur egallash, texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o'zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning obyektlaridan biriga aylanishi mumkin.

Akmeologiyaning tadqiqot predmeti va maqsadi. Akmeologiyaning tadqiqot predmeti – akmeshaxsnı shakllantirishda ishtirok etadigan kasbiy bilimlar majmuyi bilan axloqiy fazilatlar hamda siyosiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy institutlar bilimlari orasidagi funksional aloqadorlik bo'lib, muayyan ilm sohasi, majmuning jabha yoki xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

Shunday qilib, akmeologiya predmetini insonni yetuklik darajasidagi rivoji bilan chegaralab qo'yish va u o'z rivojida qaysi sharoitlarda optimumumga erishadi va uning optimumi qanday bo'ladi deyishni aniqlash bilan bir qatorda, uning predmetini juda keng tushunish kerak bo'ladi. Bunga turli umumlashmalarning rivoji va ularning rivojida eng yuqori darajaga erishishga imkon yaratuvchi sharoitlarni aniqlash hamda ushbu fanda bazaviy kategoriya sifatida akmening chiqishi va shakllarining keng kontinuumda konkretlashtirishi har bir holatda u yoki bu inson rivojida erishgan cho'qqining belgilarini konkret integrallashtirilishi va obyektivlashtirilishi yoki turli jamoalarning rivojlanishlarida erishilgan cho'qqida akkumulyatsiya qilinishi namoyonligi o'z ifodasini topadi.

Har qanday ilm o'z oldiga faqat bitta maqsadni qo'yadi. Akmeologiya fanining maqsadi – o'rganilayotgan majmuda shu vaqtgacha aniqlanmagan xususiyat va aloqadorliklarni aniqlash va uni jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishda

foydalinishni ko'rsatib berish orgali akmeshaxsn shakl-lantiruvchi individual xususiyatlari bilan akmeshaxs bo'lishiga ta'sir etuvchi oila, moddiy olam va ijtimoiy muhit hamda uzlksiz ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, badiiy va ilmiy adabiyotlar orasidagi qonuniy aloqadorliklarni aniqlash va shular asosida akmeologlarga tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu falsafiy tushunchalardan kelib chiqib, ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi bir necha ilm tarmoqlarini tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadini aniqlash mumkin.

Ijtimoiy fanlarning umumiy tadqiqot obyekti – bu ijtimoiy hayot. Shu yerda «ijtimoiy» degan tushunchani sharhlab o'tish joiz. Ijtimoiy atamasi ikki ma'noda – biri keng, ikkinchisi tor ma'noda qo'llaniladi.

Keng ma'nodagi tushuncha, ijtimoiy hayot voqeligi bo'lib, insonlarning barcha ongli harakati natijasida vujudga kelgan moddiy va nomoddiy narsalar majmuyiga aytildi. Bularga ruhiy, iqtisodiy, siyosiy va tor ma'nodagi ijtimoiy hayotlar kirib ketadi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot deganda kishining bioijtimoiy mavjudot sifatida, o'z ixtiyori bilan namoyon qiluvchi hayot jabhalariga aytildi. Bularga oiladagi kundalik hayot, o'zining shaxsiy hayoti hamda mehnat va siyosat bilan bog'liq bo'limgan barcha faoliyatlar kiradi.

Keng ma'nodagi ijtimoiy hayot yaxlit bir majmu hisoblanib, quyidagi unsurlardan iborat bo'lib, insonning ruhiy hayotini gumanitar fanlar, xo'jalik yuritish bilan bog'liq bo'lgan hayotini iqtisod fanlari, jamiyatning boshqaruvi bilan aloqador hayotini siyosiy fanlar o'rghanadi va ular bu fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot majmuyining qismlari ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at deb nomlanishi, bu unsurlarni alohida-alohida ilm tarmoqlari o'rGANIB, ular shu ilmlarning tadqiqot obyektlari hisoblanadi. Jumladan, ma'naviyat, ontologiya, aksiologiya, ijtimoiy ruhshunoslik, ijtimoiy ekologiya va hokazo fanlar ilmining umumiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. *Tadqiqot obyekting tadqiqot predmeti mavjud. Bu tadqiqotlardan ko'zda tutilgan maqsad:*

- *ontologiyada* – ma'naviyat shakllanish jarayonini dialektik qonuniyatlar asosida amalga oshirish yo'llarini topish;
- *gnoseologiyada* – bilish jarayonini bilish nazariyasi qonunlari asosida tashkil qilish usullarini yaratish;
- *ijtimoiy ruhshunoslikda* – bilish bilan ruhshunoslik qonunlari orasidagi aloqadorlikni aniqlash;
- *ijtimoiy ekologiyada* – inson ma'naviyati shakllanishi bilan tashqi ijtimoiy muhit orasidagi aloqalarning kechishi qonuniyatlarini aniqlash;
- *akmeologiya esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy samardorligiga xizmat qiladigan akmeshaxslarni shakllantirishdan iboratdir.*

Ijtimoiy fanlarning ma'rifat, madaniyat va san'at guruhiga kiruvchi ilm tarmoqlarini ham xuddi shunday har bir guruhi uchun o'zining tadqiqot obyektlari mavjud bo'lib, ularning tadqiqot predmetlari tadqiqot obyektlarini tashkil qiluvchi ichki qismlari orasidagi zaruriy aloqadorliklarni aniqlash hisoblanadi. Masalan, *insonlarning biologik va ijtimoiy ehtiyojlarining bir necha guruhlari mavjud. Ayniqsa, ijtimoiy ehtiyoj cheksiz bo'lib, barchasini qondirishning iloji har doim ham bo'lavermaydi. Chunki har qanday ehtiyojni qondirish uchun ma'lum bir tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar mavjud bo'lmog'i lozim. Shundagina u talabga aylanadi.*

Akmeologiyada bu jarayonlarning kechishi, ijtimoiy-iqtisodiy talabdan kelib chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, dalillarga ko'ra, XVII asrdan XX asrgacha Yer sayyorasi aholisining umumiy soni 1 mlrd dan 2 mlrd gacha ko'paygan. 2020-yilgacha esa 8 mlrd gacha oshishi kutilmoqda. Shunday ekan, o'z-o'zidan tez sura'tlarda ko'payayotgan aholini qanday qilib barcha tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish mumkin, degan o'rinali savol paydo bo'ladi.

Bunga, avvalambor, o'sib kelayotgan yoshlarimizni bilimli, professional yetuk kadrlar darajasida tarbiyalash orqaligina erishish mumkinligi haqida yurtboshimiz shunday fikrlarni bayon etganlar: «**Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki**

bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa — bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Inson zoti boshqa mavjudotlardan nimasi bilan farq qiladi, albatta yuksak ma’naviyati va intellektual salohiyati bilan. Shuning uchun insonlar sonining o‘sishi bilan emas, balki ularning intellektual salohiyati va ma’naviyati yuksalishi bilan o‘lchanishi lozim. Ya’ni, insonlarning sifatining o‘sishini o‘lhash lozim... Faqat o‘z kuchimiz, o‘z salohiyatimizga tayanib ish ko‘rishimiz kerak... o‘zimiz harakat qilmasak, chetdan kelib birov bizga yordam bermaydi»¹.

Yurtboshimizning o‘gitlari asosida mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunlaridanoq keng miqyosda professional kadrlar tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Bu ko‘rsatma nafaqat davlat rahbariyati xodimlari, balki fuqarolik jamiyatining barcha institatlari, olimlar, nodavlat, notijorat tashkilotlar, o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari, oilalar oldiga masuliyatli vazifalarni qo‘ydi.

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo‘lib, u insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o‘zaro dialektik munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Demak, keskin raqobat sharoitida muntazam o‘sib borayotgan aholini boqishni faqatgina bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Bilimga asoslangan iqtisodiyotni piramida shaklida ko‘rsatsa bo‘ladi. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) uning negizida fan va ta’lim yotishini ko‘rsatgan. Lekin fan va ta’limni kim yaratadi? Agar ota-onalar jamiyatga sog‘lom va qobiliyatli shogird va o‘quvchilarni yaratib bersalar, ularga innovator olimlar, injener texniklar va professor o‘qituvchilar ta’lim beradilar.

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.: «O‘zbekiston», 2011. 13-b.

«Fan samaradorligini sifat jihatdan oshirishga quruq da'vatlar bilangina erishish mumkin emas. Ilmiy kadrlarga munosabatni ham tubdan o'zgartirish, ularning ijtimoiy maqomini qat'iyan oshirish, chuqur strukturna o'zgarishlari qilish zarur. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi fan uchun hech narsani ayamayotgan mamlakat gullab-yashnayotganligini va bunday davlat hamma yaxshi narsalarni – insonlarning kuch g'ayratini ham, moddiy texnika resurslarini ham o'zida jamlayotganligini yaqqol ko'rsatmoqda. Fanni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarning professional bilimdonlik darajasini oshirish, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish ilmiy jarayonni jadallash-tirishning asosiy omilidir»¹. Yurtboshimizning shu g'oyalari ayni paytda keskin aytilgan ko'rsatma edi. Bu bilimga asoslangan iqtisodiyot modelidir. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, jamiyatimiz ilm-fani oldiga Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasida yangicha yondashuvlarni izlab topish vazifasi qo'yilganligini anglaymiz. Ana shunday yondashuvlarimiz natijasi esa akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishi bo'ldi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatimiz kadrlar tayyorlash milliy modelini yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Akmeologiya insonning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadiga muvofiq bosqichma-bosqich, dastlabki, o'rta va keyingi yetukligida individ sifatida (murakkab tirik organizm sifatida), shaxs sifatida (bu holda vogelikning turli tomonlarga bo'lgan munosabatlarni inson tomonidan o'zlashtirishi nazarga olinadi) va faoliyat subyekti sifatidagi (asosan professional sifatida) inson sifatida yuzaga kelish fenomenologiyasi, qonuniyatlarining mexanizmlarini aniqlab beradi.

Jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini qondirish shart-sharoitlari davlat tomonidan yaratilganidan so'ng bunday ehtiyoj davlat talabi, ya'ni davlat buyurtmasiga aylanadi.

Davlat buyurtmasining turiga qarab shu sohaning mutasaddilari buyurtmani bajarish uchun mas'uldirlar.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011. 82-b.

Har qanday ilm ahli o'z faoliyatini ijtimoiy buyurtmaga asosan, davlat tomonidan qo'yilgan talabdan kelib chiqib bajarishi lozim. Har qanday jamiyatning ehtiyoji o'zgarib turadi. Shuning uchun ham olimlar o'z tadqiqotlarini faqat dolzarb masalalarni yechishga qaratmog'i lozim. Ammo har bir ilm-fanning nazariy asoslari ustida olib boriladigan fundamental tadqiqotlar bundan mustasno. Bunday tadqiqotlarga talab doimo mavjud.

Har qanday ehtiyoj va talablarning asosiy ko'rsatkichlari bo'ladi. Kishi o'z faoliyatida, shu jumladan, ilmiy faoliyatida bu ko'rsatkichlarga erishishni maqsad qilib oladi. Ularga intilib ish yuritish metodologiyaga amal qilinganlikni bildiradi.

Metodologiya eng umumiylar, umumiylar va xususiy turlarga bo'linishini yuqorida ko'rdik. Jamiyatimizning oldiga qo'yilgan eng umumiylar maqsad O'zbekiston fuqarolariga farovon hayot yaratish va shunga mos huquqiy va demokratik davlatni qurish asosida farovon hayot, jamiyat a'zolarining akmeologik ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun ilm-fan integratsiyasi asosida qulay ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy muhit yaratib ularning samarador faoliyatlarini yanada rivojlantirish lozim.

Bugungi kunda butun dunyo olimlari tan olgan va o'zlarining harakat jaryonlariga eng umumiylar metodologik asos sifatida foydalanadigan Abu Nasr Forobiyaning aniqlagan va Gegel tomonidan rivojlantirilib, qonun darajasiga olib borilgan dialektikaning uch asosiy qonuni aslida rivojlanish degan ma'noni bildiradi.

*Bilamizki, butun borliq – tabiat, jamiyat va ong tinmay harakat jarayonida bo'lib, tinmay rivojlanib, bir turdan ikkinchi bir turga o'tib turadi. Bu yerda bunday rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch qayoqdan paydo bo'ladi, degan tabiiy savol tug'iladi. Gegel bu kuch qarama-qarshi tomonlar birligi va kurashi jarayonida paydo bo'ladi, deydi va uni **dialektikaning birinchi asosiy qonuni** deb nomladi.*

Darvoqe, butun borliq, avval qayd qilib o'tganimizdek, cheksiz katta va kichik, kelib chiqishi jihatidan turli-tuman majmulardan iborat ekan, har qanday majmu qarama-qarshi tomonga ega. Bir tomonli majmuni, ya'ni narsa yoki hodisani topa olmaymiz. Bu

*qarama-qarshi tomonlar tinmay biri-biriga intilib, bir butunlikni tashkil qiladilar. Shu bilan birgalikda, ular qarama-qarshi tomon, ya'ni qarama-qarshi kuch bo'lib qolaveradilar. Bu vogelik narsa va hodisalarning ichki zaruriyatidan kelib chiqgan qonuniyat bo'lib, butun borliq shu qonuniyatga bo'ysunadi. Shuning uchun ham uni rivojlanishning eng asosiy qonuni deb yuritiladi. Bu holni har qadamda ko'rishimiz, sezishimiz mumkin. Masalan, atom qarama-qarshi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan elektron va protonlardan iborat yoki kecha-kunduz, oq-qora, past-baland, og'ir-yengil, o'ng-chap, yaxshi-yomon va hokazo. Agarda bu qonunni akmeologiyada qo'llaydigan bo'lsak, biz uni iqtisodiyotimizning rivoji jarayonidagi **sog'lom raqobatga** tenglashtirishimiz mumkin. Chunki, **sog'lom raqobat** muhitida har bir tomon boshqa bir tomonga nisbatan raqib hisoblansada, umumiylar maqsad – mamlakat iqtisodiyoti rivojiga munosib hissa qo'shish hisoblanadi.*

Bular cheksiz hollardir, bu hollar jamiyki narsa va hodisalarda o'z ifodasini topgan. Bunday qarama-qarshi tomonlar bir-biriga intilishi natijasida bir butunni tashkil qiladilar va shu bilan birgalikda biri-biriga qarshi kuch bo'lib qolaveradilar.

*Bunday ichki tortilish va itarilish natijasida narsa va hodisa ichida kuchlanish paydo bo'ladi. U ma'lum bir vaqt dan keyin me'yoriga yetganda, narsa va hodisada harakat paydo qiladi. Shunda bu narsa va hodisa o'zining avvalgi holatini o'zgartirib, yangi bir holatga o'tadi. Bu holatni ifodalovchi dialektikaning yana ikki qonuni bor. Bular **miqdorning sifat darajasiga o'tishi** va **inkorni-inkor qonunlaridir**.*

Bu qonunlar borliqning har bir majmuyida o'z kuchini ko'rsatganligi uchun har bir faoliyatda, shu jumladan, tadqiqot ishida ham bu qonunlarni hisobga olmaslik va ularning eng umumiylar metodologik asosining ikkinchi qismi sifatida kelib chiqmaslik, harakat jarayonimizni noto'g'ri tashkil qilganimizni bildiradi va bunday harakat maqsadga olib bormaydi. Chunki bu g'ayritabiyyidir.

Bu qonunlarning ma'rifiy jarayonda namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz. Ma'rifiy jarayonni ko'z oldimizga keltirsak, u bir butunning ta'lim-tarbiya majmuyidan iborat bo'lgani holda ikki

qarama-qarshi «ta'lim-tarbiya beruvchi» va «ta'lim-tarbiya oluvchi» tomonlardan, boshqacha aytganda, qarama-qarshi kuchlardan tashkil topganligini ko'ramiz. Dialektika qonuniga binoan, ular bir vaqtning o'zida biri-biriga intiladilar va biri-biridan gochadilar.

Haqiqiy ma'rifiy jarayonni hosil qilish uchun bu qarama-qarshi tomonlarning bir-biriga intilish kuchini oshirib, bir-tarbiyada bir-biriga intiluvchi asosiy kuch bo'lib, mazkur bilimga qiziqish hissi xizmat qiladi. Bu o'rinda esa pedagogning akmeologik ko'nikmalari yordamga kelishi mumkin. Avvalo, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarining «moyillik darajasi»ni aniqlab olmog'i zarur. Zero, dunyoda ikkita bir xil inson uchramaganidek, ularning xarakter xususiyatlari, qiziqishlari, qolaversa, qobiliyat darajasi va bilimni o'zlashtirish imkoniyatlari ham o'zgachadir.

Shunday ekan, har bir tarbiyalanuvchiga individual yonda-shish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlaydi. Shuning uchun pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri ham talabalarni berilayotgan bilimga qiziqtirish yo'li bilan ular diqqatini shu bilimga jalb etish hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya beruvchi ta'lim oluvchiga berayotgan bilimning mohiyatini ochib, qiziqtirib turib, tushuntirishi paytida miqdor yig'ilib sifatga o'tishi uchun tarbiyalanuvchiga o'z bilimlarini bir necha bor takrorlash muvaffaqiyat garovidir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, berilayotgan bilim ta'lim oluvchining miya qobig'ida o'z aksini topishi uchun uni kamida 3–5 marotaba, murakkab mavzularni o'tayotganda yoki diqqati sust bolalar bilan ishlayotganda esa 7–9 marta takrorlash lozim ekan. Shundagina miqdor sifat darajasiga o'tib, talabalardagi «bilmaslik» holati «bilish» bilan almashinadi. Miqdor sifatga o'tganda oldingi «bilimi yo'q» darajasi o'z-o'zidan inkor qilinib, «bilimli» darajani tashkil etadi. Bu degani, dialektikaning qolgan ikki qonuni ham ishladi, deganidir.

Shu bois, qaysi ilm dargohi, xoh u bog'cha yoki o'rta maktab bo'lsin, xoh akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji yoki oliy o'quv yurti bo'lsin, bu qonunlarga amal qilmaslik ta'lim-tarbiya

jarayonining eng umumiy metodologik asosining ikkinchi qismiga suyanmaslik bo'lib, harakatdan ko'zlangan maqsaddan chekinishga olib keladi. Pirovardida tarbiyalanuvchilarning o'zlash-tirish darajasi pasayadi.

Shu bois, harakat turidan qat'i nazar, eng umumiy metodologiyaning birinchi qismi jamiyatning umumiy maqsad ko'rsatkichlari va ikkinchi qismi dialektika qonunlari jamiyat a'zolari uchun eng umumiy metodologik asosdir.

Umuman olganda, kishi o'z faoliyatida eng umumiy tamoyil-larga amal qiladi. Shu bilan birga aniq bir sohaning umumiy maqsadi va qonuniyatlarini hamda tarmoq qonuniyatlaridan ham kelib chiqib harakat qiladi.

Shu bilan nazariy o'quv mashg'ulotimiz tugadi, agar savollar bo'lmasa yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

3.2. «Akmeologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi» mikro-moduli amaliy mashg'uloti loyihasi

Amaliy mashg'ulot nazariy mashg'ulotga nisbatan, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritib, aytib va ko'rsatib berishlari bilan amalga oshganligi sababli pedagog ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqarib turishi munosabati bilan, bu jarayonni loyihalashda faqat o'quv mashg'ulotini modullarga ajratib, ularning maqsadlarini, ularga ajratilgan vaqt va qo'llaniladigan o'quv mashg'uloti tipi va pedagogik usullarini hamda nazorat savollarini ifoda etuvchi jadvallar tuzib olinadi.

3.2.1-jadval

«Akmeologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish-harakatlar
1.	Akmeologiyaning tadqiqot obyekti – akmeshaxs	25 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
2.	Akmeologiyaning tadqiqot predmeti	25 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
3.	Akmeologiya fanining maqsadi	20 daqiqa	Yozish. Munozara.
4.	Talabalarni baholash	20 daqiqa	Savol-javoblar va mavzuni mustahkamlash

3.2.2-jadval

«Akmeologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi	Qo‘llaniladigan pedagogik usullar
1.	Yangi bilimlarni egallahash	«Ma’ruza muhokamasi»
2.	Bilimlarni mustahkamlash	«Bumerang», «Munozara»
3.	Bilimlarni mustahkamlash	«O‘qish va yozuv», «Kichik guruhlarda ishlash».
4.	Bilimlarni mustahkamlash	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum»

3.2.3-jadval

«Akmeologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo'llaniladigan savollar

T/r	Nazorat savollari
1.	Akmeologiyaning tadqiqot obyekti nima?
2.	Akmeologiyaning tadqiqot predmetini izohlang.
3.	Akmeologiya fanining maqsadi nimalardan iborat?
4.	Akmeologiya fanining tadqiqot predmetini ayting.
5.	Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmini qanday izohlaysiz?
6.	Bilimga asoslangan iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?

Endi ushbu mashg'ulot ssenariysini keltiramiz. Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usullarini qo'llab hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o'quv mashg'ulotini quyidagicha boshlaydi.

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Bugungi amaliy mashg'ulotimizning mavzusi: **«Akmeologiya-ning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi»** deb nomlanadi.

Iltimos, yozib oling. Ijtimoiy fanlarning umumiy tadqiqot obyekti – bu ijtimoiy hayot. Shu yerda «ijtimoiy» degan tu-shunchani sharhlab o'tish joiz. Ijtimoiy atamasi ikki ma'noda – biri keng, ikkinchisi tor ma'noda qo'llaniladi.

Keng ma'nodagi tushuncha ijtimoiy hayot vogeligi bo'lib, insonlarning barcha ongli harakati natijasida vujudga kelgan moddiy va nomoddiy narsalar majmuyiga aytildi. Bularga ruhiy, iqtisodiy, siyosiy va tor ma'nodagi ijtimoiy hayotlar kirib ketadi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot deganda, kishining bioijtimoiy mayjudot sifatida, o'z ixtiyori bilan namoyon qiluvchi hayot jabhalariga aytildi. Bularga – oiladagi kundalik hayot, o'zining

shaxsiy hayoti hamda mehnat va siyosat bilan bog'liq bo'lмаган барча фолиатлар кирди.

Keng ma'nodagi ijtimoiy hayot yaxlit bir majmu hisoblanib, quyidagi unsurlardan iborat bo'lib, insonning ruhiy hayotini gumanitar fanlar, xo'jalik yuritish bilan bog'liq bo'lgan hayotini iqtisodiy fanlar, jamiyatning boshqaruvi bilan aloqador hayotini siyosiy fanlar o'рганади ва ular bu fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot majmuyining qismlari ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at deb nomlanadi. Bu unsurlarni alohida-alohida ilm tarmoqlari o'рганаб, ular shu ilmlarning tadqiqot obyektlari hisoblanadi. Jumladan, ma'naviyat, ontologiya, aksiologiya, ijtimoiy ruhshunoslik, ijtimoiy ekologiya va hokazo fanlar ilmining umumiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqot obyekti bir bo'lgani bilan har birining tadqiqot predmeti mavjud. Bu tadqiqotlardan ko'zda tutilgan maqsad:

- ontologiyada – ma'naviyat shakllanish jarayonini dialektik qonuniyatlar asosida amalga oshirish yo'llarini topish;
- gnoseologiyada – bilish jarayonini bilish nazariyasi qonunlari asosida tashkil qilish usullarini yaratish;
- ijtimoiy ruhshunoslikda – bilish bilan ruhshunoslikning qonunlari orasidagi aloqadorlikni aniqlash;
- ijtimoiy ekologiyada – inson ma'naviyati shakllanishining tashqi ijtimoiy muhit orasidagi aloqalarning kechishi qonuniyatlarini aniqlash;
- akmeologiyada esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga xizmat qiladigan akmeshaxslarni shakllantirishdan iboratdir.

Ijtimoiy fanlarning ma'rifat, madaniyat va san'at guruhiya kiruvchi ilm tarmoqlarini ham xuddi shunday har bir guruhi uchun o'zining tadqiqot obyektlari mavjud bo'lib, ularning tadqiqot predmetlari, tadqiqot obyektlarini tashkil qiluvchi ichki qismlari orasidagi zaruriy aloqadorliklarni aniqlash hisoblanadi. Masalan, insonlarning biologik va ijtimoiy ehtiyojlarining bir necha guruhlari mavjud. Ayniqsa, ijtimoiy ehtiyoj cheksiz bo'-

lib, barchasini qondirishning iloji har doim ham bo'lavermaydi. Chunki har qanday ehtiyojni qondirish uchun ma'lum bir tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar mavjud bo'lmog'i lozim. Shundagina u talabga aylanadi.

Akmeologiyada bu jarayonlarning kechishi, ijtimoiy-iqtisodiy talabdan kelib chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, dalillarga ko'ra, XVII asrdan XX asrgacha yer sayyorasi aholisining umumiy soni 1 mlrd dan 2 mlrd gacha ko'paygan. 2020-yilga borib 8 mlrd gacha oshishi kutilmoqda. Shunday ekan, o'z-o'zidan tez sura'larda ko'payayotgan aholini qanday qilib barcha tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish mumkin, degan o'rni savol paydo bo'ladi.

Bunga, avvalambor, o'sib kelayotgan yoshlarimizni bilimli, professional yetuk kadrlar darajasida tarbiyalash orqaligina erishish mumkinligi haqida yurtboshimiz shunday fikrlarni bayon etganlar: «**Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr.** Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Inson zoti boshqa mavjudotlardan nimasi bilan farq qiladi, albatta yuksak ma'naviyati va intellektual salohiyati bilan. Shuning uchun insonlar sonining o'sishi bilan emas, balki ularning intellektual salohiyati va ma'naviyati yuksalishi bilan o'lchanishi lozim. Ya'ni, insonlarning sifatining o'sishini o'lhash lozim... Faqat o'z kuchimiz, o'z salohiyatimizga tayanib ish ko'rishimiz kerak... o'zimiz harakat qilmasak, chetdan kelib birov bizga yordam bermaydi»¹.

Yurtboshimizning o'gitlari asosida mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunlaridanoq keng miqyosda professional kadrlar tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Bu ko'rsatma nafaqat davlat rahbariyati xodimlari, balki fuqarolik jamiyatining barcha

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. 13-b.

institutlari, olimlar, nodavlat, notijorat tashkilotlar, o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari, oilalar oldiga mas’uliyatli vazifalarni qo‘ydi.

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo‘lib, u insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o‘zaro dialektik munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Demak, keskin raqobat sharoitida muntazam o‘sib borayotgan aholini boqish faqatgina bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Bilimga asoslangan iqtisodiyotni piramida shaklida ko‘rsatsa bo‘ladi. Uning negizida Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) fan va ta’lim yotishini ko‘rsatgan. Lekin fan va ta’limni kim yaratadi? Agar ota-onalar jamiyatga sog‘lom va qobiliyatli shogird va o‘quvchilarni yaratib bersalar, ularga innovator olimlar, injener texniklar va professor o‘qituvchilar ta’lim beradilar.

Akmeologiyaning tadqiqot obyekti – bu akmeshaxs bo‘lib, obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb-korlikning ijodiy faoliyatning metodologik, texnologik hamda gumanitar (insonparvarlik) jihatlarini o‘rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatlari bilan bog‘liq akmeologik muammolarni aniqlaydi.

Masalan, bozor munosabatlarining rivojlanishida yangi kasb-hunarlarni shakllantirish, davr talabiga monand yetuk kadrlar yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Globalizatsiya jarayonlariga ijodiy kompleks yondoshish, kasb-korlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlarni va zamonaviy tajribalarni chuqur egallash, texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o‘zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning obyektlaridan biriga aylanishi mumkin.

Endi ruchkalaringizni qo‘yib, biroz dam oling.

Savollar: Pedagog ushbu savollarni kompyuterdan PowerPoint slayd ko‘rinishida namoyish etadi.

1. Aytinchchi, «akmeshaxs» deganda qanday insonni tasavvur qilasiz?

2. «Akmeshaxs» maqomiga ega bo‘lish uchun nimalarga amal qilish mumkin?

3. Biz qanday insonlarni «akmeshaxs»lar deya olamiz?

Talabalar bu savollarga javob topish uchun guruhlarga bo‘linadilar. Har bir guruhdan bir vakil umumiy xulosani bayon etadi. Qolgan guruhlar a’zolari esa uning javoblarini baholaydilar. Shu tartibda qolgan guruh vakillari ham o’zlariga tegishli savollarni asoslashga harakat qiladilar.

Pedagog umumiy savol-javoblar va talabalarning bir-birlariga qo‘ygan baholarini umumlashtiradi.

So‘z yordamida. Endi biroz yozamiz. Marhamat, yozishni boshlang. *Akmeologiyaning tadqiqot predmeti – akmeshaxsn shakllantirishda ishtirot etadigan kasbiy bilimlar majmuyi bilan axloqiy fazilatlar hamda siyosiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy institutlar bilimlari orasidagi funksional aloqadorlik bo‘lib, muayyan ilm sohasi, majmuning jabha yoki xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi.*

Shunday qilib, akmeologiya predmetini insonning yetuklik darajasidagi rivoji bilan chegaralab qo‘yish va u o‘z rivojida qaysi sharoitlarda optimumga erishadi va uning optimumumi qanday bo‘ladi deyishni aniqlash bilan bir qatorda uning predmetini juda keng tushunish kerak bo‘ladi. Bunga turli umumlashmalarning rivoji va ularning rivojida eng yuqori darajaga erishishga imkon yaratuvchi sharoitlarni aniqlash, hamda ushbu fanda bazaviy kategoriya sifatida akmening chiqishi va shakllarining keng kontinuumda konkretlashtirishi har bir holatda u yoki bu inson rivojida erishgan cho‘qqining belgilarini konkret integrallashtirilishi va obyektivlashtirilishi yoki turli jamoalarning rivojlanishlarida erishilgan cho‘qqida akkumulyatsiya qilinishi namoyonligi o‘z ifodasini topadi.

Har qanday ilm o‘z oldiga faqat bitta maqsadni qo‘yadi. *Akmeoliya fanining maqsadi – o‘rganilayotgan majmuda shu vaqtgacha aniqlanmagan xususiyat va aloqadorliklarni aniqlash va uni jamiyatning ma’lum bir ehtiyojini qondirishda foydalishni ko‘rsatib berish orqali akmeshaxsni shakllantiruvchi*

individual xususiyatlari bilan akmeshaxs bo‘lishiga ta’sir etuvchi oila, moddiy olam va ijtimoiy muhit hamda uzlucksiz ta’lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, badiiy va ilmiy adabiyotlar orasidagi qonuniy aloqadorliklarni aniqlash va shular asosida akmeologlarga tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu falsafiy tushunchalardan kelib chiqib, ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi bir necha ilm tarmoqlarining tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadini aniqlash mumkin.

Endi biz siz bilan akmeologiyaning asosiy maqsadini ko‘rib chiqamiz.

Izoh. Amaliy mashg‘ulotning bu qismi biror-bir (yoki bir nechta) talabaga uy vazifasi sifatida beriladi. Ular mashg‘ulot davomida o‘zlarining ma’ruzalarini o‘qib eshittiradilar. So‘ngra ma’ruza yuzasidan savol-javoblar o‘tkazilib, mustahkamlanadi.

Ma’ruza. «*Fan samaradorligini sisat jihatdan oshirishga quruq da’vatlar bilangina erishish mumkin emas. Ilmiy kadrlarga munosabatni ham tubdan o‘zgartirish, ularning ijtimoiy maqomini qat’iyan oshirish, chuqur struktura o‘zgarishlari qilish zarur. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi fan uchun hech narsani ayamayotgan mamlakat gullab-yashnayotganligini va bunday davlat hamma yaxshi narsalarni – insonlarning kuch g‘ayratini ham, moddiy texnika resurslarini ham o‘zida jamlayotganligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Fanni malakali kadrlar bilan ta’minalash, xodimlarning professional bilimdonlik darajasini oshirish, ularning qobiliyatlarini ro‘yobga chigarish uchun barcha sharoitlarni yaratish ilmiy jarayonni Jadallashtirishning asosiy omiliidir*»¹. Yurtboshimizning shu g‘oyalari ayni paytda keskin aytilgan ko‘rsatma edi. Bu bilimga asoslangan iqtisodiyot modelidir. Demak, yuqorida fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, jamiyatimiz ilm-fani oldiga Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasida yangicha yondashuvlarni izlab topish vazifasi qo‘ylganligini anglaymiz. Ana shunday yondashuvlarimiz natijasi esa akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishi bo‘ldi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad –

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011. 82-b.

mamlakatimiz kadrlar tayyorlash milliy modelini yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Bu borada, Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2005-yil 28-dekabr kuni poytaxtimiz Toshkentning «Yoshlar» talabalar shaharchasida bir guruh talaba-yoshlar bilan uchrashevularida yoshlарimizning barkamol inson bo'lib o'sib ulg'a-yishlari, jamiyatda o'z o'rinalarini topishlari bilan bog'liq masalalarning ma'naviy tomonlariga katta e'tibor berish lozimligini alohida ta'kidlab, **«Ba'zi yoshlарimiz lavozim pog'onalarida tezroq o'sish va ulg'a-yishni xohlaydi. Ularni bunga kim da'vat qiladi? Albatta, ota-onasi. Ular, sen ham boshqalardek katta ishlarga ko'tarilgin, mas'ul vazifalarni egallagin, deydi. Odatda, keksalarimiz ham duysi fotiha qilganda, martabangiz ulug' bo'lsin, yanada oshsin, degan gaplarni aytadi. Bunday niyat va tilaklar albatta yaxshi. Lekin, menga buyursa, yoshlarni duo qilganda, avvalo, inson bo'l, bir kasb yoki hunarni chuqur egalla, ota-onangni, el-yurtingni rozi qil, degan so'zlarni aytaksak, yanayam yaxshiroq bo'lardi»¹**, deb aytganlar. Ushbu mulohazalar akmeologiya bilan bog'liq bo'lib, yoshlarni mukammallik nuqtayi nazaridan tarbiyalashda muayyan ilmiy metodologiya bo'lishi lozimligini, ularning akmeologik tarbiyasini ilmiy jihatdan tashkillashtirish va boshqarish zamonaviy, ya'ni zamon talablari asosida bo'lishiga ishora deb baholasa bo'ladi. Biz yurtboshimizning ushbu o'gitlarini jamiyatimiz oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma, desak aslo adashmaymiz. Zero, **butun jamiyatga taalluqli ehtiyoj ijtimoiy buyurtma deyiladi. Jamiyat ehtiyojlarini qondirish shart-sharoitini yaratib berish davlatga yuklatilgan.**

Ushbu ijtimoiy buyurtma asosida tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy sohalar integratsiyasida shakllanib kelayotgan **akmeologiya** insonning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadiga muvosiq bosqichma-bosqich, dastlabki, o'rta va keyingi yetukligida individ sifatida (murakkab tirik organizm sifatida),

¹ Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro'yobga chiqarish – bugungi kunning ustuvor vazifsidir. // Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T. 14. – T.: «O'zbekiston», 2006, 114-b.

shaxs sifatida (bu holda vogelikning turli tomonlarga bo‘lgan munosabatlarni inson tomonidan o‘zlashtirishi nazarga olinadi) va faoliyat subyekti sifatidagi (asosan professional sifatida) inson sifatida yuzaga kelish fenomenologiyasi, qonuniyatlarining mexanizmlarini aniqlab beradi.

Jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini qondirish shart-sharoitlari davlat tomonidan yaratilganidan so‘ng bunday ehtiyoj davlat talabi, ya’ni davlat buyurtmasiga aylanadi.

Davlat buyurtmasining turiga qarab shu sohaning mutasaddilari buyurtmani bajarish uchun mas’uldirlar.

Har qanday ilm ahli o‘z faoliyatini ijtimoiy buyurtmaga asosan davlat tomonidan qo‘yilgan talabdan kelib chiqib bajarishi lozim. Har qanday jamiyatning ehtiyoji o‘zgarib turadi, Shuning uchun ham olimlar o‘z tadqiqotlarini faqat dolzarb masalalarni yechishga qaratmog‘i lozim. Ammo har bir ilmfanning nazariy asoslari ustida olib boriladigan fundamental tadqiqotlar bundan mustasno. Bunday tadqiqotlarga talab doimo mavjud.

Har qanday ehtiyoj va talablarning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘ladi. Kishi o‘z faoliyatida, shu jumladan, ilmiy faoliyatida bu ko‘rsatkichlarga erishishni maqsad qilib oladi. Ularga intilib ish yuritish metodologiyaga amal qilinganlikni bildiradi.

Metodologiya eng umumiylar, umumiylar va xususiy turlarga bo‘linishini yuqorida ko‘rdik. Jamiyatimizning oldiga qo‘yilgan eng umumiylar maqsad O‘zbekiston fuqarolariga farovon hayot yaratish va shunga mos huquqiy va demokratik davlatni qurish asosida farovon hayot, jamiyat a’zolarining akmeologik ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun ilm-fan integratsiyasi asosida qulay ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy muhit yaratib, ularning samarador faoliyatlarini yanada rivojlantirish lozim.

Bugungi kunda butun dunyo olimlari tan olgan va o‘zlarining harakat jaryonlariga eng umumiylar metodologik asos sifatida foydalananadigan Abu Nasr Forobiyaning aniqlagan va Gegel tomonidan rivojlantirilib, qonun darajasiga olib borilgan dialektikaning uch asosiy qonuni aslida rivojlanish degan ma’noni bildiradi.

Bilamizki, butun borliq – tabiat, jamiyat va ong tinmay harakat jarayonida bo'lib, tinmay rivojlanib, bir turdan ikkinchi bir turga o'tib turadi. Bu yerda bunday rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch qayoqdan paydo bo'ladi, degan tabiiy savol tug'iladi. Gegel bu kuch qarama-qarshi tomonlar birligi va kurashi jarayonida paydo bo'ladi, deydi va uni **dialektikaning birinchi asosiy qonuni** deb nomlaydi.

Darvoqe, butun borliq, avval qayd qilib o'tganimizdek, cheksiz katta va kichik, kelib chiqishi jihatidan turli-tuman majmulardan iborat ekan, har qanday majmu qarama-qarshi tomonga ega. Bir tomonli majmuni, ya'ni narsa yoki hodisani topa olmaymiz. Bu qarama-qarshi tomonlar tinmay biri-biriga intilib, bir butunlikni tashkil qiladilar. Shu bilan bиргаликда ular qarama-qarshi tomon, ya'ni qarama-qarshi kuch bo'lib qolaveradilar. Bu voqelik narsa va hodisalarning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan qonuniyat bo'lib, butun borliq shu qonuniyatga bo'ysunadi. Shuning uchun ham uni rivojlanishning eng asosiy qonuni deb yuritiladi. Bu holni har qadamda ko'rshimiz, sezishimiz mumkin. Masalan, atom qarama-qarshi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan elektron va protonlardan iborat yoki kecha-kunduz, oq-qora, past-baland, og'ir-yengil, o'ng-chap, yaxshi-yomon va hokazo. Agarda bu qonunni akmeologiyada qo'llaydigan bo'lsak, biz uni iqtisodiyotimizning rivoji jarayonidagi **sog'lom raqobatga** tenglash-tirishimiz mumkin. Chunki, **sog'lom raqobat** muhitida har bir tomon boshqa bir tomonga nisbatan raqib hisoblansada, umumiy maqsad – mamlakat iqtisodiyoti rivojiga munosib hissa qo'shish hisoblanadi.

Bular cheksizdirlar. Bu hol jamiyki narsa va hodisalarda o'z ifodasini topgan. Bunday qarama-qarshi tomonlar bir-biriga intilishi natijasida bir butunni tashkil qiladilar va shu bilan bиргаликда biri-biriga qarshi kuch bo'lib qolaveradilar.

Bunday ichki tortilish va itarilish natijasida narsa va hodisa ichida kuchlanish paydo bo'ladi. U ma'lum bir vaqtidan keyin me'yoriga yetganda, narsa va hodisada harakat paydo qiladi. Shunda bu narsa va hodisa o'zining avvalgi holatini o'zgartirib, yangi bir holatga o'tadi. Bu holatni ifodalovchi dialektikaning

yana ikki qonuni bor. Bular **miqdorning sifat darajasiga o'tishi** va **inkorni-inkor qonunlaridir**.

Bu qonunlar borliqning har bir majmuyida o'z kuchini ko'rsatganligi uchun har bir faoliyatda, shu jumladan, tadqiqot ishida ham bu qonunlarni hisobga olmaslik va ularni eng umumiy metodologik asosning ikkinchi qismi sifatida kelib chiqmaslik, harakat jarayonimizni noto'g'ri tashkil qilganimizni bildiradi va bunday harakat maqsadga olib bormaydi. Chunki bu g'ayritabiyyidir.

Bu qonunlarning ma'rifiy jarayonda namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz. Ma'rifiy jarayonni ko'z oldimizga keltirsak, u bir butunni ta'lim-tarbiya majmuyidan iborat bo'lgani holda ikki qarama-qarshi «ta'lim-tarbiya beruvchi» va «ta'lim-tarbiya oluvchi» tomonlardan, boshqacha aytganda, qarama-qarshi kuchlardan tashkil topganligini ko'ramiz. **Dialektika qonuniga binoan, ular bir vaqtning o'zida biri-biriga intiladilar va biri-biridan dochadilar.**

Haqiqiy ma'rifiy jarayonni hosil qilish uchun bu qarama-qarshi tomonlarning bir-biriga intilish kuchini oshirib, bir-biriga qarshi kuchlarini so'ndirish yo'lidan borish lozim. Ta'lim-tarbiyada bir-biriga intiluvchi asosiy kuch bo'lib, mazkur bilimga qiziqish hissi xizmat qiladi. Bu o'rinda esa pedagogning akmeologik ko'nikmalari yordamga kelishi mumkin. Avvalo, tarbiyachi **tarbiyalanuvchilarining «moyillik darajasi»ni aniqlab olmog'i**, zarur. Zero, dunyoda ikkita bir xil inson uchramaganidek, ularning xarakter xususiyatlari, qiziqishlari, qolaversa, qobiliyat darajasi va bilimni o'zlashtirish imkoniyatlari ham o'zgachadir.

Shunday ekan, har bir tarbiyalanuvchiga individual yonda-shish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlaydi. Shuning uchun pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri ham talabalarni berilayotgan bilimga qiziqtirish yo'li bilan ular diqqatini shu bilimga jalb etish hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya beruvchi ta'lim oluvchiga berayotgan bilimning mohiyatini ochib, qiziqtirib turib, tushuntirishi paytida miqdor yig'ilib sifatga o'tishi uchun tarbiyalanuvchiga o'z bilimlarini bir necha bor takrorlashi muvaffaqiyat garovidir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, berilayotgan bilim ta'lif oluvchining miya qobig'ida o'z aksini topishi uchun uni kamida 3–5 marotaba, murakkab mavzularni o'tayotganida yoki diqqati sust bolalar bilan ishlayotganda esa 7–9 marta takrorlash lozim ekan. Shundagina miqdor sifat darajasiga o'tib, talabalardagi «bilmaslik» holati «bilish» bilan almashinadi. Miqdor sifatga o'tganda oldingi «biliyi yo'q» darajasi o'z-o'zidan inkor qilinib, «bilimli» darajani tashkil etadi. Bu degani, dialektikaning qolgan ikki qonuni ham ishladi, deganidir.

Shu bois, **qaysi ilm dargohi, xoh u bog'cha yoki o'rta maktab bo'lsin, xoh akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji yoki oliy o'quv yurti bo'lsin, bu qonunlarga amal qilmaslik ta'lif-tarbiya jarayonining eng umumi metodologik asosining ikkinchi qismiga suyanmaslik bo'lib, harakatdan ko'zlangan maqsaddan chekinishga olib keladi**. Pirovardida tarbiyalanuvchilarning o'zlash-tirish darajasi pasayadi.

Shu bois, harakat turidan qat'i nazar, eng umumi metodologiyaning birinchi qismi jamiyatning umumi maqsad ko'rsatkichlari va ikkinchi qismi dialektika qonunlari jamiyat a'zolari uchun eng umumi metodologik asosdir.

Umuman olganda, kishi o'z faoliyatida eng umumi moyillarga amal qiladi. Shu bilan birga, aniq bir sohaning umumi maqsadi va qonuniyatlarini hamda tarmoq qonuniyatlaridan ham kelib chiqib harakat qiladi.

Pedagog mashg'ulot yakunida darsda faol ishtirok etgan talabalarni baholaydi:

Shu bilan, o'quv mashg'ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

3.3. «Akmeologiyaning asosiy prinsiplari» mikro-modulli amaliy mashg'uloti loyihasi

Amaliy mashg'ulot nazariy mashg'ulotga nisbatan ta'lif oluvchilarning mustaqil fikr yuritib, aytib va ko'rsatib berish yo'li bilan amalga oshganligi sababli, pedagog ta'lif oluvchilar faoliyatini boshqarib turishi munosabati bilan, bu jarayonni loyihalashda faqat o'quv mashg'ulotini modullarga ajratib,

ularning maqsadlarini, ularga ajratilgan vaqt va qo'llaniladigan o'quv mashg'uloti tipi va pedagogik usullarini hamda nazorat savollarini ifoda etuvchi jadvallar tuzib olinadi.

3.3.1-jadval

«Akmeologiyaning asosiy prinsiplari» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish-harakatlar
1.	Tayanch akmeologiya prinsiplari	25 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
2.	Akmeologiyaning umummetodologik prinsiplari	25 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
3.	Akmeologiyaning konkret-amaliy prinsiplari	20 daqiqa	Yozish. Munozara
4.	Talabalarni baholash	20 daqiqa	Savol-javoblar va mavzuni mustahkamlash

3.3.2-jadval

«Akmeologiyaning asosiy prinsiplari» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi	Qo'llaniladigan pedagogik usullar
1.	Yangi bilimlarni egallah	«Ma'ruza muhokamasi»
2.	Bilimlarni mustahkamlash	«Bumerang», «Munozara»
3.	Bilimlarni mustahkamlash	«O'qish va yozuv», «Kichik guruhlarda ishlash».
4.	Bilimlarni mustahkamlash	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum»

**«Akmeologiyaning asosiy prinsiplari» mikro-moduli tarkibidagi
mikro-modullarda qo'llaniladigan savollar**

T/r	Nazorat savollarri
1.	Tayanch akmeologiya prinsiplari deganda nimani tushunasiz?
2.	Akmeologiyaning umummetodologik prinsiplarini sanang.
3.	Akmeologiyaning konkret-amaliy prinsiplariga nimalar kiradi?
4.	Sinergetik akmeologiya prinsiplariga nimalar kiradi?
5.	Sinergetik akmeologiya prinsiplarining akmeologiyaning umummetodologik prinsiplari bilan aloqadorlik jihatlarini ko'rsating.

Endi ushbu mashg'ulot ssenariysini keltiramiz.

Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usulini qo'llab hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o'quv mashg'ulotini quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Bugungi amaliy mashg'ulotimizning mavzusi: **«Akmeologiya-ning prinsiplari»** deb nomlanadi.

So'z yordamida. Akmeologik qarashlar kishilarning halol yo'l bilan kelajakda yuksak marralarga borishini anglatuvchi g'oyalar deya e'tirof etilsa, ularni shakllantirishda fanning asosiy prinsiplari muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, mustaqil O'zbekiston sharoitida akmeologiya fanining asosiy prinsiplarini o'rganish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, insondagi yoqimli fazilatlar, o'tkir did bilan aql-idrok, fahm-farosat uyg'unlashgandagina inson «akmeshaxs»ga aylanishiga imkoniyat tug'ilishi hech kimga sir emas.

Shaxsdagi u yoki bu xildagi xususiyatlar va ustanonokalar kishining ijtimoiy hayot faoliyatni, uni qurshab olgan obyektiv shart-sharoitlar va voqeа-hodisalar ta'sirida vujudga keladi. Ushbu shart-sharoitlar va obyektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu masalalar akmeologiyaning asosiy prinsiplarida belgilab qo'yilgan. Ijtimoiy turmush shart-sharoitlari pirovard natijada inson xulq-atvorining shakl va tamoyilini belgilab beradi.

Shu bois ham, inson yaralgandan buyon yuksalishga harakat qiladi, bu uning mohiyatiga xosdir. Bilmaganini bilishlikka, ezbilikka, insoniylikka, go'zallikka intilish bevosita va bilvosita tarzda inson rivoji bilan birga rivojlanib boradi. U doimo komillikka, yuksaklikka intilib yashaydi. Obyektiv sabablar tufayli tubanlashgan inson qalbining bir chekkasida yana insoniylikka tomon intilish va unga bo'lgan ishonch yotadi. U komillik sari intiladi.

Komillikni belgilovchi chegara bormi, bo'lsa u qayerda degan savol esa inson tafakkurini jalg qilib kelayotgan muammolardan biridir.

Pedagog akmeologiyaning prinsiplari ifoda etilgan jadvalni kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi.

Marhamat, slaydga e'tibor bering va uni daftaringizga ko'chirib oling (3.3.1-slayd).

Endi ruchkalaringizni qo'yib, biroz dam oling.


Savollar. Pedagog ushbu savollarni kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi. Bunda 3.3.3-jadvaldagи savollar to'plamidan foydalandik.

Talabalar bu savollarga javob topish uchun guruhlarga bo'linadilar. Har bir guruhdan bir vakil umumiy xulosani bayon etadi. Qolgan guruhlar a'zolari esa uning javoblarini baholaydilar. Shu tartibda qolgan guruh vakillari ham o'zlariga tegishli savollarni asoslashga harakat qiladilar.

Pedagog umumiy savol-javoblar va talababarning bir-birlariga qo'yan baholarini umumlashtiradi. III mezo-modul yakuni bo'yicha mustaqil ish mavzularini beradi. Talabalarga ushbu mavzular bo'yicha referat tayyorlab kelishni tayinlaydi.

Shu bilan, amaliy o'quv mashg'ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

AKMEOLOGIYANING PRINSIPLARI



IV. «AKMEOLOGIYANING METODLARI» MEZO-MODULINING LOYIHASI

Pedagog: birinchi navbatda, «Akmeologiyaning metodlari» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlarni belgilaydi (4.1-jadval).

Ikkinchidan, ushbu mezo-modul mazmunidan kelib chiqadigan tayanch tushunchalarni ajratib, shular asosida nazorat savollari tuzib, ularni baholash mezonlarini belgilaydi (4.2-jadval).

Uchinchidan, ushbu mezo-modul tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotining tiplari hamda pedagogik uslublar tanlanib joylari belgilanadi (4.3-jadval).

To'rtinchidan, ushbu mezo-modul tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiya didaktik materiallarning qo'llanish turi va joyi ko'rsatiladi (4.4-jadval).

Beshinchidan, ushbu mezo-modul uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi (4.5-jadval).

Quyida mazkur jadvallarni keltiramiz.

4.1-jadval

«Akmeologiyaning metodlari» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

Mezo-modulning nomi	Mikro-modullar, ularning tartib raqamlari, mashg'ulot turi va mavzuning nomi	Mikro-modullar yakunida erishiladigan maqsadlar
4. Akmeologiyaning metodlari	4.1. Nazariy mashg'ulot. Akmeologiyaning nazariy va amaliy metodlari	Akmeologiyaning nazariy metodlari tizimi (mantiqiy eksperiment; tahsilning matematik metodi, fanlararo metodlar-yondashuvlar). Akmeologiyaning amaliy metodlari (umumilmiy, alohida fanlarning metodlari: psixologik, ijtimoiy, psixofiziologik va h.k. akmeologik).

	<p>4.2. Amaliy mashg'ulot. Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida</p>	<p>Akmeogramma – shaxsni o'rganishga akmeografik yondashuvning asosiy metodi va u progressiv rivojlanish, professionalizm va muayyan mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadigan asosiy metod. Akmeogrammaning har bir shaxs uchun individual bo'lishi. Akmeogrammaning profesiogramma va psixogrammaga nisbatan umumlashtiruvchi kategoriya bo'lib hisoblanishi. Akmeogramma insonning individual ruhiy va psixofiziologik o'ziga xos xususiyati va kasbiy faoliyatini kompleks tarzda tavsiflash bo'lib, buyuk zotlarning o'sib-ulg'ayishlari va mukammallashuvlari, o'z kasblari tomon intilishlari jaryoni, qanday qilib olamshumul yangiliklar yaratganliklari va liderlik qobiliyatlarini o'rganishda qo'llanilishi. Akmeogrammaning shaxs «akme»siga nisbatan tasnifiy bahosi: tabiiy qobiliyatlar, insonning maxsus, o'ziga xos qibiliyatlar, umumiylazariy qibiliyatlar, ilmiy qobiliyatlar, muloqotga, ya'ni insonlar bilan o'zaro aloqaga kirishishga bo'lgan qobiliyat.</p>
	<p>4.3. Nazariy mashg'ulot. Test akmeshaxsnинг akmeogrammik xaritasini tuzishning asosiy vositasi sifatida.</p>	<p>Testning yosh avlodga o'z qibiliyatlar, imkoniyatlari va qiziqishlari doirasida mos kasbni tanlash imkoniyatini berishi. Testlar yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish,</p>

		ularni ko‘pchilikda qayta-qayta sinash va ma’lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlikka tekshirishning mumkinligi (Ravenna aqliy intellektni o‘lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs imkoniyatlarini aniqlash testlari). Test natijasida olingan ma’lumotlar shaxsnинг nafaqat psixobiografiyasi, balki kasbiy layoqat xaritasini tuzish uchun manba bo‘lib xizmat qilishi (proyektiv testlar).
--	--	---

4.2-jadval

«Akmeologiyaning metodlari» mezo-moduli tarkibidagi tayanch tushunchalar va shular asosida tuzilgan nazorat savollari

Mezo-modul tarkibidagi tayanch tushunchalar	Nazorat savollari
Akmeogramma, psixosemantik metod, meridian, kasb tanlash motivatsiyasi, akmeologik moyillik, psixobiografiya, proyektiv testlar, algoritm.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Akmeologiyaning nazariy metodlari tizimiga nimalar kiradi? 2. Akmeologiyaning amaliy-ishlab chiqarish metodlari sinfiga nimalar mansub? 3. Akmeogramma metodini tahlil etib bering. 4. Biror shaxsnинг akmeogrammasini chizishga urinib ko‘ring. 5. Kasb egalarining akmeogrammasini tavsiflang. 6. Test nima? 7. Testning qanday turlarini bilasiz?

Baholash turi: savol-javob. Bunda biz 4.2-jadvalda berilgan savollardan samarali foydalandik. Amaliy mashg‘ulotlarda esa nafaqat biz tomonimizdan taysiya etilayotgan savollar, balki talabalarning o‘zaro savol-javoblari ham nazarda tutilgan.

4.3-jadval

**«Akmeologiyaning metodlari» mezo-moduli o‘quv
mashg‘ulotining tipi va pedagogik usullar**

T/r	Qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi	Qo‘llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O‘qish va yozish»
2.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O‘qish va yozish», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O‘qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustah-kamlash»	«Guruhlarga bo‘linib ishlash»

4.4-jadval

**«Akmeologiyaning metodlari» mezo-modulida qo‘llaniladigan
axborot texnologiyasi va didaktik materiallar**

Nº	Axborot texnologiyalari	Didaktik materiallar
1.	Yozuv doskasi	Ma’ruza matni
2.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
3.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
4.	Tarqatma materiallar	Savol-javob

Uchinchi vazifa. «Akmeologiyaning metodlari» mezo-moduli loyihasi tuzib olindi. Unda barcha mikro-modular va ularda beriladigan bilimlar tizimi, ularni ta’lim oluvchilarga yetka-zishda qo‘llaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari tipi hamda pedagogik uslublar, axborot texnologiyasi va didaktik materiallar o‘z ifodasini topdi.

«Akmeologiyaning metodlari» mezo-moduli uchun quyidagi adabiyotlar ro‘yxati tavsiya etiladi (4.5-jadval).

**IV-»Akmeologiyaning metodlari» mezo-moduli uchun
foydanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati**

T/r	Adabiyotlar ro'yxati
1.	<i>Karimov I.A.</i> O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011.
2.	<i>Abdullayeva M.N., Abdurashidov M., Abilov O': va boshq. Falsafa: izohli lug'at.</i> – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
3.	Акмеологический словарь. / Под общ. ред. А.А.Деркача. – М.: Изд-во РАГС, 2004.
4.	<i>Деркач А., Зазыкин В.</i> Акмеология: Учебное пособие. – Спб.: «Питер», 2003.
5.	<i>Бодалев А.А., Васина Н.В.</i> Акмеология. Настоящий человек. Каков он и как им становятся? – Спб.: «Речь», 2010.
6.	<i>Davronov Z.D.</i> Ilmiy ijod metodologiyasi. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2007.
7.	<i>Davronov Z.D., Sharifxodjaev M.</i> Ma'naviyat asoslari. –Т.: «Iqtisod-moliya», 2005.
8.	Деркач А.А. Акмеология: личности и профессиональные развитие человека: Методолого-прикладные основы акмеологического исследования. – М., 2000.
9.	<i>Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh.</i> Pedagogika. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
10.	<i>Ziyomuhamedov B.</i> Komillikka eltuvchi kitob. – Т.: «Turon-Iqbol», 2006.
11.	«Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog'lom turmush tarzining o'rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2008-yil, 30-may). // – Т/: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
12.	<i>Karimova V.M.</i> Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. – Т.: 2000.
13.	<i>Ломброзо Ч.</i> Гениальность и помешательство. Пер. с итальянского. – Ростов на-Дону: «Феникс», 1997.

14.	Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: «Sharq», 1998.
15.	<i>Немов Р.С. Психология.</i> Кн. 1. – М., 1998.
16.	Психология. / Под ред. А.А. Крылова. – М, 1998.
17.	<i>To‘rayev B.O. Hozirgi zamon tabiatshunosligi konsepsiyalari.</i> – Т.: O‘zMU nashriyoti, 2007.
18.	<i>Tillayeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi.</i> –Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009.
19.	<i>Tillayeva G.H. Akmeologiyaning ijtimoiy-axloqiy muammo-lari.</i> – Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2012.
20.	<i>Shayxova X.O. Ma’naviyat – kamolot ko’zgusi. Saylanma.</i> – Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009.
21.	<i>G’oziyev E.G. Umumiyl psixologiya.</i> – Т., 2002.

Endi «Akmeologiyaning metodlari» mezo-moduli tarkibidagi mikro-modullar asosida tuzilgan mashg‘ulot loyihalarini kel-tiramiz.

4.1. «Akmeologiyaning nazariy va amaliy metodlari» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi

Pedagog nazariy o‘quv mashg‘ulotini «Ma’ruza» va «Aytib berish» usulini qo’llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

So‘z yordamida. Bugungi nazariy mashg‘ulotimiz «Akmeologiyaning nazariy va amaliy metodlari» deb nomlangan.

Hurmatli talabalar, bugungi mashg‘ulotimiz nazariy bo‘lganligi bois, biroz yozishingizga to‘g‘ri keladi. Marhamat, daftarlaringizni ochib yozing.

Izoh. Ssenariyda kursiv bilan belgilangan barcha yozilgan gaplar ta‘lim oluvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularni konspekt daftarlariiga yozish tavsiya etiladi.

So‘z bilan. *Insonning yetuklik bosqichi – yetukligining «akme» deb ataladigan cho‘qqisi hayotini, vaqt uzunligining asosiy qismini qamrab oladigan ko‘p o‘lchovli holatidir. Bu holat doimo insonni*

faoliyatning ma'lum sohasida qay darajada fuqaro, mutaxassis sifatida chiqqanligini ko'rsatadi. Uni o'rab olgan vogelik ichidagi boy yoki nochor aloqalar uning umr yo'ldoshi, ota-onasi sifatida qandayligini bildiradi. Shu bilan birga, u statik tuzilgan bo'la olmaydi, aksincha, ko'p yoki kamroq variativligi va o'zgaruv-chanligi bilan ajralib turadi.

Insonning jismoniy holatiga mansub bo'lgan komponent qoidaga ko'ra, yetuklik parametrlari doirasida tipik tavsifni doimo olib yuradi va qayta o'zgarishlarga uchraydi. Insonning mazmunli spetsifikasi va uni ifodalash shaklining mana shunday harakatchan birligi fuqaro, shaxs faoliyati subyekti, umr yo'ldoshi, ota-onasi sifatida ifodalanayotgan yetuklik bosqichida har doim kuzatilishi mumkin.

Insonni yaxlit tushunishda ular orasidagi bog'liqliklarning barcha murakkabligini anglash uchun turli fan nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlarda olingan yetuk insonni o'rganish natijalarini yaxlit bir tizimga to'plash zarur bo'лади.

Ushbu yondashuvda insonni o'rganish, olingan ma'lumotlar integratsiyasi – murakkab jarayon va maxsus metodologiyasini yaratishni, hamda ularni bir-birlari bilan ilmiy-korrektiv birlashuvi texnikasini talab etadi. Ana shu texnika akmeologiyaning metodlarini ifoda etadi.

Akmeologiyaning nazariy metodlari tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Mantiqiy: analiz, sintez, induksiya, deduksiya, mushohadati (xayoliy) eksperiment.

2. Tahlilning matematik metodi: korrelyativ, omilli, dispersion, diskriminatsion, klasterli va boshq.

3. Fanlararo metodlar-yondashuvlar: kompleks, tizimli, funk-sional, genetik, longityudli, modelli, biografik, vaziyatli va boshq.

Akmeologiyaning amaliy-ishlab chiqarish metodlari sinfiga quyidagilar mansub:

a) umumilmiy: kuzatuv, eksperiment, ekspert bahosi;

b) alohida fanlarning metodlari, jumladan:

- psixologik (test, kuzatish, suhbat, o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'ziga hisobot berish, psixosemantik);

- ijtimoiy (ro'yxatga olish, so'rov, intervyyu olish, so'rovnomaga o'tkazish);

- psixofiziologik.

d) akmeologik (akmeogramma, test, psixobiografiya, akmeologik ekspertiza).

Pedagog: Hurmatli talabalar, endi ruchkangizni qo‘ying. Savollar bo‘lsa, marhamat.

Talabalar: Pedagog o‘zlashtirilgan yangi bilimlar asosida talabalarning bergan savollariga javob beradi.

So‘ngra pedagog tomonidan 4.2-jadvalda berilgan savollar asosida talabalarning bilimlarini mustahkamlaydi va ularni baholaydi.

So‘z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida insonning yetuklik bosqichi – yetukligining «akme» deb ataladigan cho‘q-qisi uning hayotini, vaqt birligining asosiyligi qismini qamrab oladigan ko‘p o‘lchovli holat ekanligini anglab oldik. Shu bilan birga, u statik tuzilma bo‘la olmasligi, aksincha, ko‘p yoki kamroq variativligi va o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Akmeologiyaning nazariy metodlari tizimi (mantiqiy eksperiment, tahlilning matematik metodi, fanlararo metodlar-yondashuvlar); akmeologiyaning amaliy metodlari (umumilmiy, alohida fanlarning metodlari: psixologik, ijtimoiy, psixofiziologik va h.k. akmeologik) haqida gapirdik. Siz bugungi konspektlar va qo‘shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o‘zlashtirishingiz lozim.

Shu bilan, o‘quv mashg‘ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo‘linglar!

4.2. «Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi

Amaliy mashg‘ulot nazariy mashg‘ulotga nisbatan ta’lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritib, aytib va ko‘rsatib berishlari bilan amalga oshganligi sababli, pedagog ta’lim oluvchilar faoliyatini boshqarib turishi munosabati bilan, bu jarayonni loyihalashda faqat o‘quv mashg‘ulotini modullarga ajratib, ularning maqsadlarini, ularga ajratilgan vaqt va qo‘llaniladigan o‘quv mashg‘uloti tipi va pedagogik usullarini hamda nazorat savollarini ifoda etuvchi jadvallar tuzib olinadi.

4.2.1-jadval

«Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish harakatlar
1.	Akmeogramma – akmeografik yondashuvning asosiy metodi	20 daqiqa	Yozish
2.	Mutaxassis akmeogrammasi	20 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish
3.	Akmeogramma tuzish metodi-kasini o'zlashtirish	20 daqiqa	Shaxsiy akmeogrammalarni tuzish
4.	Namunada berilgan Markaziy Osiyo allomalarining akmeogrammasini shaxsiy akmeogrammalar bilan taqqoslash	20 daqiqa	Munozara
5.	Talabalarni baholash	10 daqiqa	Savol-javoblar va mavzuni mustahkamlash

4.2.2-jadval

«Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi	Qo'llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Amaliy mashg'ulot»	«O'qish va yozish»
2.	«Yangi bilimlarnimustahkamlash»	«O'qish va yozish», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni mustahkamlash»	«O'qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

**«Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida» mikro-moduli
tarkibidagi mikro-modullarda qo'llaniladigan savollar**

T/r	Nazorat savollari
1.	Akmeogramma nima?
2.	Akmeogramma qanday tamoyillar asosida tuziladi?
3.	Akmeogramma shaxsning qaysi sifatlarini qamrab oladi?
4.	Markaziy Osiyo allomalaridan birining akmeogrammasiga tegishli sifatlarni keltiring.
5.	Akmeogrammaning zamonaviy ilm-fandagi o'rni qanday?

Endi ushbu mashg'ulot ssenariysini keltiramiz.

Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usulini qo'llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o'quv mashg'ulotini quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Bugungi amaliy mashg'ulotimizning mavzusi: «**Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida**» deb nomlanadi.

Iltimos, yozing. Insonni yoshligidanoq ma'lum bir sohaga yo'naltira oluvchi texnologiyalarning eng birinchi va muhim mexanizmi va instrumentariysi – akmeogrammadir.

Akmeogramma – akmeografik yondashuvning asosiy metodi va u progressiv rivojlanishga hamda birinchi navbatda shaxsning professionalizmi va muayyan mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadi. Akmeogramma doimo individual bo'lib, rasmiy ravishda u samarali faoliyat ko'rsatayotgan subyektning individual «kesimi»ni, uning imkoniyatlari va istiqbollarini, o'rnni qoplaydigan va aksi bo'lgan xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Akmeogramma – professiogramma va psixogrammaga nisbatan umumlashtiruvchi kategoriya bo'lib hisoblanadi. Akmeogramma

insonning individual-ruhiy va psixofiziologik o'ziga xos xususiyati va kasbiy faoliyatini kompleks tarzda tavsiflash bo'lib¹, buyuk zotlarning o'sib-ulg'ayishi va mukammallahuvi, o'z kasbi tomon intilishi jarayoni, qanday qilib olamshumul yangiliklar yaratganliklari va liderlik qobiliyatlarini o'rganadi. Natijada, jamiyatimizning ilg'or akme shaxslari o'tmishdagi ajdodlarimiz bosib o'tgan yo'l, ular erishgan cho'qqilar – kamolot va mukammallik cho'qqisiga erishish mexanizmlarini yaxshiroq va mukammal anglashidir. Bu esa, o'z navbatida, bugungi kun nuqtayi nazardin istiqbolimiz trayektoriyasini ham belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda rossiyalik tadqiqotchilar A.A.Bodalev, N.V.Vasina va A.A.Derkachlar tomonidan taqdim etilgan hozir gacha faoliyat ko'rsatayotgan akmeogrammani o'rganib chiqdik.

Endi ruchkangizni qo'yib, ushbu slaydga e'tibor bering. Bu slaydda shaxs akmeogrammasining taxminiy loyihasi berilgan. Ana shu namuna asosida har biringiz o'z akmeogrammangizni tuzishga urinib ko'ring.

So'ngra biz sizning ana shu tuzilgan shaxsiy akmeogrammangizni Abu Rayhon Beruniyning namunaviy akmeogrammasi bilan taqqoslasmiz. Marhamat.

Pedagog ushbu akmeogrammani kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi.

Ushbu akmeogrammani ko'chirib oling.

¹ Акмеология: Учебник. Изд. 2-е. / Под общей ред. А.А.Деркача. — М.: Изд. РАГС, 2006. — С. 134–136.

Mutaxassis akmeogrammasi¹

No _____ «____» ____ 20 ____ y.

Familiyasi, ismi, sharifi: _____

Jinsi _____ Yoshi _____ Ma'lumoti _____

Ixtisosligi _____

Faoliyatidagi o'sish dinamikasi _____

Malakaviy darajasi _____

Malaka oshirish bo'yicha qayta tayyorlash (o'z ustida ishlash)

Qo'shimcha ma'lumotlar _____

1. Qobiliyatlar:

- murakkab;
- xususiy;
- murakkab xususiy;
- mavjud iqtidor;
- mavjud iste'dod;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

2. Tizimosti individuallik:

- «Men» obrazining tavsifi;
- yutuqlarga bo'lgan ehtiyojining asoslanganligi;
- o'z-o'zini baholash tavsifi;
- qadriyatlarga yo'naltirilganlik va qiziqishlari;
- o'zini mehnatga bag'ishlash;
- qo'shimcha ma'lumotlar².

Biz ushbu akmeogrammani tasnifiy holda keltirdik. Uning turli manbalarda turlicha keltirilganligi bois shunday umumiy xulosaga keldik:

1. **Tabiiy qobiliyatlar** asosida biologik hisoblangan tug'ma qobiliyat nishonalari yotadi. Ular o'rganish mexanizmi orgali

¹ Акмеология: Учебник. Изд. 2-е. / Под общей ред. А.А.Деркача. —

М.: Изд. РАГС, 2006. — С. 134—136.

² O'sha joyda.

elementar hayot tajribasining mavjudligida shakllanib boradi (shartli-reflektor aloqalari kabi).

2. Insonning maxsus, o'ziga xos qobiliyatlarini jamoaviy-tarixiy kelib chiqishga egadir. Ular ijtimoiy-axloqiy muhitda yashash, o'sish va rivojlanishni ta'minlaydi. (Umumiy maxsus oliy intellektual qobiliyatlar, ular asosida nutq, mantiq, nazariy va amaliy, ilmiy va ijodiy bilimlardan foydalanish yotadi). Insonning maxsus, o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarga bo'linadi.

a) Umumiy. Bunda insonning yutuqlari u olib borayotgan faoliyat va muloqotning turli xil ko'rinishlarida aniqlanadi (aqliy qobiliyatlar, rivojlangan xotira va nutq, qo'llarning aniq va mohirlik bilan harakati va boshq.). Ikkinchisi esa maxsus. Bunda insonning yutuqlari u olib borayotgan faoliyat va muloqotning alohida ko'rinishlarida aniqlanadi. Demak, bu yerda alohida qobiliyat nishonalari va ularni rivojlantirish muhimdir (matematik, texnik, adabiy-lingvistik, tasviriy-ijodiy, sport va boshqa qibiliyatlar). Ushbu qibiliyatlar, odatda, bir-birini to'ldirib, boyitib borishi mumkin. Lekin ularning har biri o'zining tuzilmasiga egadir.

b) Nazariy qibiliyatlar.

c) Ilmiy qibiliyatlar.

d) Muloqotga, ya'ni insonlar bilan o'zaro aloqaga kirishishga bo'lgan qobiliyat.

Talabalar namoyish etilgan akmeogramma namunasi asosida o'z akmeogrammalarini tuzishga harakat qiladilar. Bir nechta akmeogrammalar eshitiladi va talabalar bilan pedagogning yordamida muhokama etiladi.

Keyingi bosqichda tuzib olingen talabalarining akmeogrammasi Mirzo Ulug'bek akmeogrammasi bilan taqqoslanadi.

Namuna. Ko'pgina ko'rinishdagi faoliyat va muloqotlarga qobiliyatli, iqtidorga ega bo'lgan insonlar qiyalmay jarayonga kirishib ketadilar.

Umuman olganda, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida millatimiz, xalqimiz ruhiyati, mentalitetida ham tub islohotlar o'tkazish hamda an'anaviy tushuncha va tasavvurlarimizni zamon talablari asosida yangilashimiz lozimligi zarurat bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarning asosiy

takomillashuv mexanizmi – raqobatdir. Albatta, ilmlarning yuzaga kelishi va ular asosida dunyo tan olgan allomalarning yetishib chiqishi – davr ijtimoiy muhiti va ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liqdir. Ushbu ma’noda, biron xalq misolida tarixiy va madaniy negizlarni akmeogrammik tahlil etish haqiqiy tafakkur bulog‘idir.

Shunday ekan, biz ayrim allomalarning ijod nuqtasiga erishish bosqichlariga nazar tashlaymiz.


Ulug‘bek (Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Kuragon). Falakiyat ilmining sultoni va ilmlar homiysi, buyuk sarkarda, Amir Temurning nevarasi. Yoshligidan asosan matematika, falakiyat ilmiga chanqoqligi va zukkoligi bilan ajralib turardi. Mukammal bilimlarni u o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan matematik va astronomlari Jamshid G‘iyosaddin al-Koshi va Qozi-zoda ar-Rumiyning boy kutubxonasida egalladi. Bilimlarini ommaga targ‘ib etish maqsadida u madrasalar qurdirib, ma’ruzalar o‘gidi.

Ayniqsa, *Ulug‘bek tomonidan 1428–1429-yillarda qurdirligani observatoriya tarixiy merosimizning go‘zal namunasi sifatida hozirgi kungacha qadrlanib kelinadi.*

Pedagog ushbu observatoriya chizmasini kompyuterdan PowerPoint slaydi ko‘rinishida namoyish etadi.

Observatoriyaning mukammal qurilma ekanligidan dalolat beruvchi ayrim dalillar bizni hayratlantirmay qolmaydi. Uning diametri aylanasiga uch qavatli koshinga ega bo‘lib, 46 metrdan oshiqroq, balandligi esa 30 metrlarga yaqin hayratlanarli darajada o‘lchov aniqligiga ega bo‘lgan. Oy, Quyosh va boshqa koinot jismlarini kuzatish uchun yasalgan ulkan qurilma bugungi kungacha jahon astronomlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Allomaning yana bir mukammal asari «Ziji Guragoniy»dir. Bu asarda 1018 yulduzning aniq koordinatlari jamlangan. Bu asarlarning mukammal qo‘lyozma asari ekanligiga shubha yo‘qki, hozirgi kunda G‘arb va Sharq, shu jumladan, Hindiston va Xitoyda undan mukammal qo‘llanma sifatida foydalanib kelinayotir.

4.2.2-slayd.



Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosida ajdodlar ibtidosi, madaniyatimizda chuqur iz qoldirgan buyuk insonlar, ularning akmeogrammalarini o'rganish ehtiyoji mavjud. Bu buyuk zotlarning o'sib ulg'ayishi va mukammallahuvi, o'z kasbi tomon intilishi jarayoni, qanday qilib olamshumul yangiliklar yaratganliklari va ko'plab insonlarga o'z ta'sirini o'tkaza olganliklari barchani qiziqtirsa kerak. Shubhasiz, bunday savollarga javob olish asosida har bir o'quvchi uchun hayot matabining ochilishi turgan gap. Natijada, o'tmishdagi ajdodlarimiz bosib o'tgan yo'lni, ular erishgan cho'qqilarni, qanday qilib komil inson bo'lib mukammallik cho'qqisiga erishganliklari hamda ularning ishlari amalda qay tarzda bunyod bo'lganligini yaxshiroq anglaymiz. Bu esa,

o‘z navbatida, bugungi kun nuqtayi nazaridan istiqbolimiz yo‘nalishini ham belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari «Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda», deb bejiz aytmaganlar.

Namuna. *Al-Xorazmiy akmeogrammasini tarixan o‘rganish juda murakkab ish bo‘lsa-da, bu vazifani ma’lum fan yo‘nalishlari doirasida tahlil qilib ko‘rish mumkin.*

Avvalambor, barcha fanlarning asosi falsafani ko‘rsak, Xorazmiy falsafasi asosida tabiatni anglashga, o‘rab turgan voqelikni empirik (tajriba) yo‘li bilan anglash g‘oyasi yotadi. Bunday bilish jarayoniga asoslangan ilmiy-tadqiqot faoliyati tabiiy-ilmiy fanlarni rivojlantirishga qaratilgan edi. Tajriba, ya’ni induktiv yondashuv bilan tabiatni o‘rganish, tabiiy fanlar, xususan, astronomiya, matematikaga oid katta nazariy muammolarni qo‘yish, tabiiy-ilmiy yangiliklar yaratishning muhim omiliga aylandi. Xorazmiy falsafasini olimning astronomiya va matematika sohasidagi faoliyati orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin. U o‘zining «Astronomik jadvallar» degan tadqiqot natijalarini nashr etdi. O‘scha davrda arablar ilmiy astronomiya bilan VIII asrning oxirida tanishgan edilar. 773-yili Bog‘dodga mashhur astronom olimlardan biri Hindistondan keladi va yulduzlar haqidagi fan kitobining matnlarini «Donolar uyi»ga beradi.

Ushbu asarning arab tiliga tarjima qilinishi arab astronomiyasiga asos soldi. Bu asar Xorazmiy tomonidan tahrir qilindi va ushbu kitobga keng kirish so‘zi yozildi. Xorazmiyning «Astronomik jadvallari» 1126-yili lotinchaga o‘giriladi. Ushbu kitob Nyuton va Bertelga qadar butun Yevropada asosiy darslik bo‘lib qoladi. Xorazmiy Yer sharining meridianini o‘lchash ishlariiga rahbarlik qiladi. Natijada meridianning uzunligi 111815 metrga teng deb hisoblaniladi. Zamonaviy hisoblar bo‘yicha esa bu ko‘rsatkich 110938 metrga teng ekanligi ma’lum. Bu degani Xorazmiyning hisoblari 1% dan ham kam xatolikka ega bo‘lgan. Bu o‘z davrining eng aniq o‘lchovidir. Xorazmiy haqiqiy ustoz hamda o‘z vatanining sodiq farzandi sifatida Markaziy Osiyodan kelgan Al-Farg‘oniy, Al-Marvaziy, Al-Dikuxari va boshqalarning ilmiy izlanishlariga rahbarlik qilgan.

Al-Xorazmiy (Abu Jafar Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy) milodning 780-yili Xiva shahrida tavallud topgan. O'qish va yozishni yoshlikdanoq axloq-odobga, ilmga chanqoqlik ruhida diniy maktabda o'rgangan. Natijada, tez orada ilm-fanning muammoli masalalarini anglab yetishda, tushunishda o'z o'qituvchilaridan o'zib ketgan. Bo'lajak olim faqat maktab dasturidagi fanlar bilan cheklanmasdan, tabiat qonunlari, hisob-kitob qoidalari, chet tillar bilan ham jiddiy shug'ullangan. Al-Xorazmiy o'smirlik chog'idanoq Markaziy Osiyoning ko'plab shaharlarida bo'lib, o'z bilim xazinasini geografiya, tarix, astronomiya va boshqa fanlar bilan boyitadi.

Al-Xorazmiy o'smirlik chog'ida xorazm tilidan tashqari forsiy, hindlarning qadimgi adabiy tili – sanskritni ham o'rghanadi. Xorazm tilini mukammal egallaganligi uni qadimiy turk tilini o'zlashtirishiga yordam beradi. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, yosh yigitcha Muhammad qadimgi yahudiy – ivrit tilini ham yaxshi bilgan ekan.

Ilm-fanga bo'lgan ulkan intiluvchanlik Muhammad al-Xorazmiyni yigirma yoshida o'sha davrning mashhur shahri Bog'dodga yetaklab keladi. Bog'dodda mehnatsevar, tirishqoq, sobitqadam, o'z tamoyillariga ega va iste'dodli Xorazmiy o'z ustida ishlaydi, bilimlarini mukammallashtiradi, ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanadi. Mana shu davrda qadimgi yunon tili – Yevklid, Arximed, Aristotellar tilini mustahkam o'rghanadi. Bog'doddagi «Donolar uyi»da to'plangan kitoblar ustida ishlab, yunon va hindlarning ilmiy, amaliy meroslarini o'zlashtiradi.

Buyuk riyozatchi, matematik, geograf, astronom, tarixshunos, tabib bo'lib shakllangan Xorazniy tez orada O'rta Sharqning yetakchi olimi bo'lib yetishadi. Endilikda 35 yoshli Xorazniyga kutubxonani, rasadxonani, ilmiy-tadqiqot ishlarini, turli kitoblar yaratishni boshqarish ishlarini topshiriladi. Bunday mas'uliyatdagi shaxs, hozirgi zamonga nisbatan, deyarli fanlar akademiyasi prezidentiga qiyoslanishi mumkin.

Xorazmiyning matematikaga oid ishlari uni jahonshumul sharafga burkadi. Buyuk ustozning «Hind usuli bo'yicha qo'shish

va ayirish» va «Al-jabr va val-muqobala hisobining qisqacha kursi» kabi kitoblari bizgacha yetib kelgan. Birinchi kitob arifmetikaga, ikkinchi kitob esa algebraga bag‘ishlangan. 1150-yilda Xorazmiyning arifmetikaga oid traktati lotin tiliga o‘girildi. Shu yilgi va undan so‘nggi tarjima va nashrlardagi kitoblar: «Al-Xorazmiy dediki...» deb boshlanar edi. Bunday iboraning qo‘llanishi ushbu shaxsning naqadar ardoqlanib tan olinganligidan dalolat berardi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, algebra ilmining asoschisi Al-Xorazmiy uyg‘onish davrida yashab, ijod qilgan. Fan olamidagi eng ulkan yutuqlaridan biri –allomaning algebraning mukammal tavsifi joy olgan «Al-jabr val-muqobala» risolasidir. Uning afzal tomoni shundaki, alloma hisob-kitob haqidagi asarda birorta ham son ishlatmay, balki unga so‘z va tafakkur charxini asos qilib oladi.

Mashhur nemis matematigi German Gankel (1839–1873) tarixiy tahlil asosida Xorazmiy kitobiga yaqin namuna na hindlarda, na yunonlarda bo‘limganligini isbotlab berdi. Xorazmiyning buyukligini ifodalovchi asar «Al-jabr va val-muqobala» kitobi hisoblanadi. Hozirda butun jahonda ishlatilayotgan «algoritm» so‘zi Al-Xorazmiy nomining lotinchada talaffuz qilinishidan olingan.

Namuna. Alisher Navoiyning akmeogramasida quyidagi ma’lmotlarni kuzatish mumkin. U XV asrda madaniy-siyosiy markaz hisoblangan Hirot shahrida ziyoli oilada tavallud topdi. Yoshligidan Abdurahmon Jomiy, Lutfiy kabi taniqli shoirlar majlisidan bahramand bo‘lgan yosh Alisher 1483-yilda o‘zining «Ilk Devon» va 5 kitobdan iborat bo‘lgan durdona asari «Xamsa»ni yaratdi. O‘z sohasida mukammallik bobida Mirzo Ulug‘bekdan qolishmagan holda, alloma tilning go‘zal sayqal topib, ma’lum me’yorlar asosida nazm va nasrda bayon etilishiga o‘zining hissasini qo‘shti va g‘azal mulkining sultonni degan haqli nomga ega bo‘ldi. Darhaqiqat, Yurtboshimiz Islom Karimov hazrat Alisher Navoiy haqida: «Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirkarning mutafakkiri, shoir desak,

shoirlarning sultonidir»¹, degan e'tiroflari Hazrat Navoiyni har qanday yetuklik cho'qqisi egasi – ulug' akmeshaxs ekanliklarining yana bir isbotdir.

Tabobatda erishgan yutuqlari uchun haqli ravishda G'arbda Avitsenna nomiga musharraf bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning akmeogrammasi yanada qiziqarliroq. Buyuk alloma, faylasuf, tabib va shoir Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida Somoniylar sulolasi xizmatidagi, o'z zamonining ziyoli oilasida tavallud topdi. Yoshligidanoq bilimga chanqoqligi uni ota-onasining Buxorodagi olimu-fuzalolardan eng yaxshi bilimlarni olishini ta'minlashlariga undadi. 17 yoshga to'lgan Ibn Sino olim maqomiga ega bo'lib, tabobat amaliyotlari bilan shug'ullana boshlagan edi.

Allomaning buyukligi haqida turli afsonalar mavjud. Afsonaga ko'ra, Ibn Sino keksalik chog'ida o'likka ham jon ato etuvchi 40 ta dori tayyorlagan ekan. U o'quvchilaridan birining sodiqligiga ishongan holda, undan o'zining o'limidan so'ng, ushbu dorilarni ma'lum tartib asosida qo'llab, tiriltirishini so'raydi. Tez orada Ibn Sino olamdan ko'z yumadi. Shogird ahdiga sodiqligi tufayli, 40 ta dorini birin-ketin o'lik tanaga qo'llay boshlaydi. Tana esa kundan-kunga yashnab, yasharib va yangilanib boraveradi. Shogird oxirgi dorini qo'llash uchun o'lik tana ustiga borganda, u hozir uyg'onib ketadigan yosh, navqiron yigitdek misoli uxbab yotgan vujudni ko'rib, qattiq hayajondan idishni qo'lidan yerga tushirib yuboradi va dori to'kilib ketadi... Albatta, bu bir afsona, ammo shu afsona asosida shunday bir haqiqat borki, u hozirgi kunda ham dunyo tibbiyot ilmi ahlini hayratga solib kelmoqda. Bu uning XVII asrda Sharq va G'arbda yagona eng mukammal yaratilgan tibbiyotga oid asar «Al-Qonun fi-t-tibb» («Tib qonunlari») va 1300 she'riy misralarda tibbiyotning sirlari soddagina bayon etilgan» Urjuza fi-t-tibb»dir.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. –47-b.

Hozirgi kunda esa bu kabi akme-insonlarning shakllanishlarida har bir yilning alohida nomlanishi, har bir yil davlat dasturining ishlab chiqilishi mamlakatimizdagi iqtidorli va salohiyatli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu boisdan ham, mamlakatimiz o'z istiqlolini qo'lga kiritgach, sport, fan, ta'lim, san'at, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda yoshlarni yuksak cho'qqilarga erishmoqdalar. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari zamonamiz yoshlaringin tarixiy xotirasini jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakkantirgan holda axloqiy tarbiya va ibrat matabiga aylanmoqdadir.

Masalan, jurnalistika sohasida «Oltin qalam», san'at sohasida «Nihol», yosh ijodkor xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Zulfiya», kashfiyotlar bo'yicha «Kelajak ovozi» mukofotlarining joriy etilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Sport sohasida ham yuksak cho'qqilarga erishayotgan yoshlarimiz mamlakat faxriga aylanib bormoqdalar. Jumladan, shaxmat bo'yicha Rustam Qosimjonov, milliy kurash bo'yicha Abdulla Tangriyev, tennis bo'yicha Iroda To'laganova sport sohasida jahon championi darajalariga erishdilar. Bu, albatta, avvalo, tinimsiz mehnat, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy muhitning ta'sirida amalga oshirilgan. Zero, akme cho'qqisi faqat sog'lom turmush tarzi orqali amalga oshiriladi.

Biz tadqiqotlar davomida shaxsning ana shunday ko'nikma va qobiliyatlar tizimini aniqlab, intilishlarini hisobga olgan holda yaqin, o'rta va uzoq kelajakdagi yo'nalishlari qonuniyatlarini akmeogrammik tahlil asosida aniqlanishini bildik.

Akmeogramma professional faoliyatning atroflichcha tavslifini va u tomondan insonning individual-psixologik va psixofiziologik xususiyatlariiga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi. Bolalar va yoshlarda ularning iqtidor va qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish bo'yicha real sharoitlarni yaratish akmeologik muhitdan darak bersa, ushbu yoshlarni topish, iste'dodlarini aniqlash va ularni rivojlantirish asosida yuqori pog'onalarga erishuvini ta'minlash bir-biridan ajralmas, bir butun yaxlit tizim sifatida qaralmoqda.

Akmeogrammani aniq, to'g'ri va xolisona to'ldirish ekspert yoki akmeolog tomonidan maqbul va ishonchli natijaning olinishi kafilidir.

Umuman olganda, yuqorida bildirilgan mezonlar kasb ega-sining akmeogrammasini umumlashtirish va aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. **Kasb egalarining akmeogrammasi** – uning mehnatining barcha jihatlari va tomonlari (kasbiy faoliyat, har kungi munosabat, shaxsiy rivojlanish va mehnatning umumiy natijasi) hamda bundan kelib chiqib, mutaxassisning individual-psixologik va psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni tavsiflaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shaxsning qiziqishlari, xohishi va xobbisi hamda ularning ma'lum bir sohaga intilishlarini aniq-lashning akmeografik ehtiyoji so'nggi yillarda ahamiyatli bo'lib bormoqda. Shu bois, ishonch bilan ta'kidlaymizki, hozirda yetuk shaxs va mahorat egalarini shakllantirishda akmeologik bilimlar ham o'zining munosib o'rniga ega bo'lib bormoqda.

So'z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida akmeogramma – shaxsni o'rganishga akmeogrammik yondashuvning asosiy metodi va u progressiv rivojlanish, professionalizm va muayyan mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadigan asosiy metod ekanligi; akmeogramma har bir shaxs uchun individual bo'lishi; akmeogramma – professiogramma va psixogrammaga nisbatan umumlashtiruvchi kategoriya bo'lib hisoblanishi; akmeogramma insonning individual-ruhiy va psixofiziologik o'ziga xos xususiyati va kasbiy faoliyatini kompleks tarzda tavsiflash bo'lib, buyuk zotlarning o'sib-ulg'ayishi va mukammallashuvi, o'z kasbi tomon intilishi jarayoni, qanday qilib olamshumul yangiliklar yaratganliklari va liderlik qobiliyatlarini o'rganishda qo'llanilishi; akmeogrammaning shaxs «akme»siga nisbatan tasnifiy bahosi: tabiiy qibiliyatlar, insonning maxsus, o'ziga xos qobiliyatları, umumiy nazariy qobiliyatlar, ilmiy qobiliyatlar, muloqotga, ya'ni

insonlar bilan o'zaro aloqaga kirishishga bo'lgan qobiliyat haqidagi gapirdik. Siz bugungi konspektlar va qo'shimcha tavsija etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o'zlashtirishingiz lozim.

**Shu bilan, navbatdagi amaliy o'quv mashg'ulotimiz tugadi,
yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!**

4.3. «Test akmeshaxsnинг akmeogrammik xaritasini tuzishning asosiy vositasi sifatida» mikro-moduli amaliy mashg'uloti loyihasi

Amaliy mashg'ulot nazariy mashg'ulotga nisbatan, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritib, aytib va ko'rsatib berish yo'li bilan amalga oshganligi sababli, pedagog ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqarib turishi munosabati bilan, bu jarayonni loyihalashda faqat o'quv mashg'ulotini modullarga ajratib, ularning maqsadlarini, ularga ajratilgan vaqt va qo'llaniladigan o'quv mashg'uloti tipi va pedagogik usullarini hamda nazorat savollarini ifoda etuvchi jadvallar tuzib olinadi.

4.3.1-jadval

«Test akmeshaxsnинг akmeogrammik xaritasini tuzishning asosiy vositasi sifatida» mikro-modulining tarkibidagi mikro-modularning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish harakatlar
1.	Test shaxsga akmeografik yondashuvning asosiy metodi sifatida	20 daqiqa	Yozish
2.	Kasb tanlash motivatsiyasini aniqlash testi	20 daqiqa	Yozish va savollarga javob berish

3.	Test o'tkazish metodikasini o'zlashtirish	20 daqiqa	Shaxsiy akmeogrammalarini tuzish
4.	Shaxs akmeologik moyilligini aniqlashda testning o'rni	20 daqiqa	Munozara
5.	Talabalarni baholash	10 daqiqa	Savol-javoblar va mavzuni mustahkamlash

4.3.2-jadval

«Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi	Qo'llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Amaliy mashg'ulot»	«O'qish va yozish»
2.	«Yangi bilimlarni mustahkamlash»	«O'qish va yozish», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni mustahkamlash»	«O'qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

4.3.3-jadval

«Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo'llaniladigan savollar

T/r	Nazorat savollari
1.	Test shaxsga akmeografik yondashuvning asosiy metodi ekanligini asoslab bering.
2.	Kasb tanlash motivatsiyasini aniqlash testiga misol keltiring.
3.	Test o'tkazish metodikasini o'zlashtirishda nimalarga e'tibor berish muhim?
4.	Shaxs akmeologik moyilligini aniqlashda testning o'rni qanday ahamiyat kasb etadi?

Endi ushbu mashg‘ulot ssenariysini keltiramiz.

Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usulini qo‘llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o‘quv mashg‘ulotini quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Bugungi amaliy mashg‘ulotimizning mavzusi: «**Test shaxs akmeogrammik xaritasini tuzishning asosiy vositasi sifatida**» deb nomlanadi.

Iltimos, yozing. *Test – inglizcha so‘z bo‘lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqiliy o‘sishi, qobiliyati, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar majmuyidir.*

Test, ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligi, kasbga yaroqli yoki yaroqsizligi, shaxsning intellektual qobiliyati va aqlini aniqlash, kishilarni faoliyat turi bo‘yicha saralashda keng qo‘llaniladi.

Test metodining afzalligi shundaki, tajribaning ilmiy darajasi tekshiruvchining mahorati va qiziqishi, yig‘ilgan psixologik ma‘lumotlarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishiga bog‘liqdir.

Pedagog: Endi ruchkalaringizni qo‘ying, biz siz bilan ana shunday testlardan biri bo‘lgan «**Kasb tanlash motivatsiyasini aniqlash**»ni ko‘rib chiqamiz. Buni yozib olish shart emas, men sizlarga bu testni tarqatma materiallari ko‘rinishida tayyorlab kelganman. Har biringizga bu testlarni beraman. Marhamat.

Pedagog ushbu testni kompyuterdan PowerPoint slaydi ko‘rinishida namoyish etadi.

Kasb tanlash motivatsiyasini aniqlash, 4.3.1-slayd

Ko'rsatma: quyida har qanday kasbni tavsiflove.
keltirilgan. Uzarni diqqat bilan o'qib chiqing va ular
hozirgi o'zingiz tanlagan kasbingizga qay darajada
etganligini baholang. O'z javoblariningizni tegishli katakchaga
belgisini qo'yish bilan belgilang.

O'zingiz yoqtirgan kasb, mutaxassislikni yozing

T/r	Tasdiqlar	Juda kuchli	Kuchli	O'rtacha	Mutlaqo ta'sir qilmagan
I.	Turli xil odamlar bilan mulqotda bo'lishni talab qiladi.				
	Ota-onamga yoqadi.				
	Katta mas'uliyat his- ini talab qiladi.				
	Engi yashash joyiga chib o'tish imkonini beradi.				
	Qobiliyatla- os keladi.				
	bor bo'lgan mlar, jihoz- kifoyala- beradi.				
	la kel- i be-				
	ri- i				

1.	nanga FLASH beradi.	.q ~ to 'lana- yaqin joyda imkoniyatini
12.	Obro'li hisoblanadi. Kasb mahoratini o's- tirish uchun imkon beradi.	
13.	Hozirgi mayjud sha- roitda yagona mumkin bo'lgan shu.	
14.	Rahbarlik ishiga qobi- liyatilikni namoyon qilish imkoniyatini beradi.	
15.	Qiziqarli, o'ziga jalb qiladigan.	yoqtirgan
16.	Maktabda fanim.	o'retoqlarim
17.	Mening tanlashgan.	
18.	Ijodkorlikni namoyon qilishga katta imko- niyatlar beradi.	uchun
19.	Boshqalar mehnatning natijalarga tezda eri- shish beradi.	yaxshi imkoniyatini
20.	Ishdan tashqari vaqtda ham kasbiy malaka- lardan foydalanish im- koniyatini beradi.	

Natijalarini baholash

Javoblar quyidagicha baholanadi: juda kuchli – 5, kuchli – 4, o'rtacha – 3, kuchsiz – 2, mulaqo ta'sir qilmagan – 1.

1, 5, 8, 15, 20 – tasdiqlar «I» – ichki individual ahamiyatga ega bo'lgan motivlar.

3, 7, 12, 14, 17 – tasdiqlar «S» – ichki ijtimoiy-ahamiyatli motivlar.

2, 6, 11, 13, 18 – tasdiqlar «+» – tashqi ijobjiy motivlar.

4, 9, 10, 16, 19 – tasdiqlar «-» – tashqi salbiy motivlar.

Qaysi motiv bo'yicha umumiy ballar yig'indisi eng ko'p bo'lsa, bu sinaluvchida shu motivatsiyaning kuchliliginini bildiradi.

Pedagog: Iltimos, yozib oling. Bu testning yosh avlod uchun ahamiyati shundan iboratki, ularning o'z qobiliyatlarini, imkoniyatlari va qiziqishlari doirasida mos kasbni tanlash imkoniyatini beradi. Bu jarayonda yoshlarning «akmeologik moyillik» sifatlari rivojlantira boriladi.

Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, hattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatalaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs imkoniyatlarini aniqlash testlari shular jumlasidandir. Test so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya-ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi. Test topshiriq odam xulqi va holatini amalgalashgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi.

Test natijasida olingen ma'lumotlar shaxsnинг psixobiografiyasini tuzish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

*Masalan, shaxs tafakkuridagi kreaktivlilikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandard, ijodiy va kreaktivligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatkich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiyligi afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi – ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinlidir. Testlar ichida **proyektiv testlar** deb nomlanuvchi testlar ham borki, uning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi.*

Ya'ni tekshiriluvchi topshiriqnı bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, *mashhur Rorshaxning «siyoh dog'lari» testi*, yoki *TAT (tematik appersepsion test)*, *tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda bir narsaning proyeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi*. 1921-yilda *kashf etilgan «siyoh dog'lari»* va *ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, «dog'lari» nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotsiyonal holatlari aniqlanadi*. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixolog qo'llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

Ushbu metod turli yoshdagi (chaqaloqlik, bolalik, o'quvchilik, o'spirinlik, yetuklik, keksalik davridagi) odamlar psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhim hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarни shakllantirish, nutq o'sishini tekshirish, favqulotdagи holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish, bilish jarayonlari, shaxsning his tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rGANILADI. Xullas, inson psixikasining nozik ichki bog'la-

nishlari, munosabatlari, qonuniyatları, qonunları, xossalari, murakkab mexanizmlari tajriba yordamida tekshiriladi. Buning uchun eksperiment material tekshiruvchi tomonidan sinchkovlik bilan tanlanishi, obyektiv tarzda har xil holat va vaziyatlar yaratilishi, sinaluvchi yoshiga, aql-idroki, xarakter xususiyati, his-tuyg'usi, qiziqish va saviyasi, turmush tajribasi, ko'nikma va malakasiga e'tibor berish lozim.

So'z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida shaxsning aqliy o'sishi, qobiliyati, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar majmuvi; «Kasb tanlash motivatsiyasini aniqlash» testi; testlar yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkinligi; Ravenning aqliy intellektni o'Ihash, Kettel va Ayzenknning shaxs imkoniyatlarini aniqlash testlari; test natijasida olingan ma'lumotlar shaxsning nafaqat psixobiografiyasi, balki kasbiy layoqat xaritasini tuzish uchun manba bo'lib xizmat qilishi; proyektiv testlar haqida gapirdik. Siz bugungi konspektlar va qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o'zlashtirishingiz lozim.

Shu bilan, navbatdagi amaliy o'quv mashg'ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

V. «TARIXIY TAFAKKURDA AKMESHAXS RIVOJINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV OMILLARI HAQIDA MAVJUD NAZARIYALAR HAMDA YUksak YUTUQLARGA ERISHISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI» MEZO-MODULINING LOYIHASI

Pedagog: Birinchi navbatda, «Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari» mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlarni belgilaydi (5.1-jadval).

Ikkinchidan, ushbu mezo-modul mazmunidan kelib chiqadigan tayanch tushunchalarni ajratib, shular asosida nazorat sa vollari tuzib, ularni baholash mezonlarini belgilaydi (5.2-jadval).

Uchinchidan, ushbu mezo-modul tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotining tiplari hamda pedagogik uslublar tanlanib joylarini belgilaydi (5.3-jadval).

To'rtinchidan, ushbu mezo-modul tarkibidagi har bir mikro-modullarda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiya va didaktik materiallarning qo'llanish turi va joyini ko'rsatadi (5.4-jadval).

Beshinchidan, ushbu mezo-modul uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatini ko'rsatadi (5.5-jadval).

Quyida mazkur jadvallarni keltiramiz.

«Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari» mezo-moduli tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

Mezo-modulning nomi	Mikro-modular, ularning tartib raqamlari, mashg'ulot turi va mavzuning nomi	Mikro-modular yakunida erishiladigan maqsadlar
5. Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari	5.1. Nazariy mashg'ulot. Markaziy Osiyo va G'arb mutafakkirlarining qarashlarida insonning ijtimoiy-axloqiy kamoloti, yetuklik g'oyalari va akmeologik nazariyalar	Markaziy Osiyo mutafakkirlari Kaykovus, Nizomulmulk, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylarning asarlarlarida insondagi kasb-hunar fazilati tug'ma emasligi haqidagi g'oyalari. G'arb tarixiy tafakkurida akmeologik nazariyalar. Frenolog olimlar – Iogann Kasar Lavater, Frans Iosif Gall, Georg Kombe, Chezare Lombroz asarlarida insonning oliv va tuban nuqtalari haqidagi g'oyalari. Zamonaviy psixolog, pedagog va faylasuf olimlar tomonidan akmeformni o'rGANISH va tahlil qilish, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratish yangicha shaklining ilgari surilishi.

	<p>5.2. Amaliy mashg‘ulot. Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o‘rnı</p>	Oila kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm ekanligi. Qadimdan jamiyat taraqqiyotining sifati va salmog‘i oilalardagi holat bilan belgilanganligi. Inson ma’naviyatining birinchi poydevori oilada shakllanishi, oila ijtimoiy muhitining barkamol inson tarbiyasidagi o‘rnı, oila muhitini sog‘lomlashtirishning vosita va uslublari.
	<p>5.3. Nazariy mashg‘ulot. Ijtimoiy-axloqiy muhit, akmeshaxs shakllanishining asosiy omili sifatida</p>	<p>Barkamol avlodning jamiyat taraqqiyotidagi faolligini oshira borishda sog‘lom ijtimoiy muhit va tarbiya jarayonlari bog‘liqligining ijtimoiy-falsafiy tahlil etilishi.</p> <p>Akmeologiyaning obyekti – akmeshaxsnı shakllantirish muhim axloqiy muammo ekanligi, ijtimoiy-axloqiy muhit – akmeshaxs shakllanishining asosiy omili ekanligini ilmiy asoslash. Axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis – akmeshaxs jamiyatni ijtimoiy- iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy kuchi ekanligi, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis – akmeshaxsnı shakllantirishning ayrim axloqiy muammolarini ko‘rsatish, O‘zbekiston yoshlarini akmeshaxs sifatida shakllantirishning milliy xususiyatlari va istiqbolalarini bashoratlash.</p>

«Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari» mezo-moduli tarkibidagi tayanch tushunchalar va shular asosida tuzilgan nazorat savollari

Mezo-modul tarkibidagi tayanch tushunchalar	Nazorat savollari
Eksperimental akmeologiya, akmeshaxs, komil inson, vorisilik, oilaviy tarbiya, inson kamoloti, aql-zakovat,adolat, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, ommaviy madaniyat, ijtimoiy muhit, bag'rikenglik, vatanparvarlik, ideal, milliy va umuminsoniy qadriyatlar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida insonning ijtimoiy-axloqiy kamoloti qanday kategoriyalar bilan ochib berilgan? 2. G'arb tadqiqotchilarining akmeologik nazariyalari xilma-xilligini asoslang. 3. B.G.Ananyev eksperimental akmeologik nazariyasi haqida nimalarni bilasiz? 4. Abu Rayhon Beruniy va Chezare Lombrozning tug'ma qobiliyatlar haqidagi nazariyalarini sharhlab bering. 5. Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o'rni qanday deb o'ylaysiz? 6. Ijtimoiy-axloqiy muhit akmeshaxs shakllanishida qanday o'rin tutadi? 7. Ideal va ma'naviy-axloqiy muhit nima? Ularning akmeshaxs taraqqiyotida tutgan o'rnini ko'rsating.

Baholash turi: savol-javob. Bunda biz 5.2-jadvalda berilgan savollardan samarali foydalandik. Amaliy mashg'ulotlarda esa nafaqat biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan savollar, balki talabalarning o'zaro savol-javoblari ham nazarda tutiladi.

5.3-jadval

«Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari» mezo-moduli o'quv mashg'ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o'quv mashg'ulotining tipi	Qo'llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O'qish va yozish»
2.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O'qish va yozish», «Bumerang»
3.	«Yangi bilimlarni egallash»	«O'qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Guruhlarga bo'linib ishlash»

5.4-jadval

«Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari» mezo-modulida qo'llaniladigan axborot texnologiyasi va didaktik materiallar

T/r	Axborot texnologiyalari	Didaktik materiallar
1.	Yozuv doskasi	Ma'ruza matni
2.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
3.	Kompyuter, yozuv doskasi	Plakat, tarqatma material
4.	Tarqatma materiallari	Savol-javob

Uchinchi vazifa. «Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari» mezo-moduli loyihasi tuzib olindi. Unda barcha mikro-modullar va ularda beriladigan bilimlar tizimi, ularni ta'lif oluvchilarga

yetkazishda qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotlari tipi hamda pedagogik uslublar, axborot texnologiyasi va didaktik materiallar o'z ifodasini topdi.

«**Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari**» mezo-moduli uchun 5.5-jadvaldagi adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.

Pedagog o'quv mashg'uloti davomida talabalarning amal qilishlari lozim bo'lgan qoidalarni kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi.

5.5-jadval

«**Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari**» mezo-moduli uchun foydalananish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati

T/r	Adabiyotlar ro'yxati
1.	<i>Karimov I.A.</i> O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011.
2.	<i>Abdullayeva M.N., Abdurashidov M., Abilov O'.</i> va boshq. Falsafa: izohli lug'at. – T.: Falsafa va huquq instituti noshirlik bo'limi, 2008.
3.	Акмеологический словарь. / Под общ. ред. А.А.Деркача. – М.: Изд-во РАГС, 2004. – С. 161.
4.	Акмеология: Учебное пособие / А.Деркач, В.Зазыкин. – С-Пб.: «Питер», 2003. – С. 256.
5.	<i>Бодалев А.А., Васина Н.В.</i> Акмеология. Настоящий человек. Каков он и как им становится? – С-Пб: «Речь», 2010.
6.	<i>Davronov Z.D.</i> Ilmiy ijod metodologiyasi. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2007.
7.	<i>Davronov Z.D., Sharifxodjaev M.</i> Ma'naviyat asoslari. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2005.

8.	<i>Derkaç A.A.</i> Акмеология: личности и профессиональные развитие человека: Методолого-прикладные основы акмеологического исследования. — М., 2000.
9.	<i>Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh.</i> Pedagogika. — Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
10.	<i>Ziyomuhamedov B.</i> Komillikkha eltuvchi kitob. — Т.: «Turon-Iqbol», 2006.
11.	«Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog‘lom turmush tarzining o‘rnini» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2008-yil, 30-may). // Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008.
12.	<i>Karimova V.M.</i> Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. — Т., 2000.
13.	<i>Ломброзо Ч.</i> Гениальность и помешательство. Пер. с итальянского. — Ростов на-Дону: Изд-во «Феникс», 1997.
14.	<i>Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at.</i> — Т.: «Sharq», 1998.
15.	<i>Немов Р.С.</i> Психология. Кн. I. — М., 1998.
16.	Психология. Под ред. А.А. Крылова. — М., 1998.
17.	<i>To‘rayev B.O.</i> Hozirgi zamon tabiatshunosligi konsepsiyalari. — Т.: O‘zMU nashriyoti, 2007.
18.	<i>Tillayeva G.H.</i> Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. — Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009.
19.	<i>Tillayeva G.H.</i> Akmeologiyaning ijtimoiy-axloqiy muammolari. — Т.: «Falsafa va huquq», 2012.
20.	<i>Shayxova X.O.</i> Ma’naviyat — kamolot ko‘zgusi. Saylanma. — Т.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009.
21.	<i>G’oziyev E.G.</i> Umumiy psixologiya. 1–2-kitob. — Т., 2002.

Endi «**Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari**» mezo-moduli tarkibidagi mikro-modullar asosida tuzilgan mashg‘ulot loyihalarini keltiramiz.

5.1. «Markaziy Osiyo va G‘arb mutafakkirlarining qarashlarida insonning ijtimoiy-axloqiy kamoloti, yetuklik g‘oyalari va akmeologik nazariyalar» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usulini qo‘llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o‘quv mashg‘ulotini quyidagicha boshlaydi:

Bugungi «Markaziy Osiyo va G‘arb mutafakkirlarining qarashlarida insonning ijtimoiy-axloqiy kamoloti, yetuklik g‘oyalari va akmeologik nazariyalar» mavzusidagi nazariy mashg‘ulotimizda yangi bilimlar o‘zlashtirilishi sababli biroz yozishga to‘g‘ri keladi. Shu bois, daftar, ruchkalariningizni hozirlab, darsga tayyorgarlik ko‘ring.

Hurmatli talabalar, bugungi mashg‘ulotimiz nazariy bo‘lganligi bois, biroz yozishingizga to‘g‘ri keladi. Marhamat, daftarlaringizni ochib yozing!

Izoh. Loyihada kursiv bilan belgilangan barcha yozilgan gaplar ta’lim oluvchilar mo‘ljallangan bo‘lib, konsept dafstarlari yozish uchun tavsiya etiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlaridagi akmeologik g‘oyalarning asosiy mohiyati, axloqiy kamolot va mukammallik haqidagi g‘oyalari ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot, falsafa, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qo‘shilgan katta hissa bo‘lib, asrlar mobaynida avlodlarimizni o‘zining sermazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan hayratga solgan.

Asosan, O‘rta Osiyoda qadimdan hunar egallahsga katta e’tibor berilganligiga allomalarimizning asarlarida alohida urg‘u beriladi. Shuning bois, etikdo‘z, hattot, kulol, kandakor, temirchi, telpakdo‘z, tijoratchi va boshqa kasblarning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Vaqt va zamon o‘tishi bilan ular rivojlanib mukammallahsgan. Ayni kunda bu kasblar takomillashib ularning

zamonaviy ko'rinishlari namoyish bo'lmoqda. Kasb egalari esa o'z ishlarining ustasi, bilimdoni sifatida egallagan kasb-korlikning akme darajasiga yetish uchun harakat qilayotganliklarining guvohi bo'lmoqdamiz.

Yurtboshimiz I.A.Karimov «Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatlari kishilarini tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi»¹, deb bejiz ta'kidlamagan edilar. Chunki insoniyat jamiyati taraqqiyotining bosh omili – bilim va ma'rifat bo'lsa, insoniylikning muhim hamda belgilovchi mezoni ma'naviyatdir. Zero, buyuk kimyogar ta'kidlaganidek, «tarbiyalamay berilgan bilim, aqdan organlar qo'lidagi qilichdir».

B.G.Ananyev eksperimental akmeologiya asoschisidir. U o'z o'rniда eksperimental-markazlashgan yo'nalishda eksperimental psixologiya bilan bog'lanadi. Akmeolog B.G.Ananyevning eksperimental akmeologiyasi shaxs yetuklik mexanizmlari, katta yoshli insonning notinch ruhiy rivojlanish muammolarini tekshiradi, rivojlanishdagi cho'qqilar va so'nishlar, katta yoshli shaxslarda involyutsion jarayonlar o'z-o'zini rivojlantirish yo'li bilan bargaror olib boriladi. U yetuk insonning evolyutsion ijodiy darajasini yuksaltirishga yordam beradi. Yurtboshimiz Islom Karimov bu borada: «Biz bugungi yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur»², deydilar. Haqiqatan ham, o'z-o'zini yuksaltirish va ijod faoliyati shaxs intellektual-ruhiy funksiya evolyutsiyasi bosqichini jadallashtiradi. Hayotdagi ijod doimo yoshlik g'ayratini talab qiladi va inson rivojlanishida keyingi bosqichlarni ochib beradi. Hayotga ijodiy munosabatda bo'lish siri oddiy – o'talgan umr

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q. 7-jild. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: «O'zbekiston», 1999. –135-b.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. –115-b.

*mahsuldarligi yetarlicha baholanadi, o ‘talayotgani samaradorligi nimaga yo ‘naltirilganligiga qarab belgilanadi*¹.

Ammo har ikkala asos ham akmeshaxsda ma’rifat orqali shakllanadi. Ilm bilan xulq-atvor, sa’y-harakatlarning o‘zaro birligi insonni donishmandlik, komil inson darajasiga eltadi. Bunga hech qanday shubha bo‘lishi mumkin emas, chunki go‘zallikka va axloqiy kamolotga intilish – bu, inson zotiga xos xususiyatdir.

Abu Ali ibn Sinoning qarashlarida akmeshaxs tarbiyasining amalga oshirilishida shaxsiy ibratning ma’qulligi uqtiriladi. Uning fikricha, agar oila boshlig‘i tajribasiz bo‘lsa, u o‘z a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo‘shnilarga, mahalla-kuya ham yomon ta’sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat‘i nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig‘imi, yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida mas’uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo‘lmoqlari lozim².

Beruniyning bilish to‘g‘risidagi ta’limoti uning durdona asarlarini tadqiq etuvchilar e’tiborini o‘ziga jalg etadi. Uning fikricha, bolaning bilimi soddadan murakkabga qarab boradi, bu yoshlikdan (10–12 yoshlar) boshlanadi. Bu bilan alloma kishillardagi tug‘ma qobiliyatni, tug‘ma iste’dodni nazarda tutgan. Shuningdek, olim ta’lim-tarbiyada irsiyat, ya’ni ota-onadan o‘tadigan biologik «meros»ga alohida e’tibor bergen.

Beruniyning fikri italyan mutafakkiri **Chezare Lombroznning** (1835–1909) fikriga to‘g‘ri keladi. Lombroznning fikriga ko‘ra, shaxsning ichki qobiliyatni uning tashqi fiziologik tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq. Lombroz akmeinsonlarning tashqi belgilarini ifodalashda «daho» tushunchasidan foydalanadi. U akmeshaxs


¹ Аナンьев Б.Г. Человек как предмет познания. 1969. <http://old.festu.ru/ru/structure/library>.

² *Ibn Sino*. Tadbir-i manzil. – Tehron: 1939. – 44-b.

rivojida ishtirok etuvchi omillar ikki qismidan iboratdir, deydi, ya'ni ular: tabiatdagi o'zgarishlar va inson geni.

Pedagog akmeshaxsnинг shakllanishinida Chezare Lombroz nazariyasini kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi (5.1.1-slayd).

5.1.1-slayd



1. *Tabiatdagi o'zgarishlar*, Chezare Lombrozing fikricha, havo temperaturasining 25° , 30° va 32° gacha ortishi telbalarining tutqanoq tutishi holatlarining ortishiga sabab bo'lar ekan. Shu bilan birga, daho, yuksak aql egalari ham aynan mana shunday paytda o'zlarining eng buyuk kashfiyotlarini amalga oshirar ekanlar. U, hatto, buyuk iqtidor egalarining dunyoga kelishi atmosferaning isishi va qulay ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog'liq, degan g'oyani ilgari suradi¹.

2. *Inson geni* esa avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadi. Buyuk ajdodlardan buyuk avlodlar dunyoga keladi, deb yozadi u². Shu o'rinda u Gelvetsiyning «Hatto ayiqni tarbiyalab raqsga o'rgatish mumkin, ammo buyuk iqtidor egalarini bu usulda ishlab chiqib bo'lmaydi», degan g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi³. Bunda u Iogann Shtraus Baxning oilaviy shajarasini misol qiladi. Haqiqatan ham

¹ Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство. Пер. с итальянского.
—Ростов на-Дону: Изд-во «Феникс», 1997. —С. 29–45.

² O'sha joyda. —50—54-b.

³ O'sha joyda. —52-b.

bu shajaraning sakkiz avlodи musiqa borasida eng iqtidorli va taniqli bastakorlarni dunyoga keltirgan. Gen vorisiyligi bo'yicha oiladagi imkoniyatlar: ota-bolada 1:6; aka-ukalarda 1:7; o'g'ilning imkoniyatlari 1:4. Ikkinchи darajali qarindoshlik rishtasi bo'yicha: boboning imkoniyatlari 1:25; amakilar 1:40; nevaralar 1:29. Uchinchi darajali qarindoshlik rishtasi bo'yicha: Amakivachcha, xolavachchalaryning imkoniyati 1:100, oilaning boshqa a'zolari 1:200 va hokazo!. Fikrimizcha, Chezare Lombrozning bu g'oyasiga qo'shilish maqsadga muvofiqdir. Zero, buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiylarning geniologik shajarasи bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Alloma Yassaviy o'z ta'limotida farzand tarbiyasida insondagi yomon illatlarni nafs bilan bog'laydi va unga qarshi kurashish lozimligini uqtiradi. Nafsni tiyish, mol-dunyoga xirs qo'yish, ta'magirlik, badnafslik, nokaslik, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralaydi. Nafsni tarbiyalash nafaqat insonning shaxsiy xarakteri, balki oiladagi ijtimoiy muhitga ham salmoqli ta'sir etishini ta'kidlaydi. Uning ta'rificha, nafs «yabon qushdek qo'nga qo'nmas» bir narsa. Bu «qush» o'z xohishicha «parvoz» etaversa, odamni kundan-kunga odamiylikdan chiqaraveradi, azim gunohlarni qilishga sababchi bo'lib, badnom etadi, chunki nafs domiga tushgandan keyin kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-harishdan hazar etmaydi, boshqalar hisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'ylaydi. Oqibatda u zolim, berahm, riyokor bo'lib qoladi.

Bahouddin Naqshbandning farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari ham g'oyat qadrlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab shunday degan edi: «Adab xulqni chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir»². Adab saqlash — muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysang ham,

¹ Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство. Пер. с итальянского. — Ростов на Дону: Изд-во «Феникс», 1997. — С. 54—55.

² Муминов И.М. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане. — Т.: 1957. — С. 46.

nimaiki qilsang ham beadablik ko'rinadi. Zero, beadablar yashaydigan ijtimoiy-ruhiy muhit nosog'lom bo'lib, nafaqat insonlarga, balki boshqa jonzotlarga ham salbiy ta'sir etishi tabiiy. Odam o'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir qilish) ta'masi paydo bo'lmasin.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning «Al-Jome' as-Sahih» («Ishonchli to'plam») hadislar to'plamining 123-bobida ota-onani hurmat qilish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. «Bir kishi Rasulloh sallalohu alayhivasallamning huzurlariga kelib, jihod qilmoqqa izn so'radi. Shunda ul zot: «Ota-onang tirikmi?» dedilar. U: «Ha», dedi. Ul zot: «Unday bo'lsa, ana o'shalarning yo'lida jihod qilg'il (ya'ni, ota-onangni rizo qilmoq uchun mol-dunyongni sarf qil, kecha-kunduz xizmat qilib, ularning duosini ol!»» dedilar¹.

Mutafakkir Yusuf Tovasliy to'plagan «Hikmatlar xazinası» kitobida kelin bo'luvchi qizga beriladigan onasining nasihatini keltirilgan: «Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o'git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o'rgatadi, bilganni esiga soladi. ... sen tug'ilib o'sgan va voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab, o'ynab-kulib yurgan yeringdan chiqib, o'zing bilmaydigan, notanish uyg'a bora-san. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo'lsin! Sen unga yer bo'lki, u senga osmon bo'lsin! Sen unga uy bo'l, ul senga ustun bo'lsin! Aytganlariga amal qilsang – ering bilan go'zal hayot kechirasizlar, mas'ud, baxtiyor va saodatli turmush qurasizlar. Bizlar ham (har ikki oila – bizning ham va eringning oilasi) huzur-halovatda baxtiyor bo'lamiz. Aks holda (ya'ni aytganlarimga amal qilmasang), ikkala oilada ham huzur-halovat bo'lmaydi. Nasihatimni olsang, sen jannatda yashagandek bo'lasan». Shuning uchun har bir oqila ona qizini uzatar ekan yoki qizini oilaviy hayotga tayyorlar ekan – baxtli yashashi, baxtli yashash uchun esa faqat oilada ahil yashamog'ini uqtirishi kerak.

¹ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. – T.: 1997. – 291-b.

Axloqiy poklik va sog'lik garovi, jamiyat mustahkamligi asosi – oila ekanligini anglatish, unga amal qilishni tushuntirishi lozim.

Beruniy ilk yoshidagi noyob qobiliyatlarini miya asab tuzilishi xususiyatlari bilan belgilaydi. Lekin bunday alomatlar kishilar mashhur shaxs bo'laci, degan ma'noni anglatmaydi. Hamma narsani keyinchalik olib boriladigan ta'lim-tarbiya hal qiladi. Yaxshi me'yori ta'lim-tarbiya natijasida ba'zi hollarda qibiliyatli bolalar o'sib-ulg'ayib, u yoki bu sohada iste'dodli kishilar bo'lib yetishadilar.

Nasafiylar ta'limotining har biriga nazar tashlaydigan bo'lsak, ulardagi teran fikrlarni qayd etish mumkin. Yetuk allomalarimizdan biri, tasavvuf ta'limotining yirik namoyondasi Aziziddin Nasafiy ibn Muhammad shunday deydi: «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamlarga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolotga yetgan bo'lsin: yaxshi fe'l, yaxshi so'z, yaxshi axloq va maorif». Nasafiy keltirgan ushbu ta'rifdan komil inson bo'lish har tomonlama rivojlangan va unda to'rt narsa kamolotga yetgan bo'lishini ta'kidlab, yaxshi xulq, yaxshi xarakterga ega bo'lishi, nutqi ravon, madaniyatli, va ilm-fanda ilm cho'qqilarini yaxshi egallagan bo'lishi kerakligini uqtiradi. Shuningdek, Nasafiy inson kamolotining belgisi sifatida ikki narsani asos qilib ko'rsatadi: birinchisi – axloq, ikkinchisi – o'z-o'zini anglash. Shu sifatlarni hisobga olib, Nasafiy nazarida, inson hamma axloqiy sifatlar bilan bezangan va o'z-o'zini anglash, ya'ni menligini bilish inson kamolotining belgisi sifatida: «Binobarin, insonning kamolotga erishishi hamda axloqqa ega bo'lishi va o'z-o'zini anglash bilan amalga oshadi», degan xulosaga keladi.

Umuman olganda, shuni ta'kidlash lozimki, ular akmeshaxs tarbiyasida ijtimoiy, falsafiy, diniy va axloqiy qarashlarini ilgari suradilar, bu g'oyalari hozirda ham yoshlarni barkamol tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ularning fikricha, kimki o'z kamchiliklarini isloh qilishni dildan istasa, o'z mijoziga xos salbiy sifatlarni yaxshi bilib olmog'i zarur bo'ladi. Bordi-yu, bu talabga amal qilinmasa, bunday odamning har qanday sa'y-harakatlari

zoye ketadi, hech qanday samarali natijaga erisha olmaydi. Oqibatda so'z va amal birligiga putur yetadi. Oilada adab tarbiyasi orqali kishining zohiriylar bilimlari hamda qalbini axloqiy ezgu fazilatlar bilan boyitish, xulqini go'zal xislatlar bilan bezash va qalbini ulg'aytirish – ota va ona ibrati orqali amalga oshiriladi. Demak, odobli odam – eng kuchli shaxsdir. Komil inson tarbiyasida ilm va odobga qattiq tayanish eng maqbul tadbirlardan biridir. Zero, akme-shaxs o'zining ijtimoiy sharoitiga ega, yaxlit jamiyatning alohida olingan ajralmas bo'lagi bo'lib, jamiyatning ravnaqida alohida ahamiyatga bo'lib, avvalo, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi obyektiv zaruriy ko'priklar, bu – vorisiylikdir.

Bir so'z bilan aytganda, inson axloqiy qiyofasining shakllanishida buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosining o'rni beqiyos. Ularning purma'no hikmatlari, olijanob fazilatlari, saxovatpe-shaligi, didaktik hikoyalari, dono maslahatlari, ibratomuz rivoyatlar ta'lif-tarbiyaning bitmas-tuganmas manbayidir. Odamlar murakkab vaziyat va sharoitda doimo donishmandlarning do'stona ko'magi va qo'llab-quvvatlashiga tayanadilar, ulardan ma'naviy-ruhiy madad olib turadilar, o'zlarining xulq-atvorlarini, yaxshi yoki yomon sifatlarini hayotiy tajribasiga, o'gitlariga, pand-nasihatlariga qiyoslaydilar, ulardan foydali xulosa chiqarib olishga urinadilar.

Shu bilan nazariy o'quv mashg'ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

5.2. «Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o'rni» mikro-moduli amaliy mashg'uloti loyihasi

Amaliy mashg'ulot, nazariy mashg'ulotga nisbatan, ta'lif oluvchilarning mustaqil fikr yuritib, aytib va ko'rsatib berish yo'li bilan amalga oshganligi sababli pedagog ta'lif oluvchilar faoliyatini boshqarib turishi munosabati bilan, bu jarayonni loyihalashda faqat o'quv mashg'ulotini modullarga ajratib, ularning maqsadlarini, ularga ajratilgan vaqt va qo'llaniladigan o'quv mashg'uloti tipi va pedagogik usullarini hamda nazorat savollarini ifoda etuvchi jadvallar tuzib olinadi.

5.2.1-jadval

**«Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining
o‘rnii» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari
va ularga ajratilgan vaqt**

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish harakatlar
1.	Oila – shaxs ijtimoiylashuvida ko‘maklashuvchini dastlabki ijtimoiy institut	20 daqiqa	Yozish
2.	1-ma’ruza	20 daqiqa	Tinglash. Munozara
3.	2-ma’ruza	20 daqiqa	Tinglash. Munozara
4.	3-ma’ruza	20 daqiqa	Tinglash. Munozara
5.	Talabalarni baholash	10 daqiqa	Savol-javoblar va mavzuni mustahkamlash

5.2.2-jadval

**«Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining
o‘rnii» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan
o‘quv mashg‘ulotining tipi va pedagogik usullar**

T/r	Qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi	Qo‘llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Amaliy o‘quv mashg‘uloti»	«O‘qish va yozish»
2.	«Ma’ruza», «Diskussiya»	«O‘qish va yoz yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
3.	«Ma’ruza», «Diskussiya»	«O‘qish va yozuv», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

«Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o'rni» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo'llaniladigan savollar

T/r	Nazorat savollari
1.	Shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni qanday ahamiyat kasb etadi?
2.	Oila masalalariga bag'ishlangan ilk falsafiy qarashlardan misol keltira olasizmi?
3.	«Avesto», Islom dinining muqaddas manbalaridan Qur'oni Karim va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiysi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga qanday o'rni berilgan?
4.	Oilaviy tarbiya haqida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarini qanday baholaysiz?
5.	Oila masalasi jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida qanday ifodalangan?
6.	Mustaqil O'zbekiston tаддиқотчи олимлари ham oila masalasiga o'z munosabatlarini bildirganlarmi?

Endi ushbu mashg'ulot ssenariysini keltiramiz.
Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usullarini qo'llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o'quv mashg'ulotini quyidagicha boshlaydi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!
 Bugungi amaliy mashg'ulotimizning mavzusi: «Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o'rni» deb nomlanadi.

Bugungi amaliy mashg'ulotimizga uchta talaba o'zlarining ma'ruzalarini tayyorlab kelganlar. Biz ana shu ma'ruzalarни avval eshitib, so'ngra muhokamaga o'tamiz.

Izoh. Ma'ruzalarni namuna sifatida tavsiya etayapmiz, tala-balarning o'zlar mustaqil ravishda mavzu doirasida ma'ruza tayyorlab kelishlari ham nazarda tutilgan.

Marhamat, 1-talaba ma'ruzasi:

Qadimdan shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning roli yuqori qo'yilgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-onasi va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berilgan. Oiladagi rivojlanishi mumkin bo'lgan — halollik, poklik, mardlik, so'zamollik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga, insondagi insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak xislatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiyligi ta'siri haqidagi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni allomalarimiz o'z falsafiy qarashlarida ifodalab bergenlar.

Oila masalalariga bag'ishlangan ilk falsafiy qarashlar, bizningcha, Sharq ma'naviy tafakkurida zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»dayoq ilgari surilgan edi¹. «Avesto»da oila quruvchilarning salomat bo'lishi, oilaviy burchi, farzand tarbiyasi, qavm va urug' qonining toza bo'lishi hamda avlodni benuqson saqlash uchun qarindoshlarning o'zaro nikoh tuzishlari man etilgan². «Avesto»da oila, jamiyat ijtimoiy muhitining sog'lomligi uning farovonligi hamda halol mehnati orqali shaxsning barkamol tarbiyasida bo'lib, uning so'zi, fikri, faoliyati birligiga katta e'tibor berilgan. Oila qurish, naslni davom ettirish uchun yaxshi farzandning zarurligi³, ayol va

¹ Avesto. «Videvdat». 3-fargard, 2–3-bandlar. – T.: «Sharq», 2001. –37-b.; *Maxmudov T.* «Avesto» haqida. – T.: «Sharq», 2000. –14-b.; *Tohir Karim.* Muqaddas «Avesto» izidan. – T.: «Cho'Ipón», 2000. –12-b.

² Avesto. «Videvdat». 3-fargard, 2–3-bandlar. – T.: «Sharq», 2001. –37-b.

³ «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – T.: «Fan», 2001. –33–34-b.

farzandlari sarson va sargardon yuradigan yurt – eng yomon yurt¹, deb ta'kidlangan.

Ma'lumki, Islom dinining muqaddas kitoblaridan Qur'oni Karim va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan. Quyida hadislar to'plamidan bir necha misollar keltiramiz: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz»; «Sizlarning har biringiz bamisolli cho'pondirsizlar va o'z qo'l ostingizdagilarga mas'uldirsizlar».

Kaykovusning «Qobusnom»sida «Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandlarni qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'larman, – deydi ma'rifatparvar ota Kaykovus, – Bilgilki, xalqning rasmi, odati shundayki, yugurib-elib, qidirib-axtarib dunyodan biron narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarini o'zlarining yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadilar. Men dunyoda mana shu so'zlarni hosil qildim, sen mening uchun eng qimmatbahosan. Menga safar vaqtida yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bo'lsam, sening oldingga qo'ydim, toki o'zingga bino qo'ymagaysan va o'zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan»².

Kaykovus o'z o'g'lining kelajagi haqida qayg'urib, uning kelgusida har jihatdan barkamol, to'kis inson bo'lib yetishishini istagan holda o'z o'git va pand-nasihatlarini qoldirib ketgan. Kaykovus o'z asarining V bobida oilaviy tarbiya xususida alohida to'xtaladi. Yoshlarning ota-onani hurmat qilishga chiqradi, ularning o'z farzandlari uchun «o'limga ham tayyor» turishlarini ta'kidlaydi. Ota-ona ko'nglini ranjitmaslik, ularni izzat-ikrom qilish, hamisha shirin so'zlar bilan muomalada

¹ Shoamirova Y. O'zbek oilasi ma'naviyati tarixiga bir nazar. // «Jamiyat va boshqaruv», 2002, 4-son. – 37-b.

² Kaykovus. Qobusnom. – T.: «Istiqlol», 1994. – 84-b.

bo‘lish zarurligini uqtiradi: «... o‘z farzanding seni hurmat qilishni istasang, sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki ota-onang haqida nima ish qilsang, farzanding ham senga shunday ish qiladi». Farzandning aqli, dono, o‘qimishli, ya’ni ma’rifatli bo‘lishini ota-onani hurmat qilishi bilan bog‘laydi: «Har bir farzand aqli va dono bo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado qilishdan bosh tortmaydi».

Alloma farzand parvarishi haqida so‘z yuritar ekan, hech narsani nazaridan qochirmaydi. Yangi tug‘ilgan farzandga avvalo yaxshi ot qo‘yish, so‘ng uni aqli, mehribon doyalarga berish, katta bo‘lib, es-hushi kirgach, hunar va kasb o‘rgatish, o‘qitib ilmli qilish kabi vazifalar ota-onaning, birinchi navbatda, otaning ezgu burchi ekanligini ta’kidlaydi. «Otalik shartin bajo keltirgilki, farzanding vujudga kelgandagidek hayot kechirsin, ya’ni har odam vujudga kelgan kunidan boshlab xulqi, odati unga hamroh bo‘ladi, ammo kuchsizlikdan, yumshoqligidan va zaifligidan uni namoyon qila olmaydi. Katta bo‘lgan sari, jismi va ruhi quvvat topadi, hamma fe‘li-atvori namoyon bo‘ladi, kamolga yetgandan so‘ng hamma yaxshilik va yomonligini zohir qiladi. Sen esa adab, hunar va bilimni unga o‘zingdan meros qilib qoldirgin, toki uning haqqini bajo keltirgan bo‘lasan»¹. U yozadi: «Xotin talab qilsang, xotinning molini talab qilmagil... Xotin pok nihod (toza tabiat) va pokdil bo‘lsin: kadbonu (uy bekasi, ishchan xotin) eriga do‘sit bo‘lg‘ay. Qallig‘ taqvodor, tili qisqa, molni yaxshi saqlag‘uvchi bo‘lsin. Debdurlarki, yaxshi xotin arning va umrning rohati bo‘lur»².

Oilaviy tarbiya haqida Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Imom Buxoriy, Najmuddin Kubro, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Abdulxoliq G‘ijdivoni, Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Bahouddin Naqshband, Muhammad G‘azzoliy, Axmad Yassaviy, Burhoniddin al-Marg‘inoniy,

¹ Kaykovus. Qobusnoma. – T.: «Istiqlol», 1994. – 84-b.

² O’sha asar.

Nizomulmulk, Nosir Xisrav, Alisher Navoiy, Bobur, Hakim Termiziy, Ahmad Donish, Bedil, Munis Xorazmiy, Behbudiy, Cho'lpion, Fitrat, Abdulla Avloniy¹ kabilar qimmatli fikrlar bildirishgan. Ular yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishida oila va oilaviy tarbiyaning o'rnnini yuqori qo'yishgan.

Abu Nasr Forobiyning inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi haqidagi qarashlarida uqtirilishicha, oila a'zolarining bir-birlariga samimiyl munosabatlari, mehru-oqibatlari shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onal o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi keltiriladi. Forobiyning fikricha, «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliv darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirta olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Zero, shuning uchun ham inson ko'paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rashdi, natijada inson jamoasi vujudga keldi².

¹ *Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri.* – T.: «Xalq merosi», 1993; *Beruniy Abu Rayhon*. O'tgan avlodlardan qolgan yodgorliklar. – T.: O'zdavnashr, 1957; *Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari*. 1, 2, 3-jildlar. – T.: «Meros», 1993; *Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig*. – T.: «Adabiyot va san'at», 1990; *Yassaviy A. Hikmatlar*. – T.: «Adabiyot va san'at», 1991; *Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy. Al Jome' as-Sahih* (Ishonchli to'plam). – T.: Qomuslar bosh tahririysi, 1992; *Hakim at-Termiziy. Hadislari*. // «Sharq Yulduzi», 1998, 9-son, 23–34-b.; *Navoiy A. Xamsa. Asarlar*. 1–5-jild. – T.: «Adabiyot va san'at», 1968; *Bobur M. Boburnoma*. – T.: «Adabiyot va san'at», 1960; *Donish Ahmad. Navodirul vaqoe*. – T.: «Fan», 1964; *Fitrat A. Oila va oilani boshqarish tartiblari*. – T.: «Ma'naviyat», 1998; *Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq*. – T.: «O'qituvchi», 1992 va boshqalar.

² *Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri*. – T., 1993. –83–84-b.

Abu Ali ibn Husayn ibn Abdulloh ibn Sinoning fikricha, insonning hayvonlardan farqi shundaki, Olloh unga aql in'om etgan. U tufayli inson ezgulikni yovuzlikdan, intellektual yetuklikni yolg'on-yashiq, adashishdan, do'stni dushmanidan ajrata oladi. Aql nuri insonni tasodifiy kuchlar ta'siridan ozod shaxsga aylantiradi¹. Jamiyat va oilaning inson kamolotining shakllanishidagi roli behad muhim. Inson Tangri taolo tomonidan yaratilgan. U jismonan ko'pchilik hayvonlar bilan raqobatga kirisha olmaydi. Lekin shunga qaramasdan, u barcha hayvonlar orasida o'ziga xos e'tiborli o'rinni egallaydi. **Inson – ilohiy karamdan bahramand bo'lish, olamda tegishli tartib o'rnatish va uni obod qilishga vakolat olgan ulug' zotdir.** U o'zining tashqi qiyofasi, tuzilishi, jussasi bilan hayvonlardan tubdan ajralib turadi. Ko'p hollarda jismonan kuchli, baquvvat bo'lgan hayvonlardan inson zoti ustunligining boisi nimada, degan savol tug'iladi. Ibn Sinoning fikricha, Tangri taolo insonga shunday kuch-qudratni in'om etdiki, u orqali ezgulik, yaxshilik («xayr»)ni yomonlik («sharr»)dan, aqliy kamolot, yetuklik («rashad»)ni yolg'on-yashiq, adashuv («gumrohlik»)dan farq eta olish imkoniyati paydo bo'ladi².

Demak, inson aql-zakovat sohibi ekanligi, tabiatda o'ziga xos o'rinni egallab turishi tufayli barcha tirik mavjudotlar sultanatiga hukmronlik qilish huquqini qo'lga kiritadi. U aql nuri orqali tabiatda sodir bo'ladigan tasodifiy hodisalar, har qanday o'zgarishlar hukmidan ozod, o'z amaliy va nazariy faoliyatini «donolik tarozisi» talablariga bo'ysundirgan shaxs sifatida amalga oshiradi. Allomaning fikricha, bola tarbiyasini amalga oshirishda uni jazo orqali emas, balki shaxsiy ibrat bilan tar-

¹ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-k. – T.: «Yozuvchi», 1996. –64-b.

² Ibn Sino. Tadbir-i manzil. – Tehron, 1939. –4-b.

biyalash ma'qul. Ibn Sino, agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oqibatda u yaxshi ijobjiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat oila, balki qo'shnilarga, mahalla-kuyga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin, oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat'iy nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi. Ota-onsa davlat boshlig'imi yoki oddiy fuqaromi bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim. Uning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona, yollangan shaxs «nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim»¹. Bizning fikrimizcha, alloma o'z qarashlarida oilada keksa avlodning ibratlari hayotiy tajribalarini o'sib kelayotgan yoshlarni singdirish masalasini ilgari suradi va bu kabi tadbir-larning aynan oila muhitida amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u biling («Saodatga boshlovchi bilim») kitobida yozishicha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham u oilaviy tarbiyani bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan. Shu kabi noyob fikrlarni biz Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham uchratmiz. Allomaning yozishicha, inson-parvarlik – kishilarning ma'naviyat darajasi, u o'zida ijobjiy axloqiy xislatlarni tarbiyalay olishi bilan ham bog'liq. Aqlli odam faqat o'tkinchi bo'limgan aqliy ishlar, qadriyatidan laz-zatlanadi. Insonning ma'naviy qiyofasi va turmush tarzi esa

¹ *Ibn Sino*. Tadbir-i manzil. — Tehron, 1939. —44-b.

uning o‘z his-tuyg‘ularini qanday boshqara olishi bilan bog‘liq¹. Bunda, albatta, oilaviy tarbiyaning o‘rnii nihoyatda muhimligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Sharq Uyg‘onish davri madaniyatining yorqin vakili Amir Temur asarlarida oilaviy urf-odatlar, an'analar, milliy qadriyatlar haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Sohibqironning odob-axloq haqidagi ta’limoti, murakkab va serqirra hayoti hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyati uning «Temur tuzuklari»da chuqur bayon etilgan. Amir Temurning farzand tarbiyasiga uchun adolat, qadr-qimmat, or-nomus, burch, mas’uliyat, vijdon, iymone’tiqod, halollik, fidoyilik kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar haqidagi necha-necha avlodu-ajdodlarga dastur va yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladigan: «Adovat emas, adolat yengadi», «Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi», «Yaxshilarga – yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim», «O‘z sultanatimni shariat bilan bezadim» kabi o‘gitlarida o‘z ifodasini topgan. Albatta, Sohibqiron davlat boshqaruvida oila nuqtayi nazaridan yondashganligi seziladi. Zero, undagi barcha fuqarolar farzandlar qatorida, ularning kamoli esa farzand kamoli qatorida bo‘lgan desak, aslo adashmaymiz.

Amir Temurning ardoqli nabirasi Ulug‘bekning qarashlarida ham oilaviy an’ana va farzand tarbiyasiga oid beqiyos fikrlar mavjud. Uning fikricha, odob va axloq inson ma’naviyati va ma’rifati kamolotida katta o‘rin egallaydi. Oila a’zolarining o‘zaro munosabatda odamgarchilik, mehr-muhabbat, do’stlik, birdamlik, ahillik asosida yashash va faoliyat ko‘rsatishi ko‘p jihatdan axloqiy tarbiyaga bog‘liqdir. Ulug‘bek farzand tarbiyasida jasurlik, mardlik, chidamlilik, barkamollik masalalariga alohida e’tibor bilan qaraydi. Zero, ruhan va jismonan baquvvat, aqlan yetuk, axloqan pok avlod o‘z yurtini, Vatanini dush-

¹ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: «Fan», 1989. –40-b.

manlardan himoya qila oladigan, xalqparvar bo'lib shakllanadi. Sohibqiron Amir Temur oila qurishda axloqiy va boy ma'naviy me'yorlarga qattiq rioya etishni baquvvat nasl qoldirish va millat ravnaqining asosi deb bilgan. Bu borada u: «**O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lishning nasl-nasabini, yetti pushtini surish-tirdim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'liq va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo'lsagina el-yurtga katta to'yu-tomosha berib, kelin tushurdim**»¹, deb ta'kidlagan edi. Haqiqatdan ham, biz o'z tadqiqotlarimizda shunga amin bo'ldikki, nasl sofligi barkamol, yetuk shaxs, professional mutaxassis, bir so'z bilan aytganda akmeshaxs tarbiyasiga asosiy poy-devor bo'ladi.

Marhamat, 2-talaba ma'ruzasi:

Oila masalasi jadid ma'rifatparvarlari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Tavallo, Hamza Hakimzoda Niyoziyidan bizga ilmiy, madaniy meros bo'lib kelayotgan «Nodir voqealar», «Farzandlarga vasiyat», «Kasb va hunarning foydalari haqida», «Buxoro amirlarining tarixi», «Turkiy guliston yoxud axloq», «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon», «Padarkush» kabi ko'plab asarlarda insonlarni yaxshilikka chorlovchi, axloq va odobni kuylovchi, ma'naviyat haqidagi fikr va mulohazalar o'z o'mini topgan².

¹ *Amir Temur*. Temur tuzuklari. — T.: «Navro'z», 1992. — 15-b.

² *Behbudiy M.* Qisqa umumiy jug'rofiya. — T., 1905; *Behbudiy M.* Bolalar uchun kitob. — T., 1905; *Behbudiy M.* Islomning qisqacha ta'rifi. — T., 1910; *Behbudiy M.* Xayrul umuri avsatihos. «Xurshid». — T., 1906; *Fitrat A.* Oila va oilani boshqarish tartiblari. — T.: «Ma'naviyat», 1998; *Fitrat A.* Oila. — T.: «Ma'naviyat», 1998; *Abdurashidxonov M.* Yer yuzi. — T., 1913; *Ayloni A.* Turkiy guliston yoxud axloq. — T.: «O'qtuvchi», 1992; *Qodiriy A.* Ahvolimiz. 1915; *Qodiriy A.* Millatimiz. 1915; *Hamza H.N.* To'la asarlar to'plami. Besh jildlik, 2-jild. — T.: «Fan», 1988.

Ularda insonning insoniyligi, avvalo, uning ichki ruhiy olamiga bog'liqligi, ya'ni shu ruhiy olam unga kuch-quvvat, qaltis davrlarda ko'mak, irodasini baquvvat qilishda asosiy omil bo'lib xizmat etish g'oyasiga asoslangan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi oilada farzand tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu asarning qahramoni orqa-oldini o'ylamagan boyning o'g'li Toshmuroddir. Behbudiy bu asarda jaholat va nodonlik hamda o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Boy o'g'lini o'qitmaydi, oqibatda u ko'chada bezorilarga qo'shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyg'a boshlab keladi. Boy uyg'onib, ularni sezib qoladi, lekin uni o'ldirib, pulini olib ketadilar. Jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar millat aynan shunga o'x-shash ahvolga tushsa-chi?! Xudoning o'zi asrasin!

Drama o'z maishatiga o'ralib dunyoni unutgan millatdosh-larga chaqmoqdek ta'sir etadi. Asarda muallif avlodlar tarbiyasi-da mas'uliyatsizlik jinoyat ekanligiga urg'u beradi va farzand tarbiyasidagi loqaydlik fojeili oqibatlarga olib kelishini uqtiradi.

A.Avlonyi bola tarbiyasini nisbiy ravishda: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasiga ajratadi. Umuman, tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-onas, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masala-sidur», deb uqtiradi Avloniy. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Bizning fikrimizcha, tarbiya surriyot dunyoga kelgan kundan boshlanib, umrining oxirigacha davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik

¹ Behbudiy ma'rifatparvar adib: Metodik-bibliografik qo'llanma. – T., 2004. 22-b.

² Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1997. –300-b.

tarbiyasidan tashkil topgan. Abdulla Avloniyning qarashlari hozirgi kunda ham komil insonni kamol toptirishda chinakam tuyg'ular, umuminsoniy ezgu g'oyalar ruhida, vijdoniylik ruhida tarbiyalashda qimmatli manba sifatida e'tiborni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

A.Fitrat ham «Oila» asarida «Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama yetuk inson bo'lib tarbiyalansa, qavmnning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi», deydi. Ya'ni, farzand tarbiyasida oila bilan birga uning urug'-aymoqlari, mahalla va barcha bu vazifa uchun mas'uldirlar. Zero, shaxs tarbiyasi – bu ijtimoiy hodisadir.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning fikricha, bolaning aqliy rivojlanishi, irodasi, xulq-atvori, umuman, ma'naviy fazilatlari oilada shakllanadi. Bolaning kim bo'lib yetishishi uning naslnasabiga emas, balki unga beriladigan tarbiyaga bog'liqdir, ya'ni bolaning o'qishga qiziqishi, o'qish qobiliyatining rivoji naslnasabning emas, balki oiladagi tarbiyaning mahsulidir!

Marhamat, 3-talaba ma'ruzasi:

Mustaqil O'zbekistonda tadqiqotchi olimlar ham oila masalasiga o'z munosabatlarini bildirganlar. Jumladan, falsafa fanlari doktori M.H.Xolmatova barkamol avlod tarbiyasini amalgaloshirish uchun oilaviy sog'lom turmush tarzi g'oyasini ilgari surgan edi. Oilalardagi tartib-intizom jamiyat uchun, jamiyatdagi barqaror va osoyishta taraqqiyot uchun muhimdir². Demak, oilaiar mustahkamligi va barqarorligi hamisha jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib hisoblangan. Zero, oilalarda ahillik, inoqlik, ma'naviy-axloqiy munosabatlar mustahkam va

¹ Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1997. – 324-b.

² Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2000. – 165-b.

sog'lom bo'lsa jamiyat yanada barqarorlashadi va rivojlanadi. Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova ushbu muammoga oila turlarini tasniflash bilan birga, ularning o'zaro munosabatlari jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod ongida ro'y beradigan ruhiy holatlarni tahlil etish nuqtayi nazaridan yondashadi. Olimaning fikricha, «Ma'lum bir sabablarga ko'ra, sodir bo'ladigan oilaviy mojarolar bolalar tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatadi, bunday ta'sir «bolalarni deb» saqlanib kel-nayotgan oilalardagi ba'zi janjallar tufaylidir»¹. Fikrimizcha, har ikkala holatda ham bolaning ruhiy muvozanati buzilishi, ishchanlik kayfiyatining pasayishi, tushkunlik kayfiyatining paydo bo'lishi yuz beradi. Shuning uchun tarbiya jarayonida ilk bo'g'in hisoblangan oila qo'rg'onining mustahkamligi ijtimoiy muhit va tarbiyaning asosiy omillaridan biri ekanligini alohida e'tirof etish lozim.

Shuningdek, oiladan tashqari ta'lif tizimi, mehnat jamoa-lari, jamoat joylarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar, davlatning ichki va tashqi siyosati faoliyatidan qaror topgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlar majmuasi inson hayoti faoliyatining ijtimoiy va ruhiy muhitini yuzaga keltiradi.

Oila va maktab hamkorlikda o'quvchilarning darsdan tashqari qiziqishlarini rag'batlanadiradi. Masalan, hozirgi kunda respublikamizda bolalarning «Yosh matematiklar», «Yosh sportchilar», «Tikuvchilik», «Zardo'zlik», «Yosh rassomlar», «Kompyuter savodxonligi va Internet» «Kitobxonlar», «Suzish», «Badiiy gimnastika», «Yosh bog'bonlar» va shunga o'xshash ko'plab to'garak mashg'ulotlariga qatnashishlari ommalashmoqda. Ushbu mashg'ulotlardan asosiy maqsad, birinchidan, bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish bo'lsa, ikkinchidan, o'quvchini yoshlikdan kasbiy mahorat sirlarini egallah, mehnatga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirish,

¹ Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi (o'quv qo'llanma). — T.: «Oila», 2006. — 85-b.

shu yo'l orqali ularning intellektual salohiyati, aqliy qobiliyati, xulq-odobi, tarbiyasini ratsional yo'lga qo'yishdir.

Oilada farzand tarbiyasiga bu kabi yondashuv quruq axloqiy nasihatbozlikdan ko'proq samara beradi. O'quvchilarning darsdan tashqari vaqtini yuqorida qayd etilgan usulda tashkilashtirish ommalashgan taqdirda ham baribir maktab tashkiliy vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bu vazifalarning samarali natija berishi bog'cha va mакtabning oila bilan aloqasini mustahkamlashga borib taqaladi.

G'arb mamlakatlarida ahvol qanday, degan o'rинli savol tug'ilishi mumkin. Amerikalik siyosatshunos olim Patrik Byukennenning fikricha¹, Yevropa «amerikacha» madaniyatning o'z hayot tarziga singib ketganligiga qarshilik ko'rsatishga qodir emas. Bunga odamlarning birdan boyib ketish, birdan to'kin hayotga erishishga egoistik intilishi sababdir. Gedonistik psixologiya bo'yicha, inson to'q va farovon hayotga, boy-badavlat bo'lishga intilishida aybdor emas, lekin bunday to'kinchilik inson taraqqiyotiga g'ov bo'lishi mumkin. Muallifning tashvishi va uni xavotirga solgan narsa shuki, bunday ong va shuurdag'i o'zgarishlar Yevropa xalqlarining, eng avvalo, oilaga nisbatan munosabatlarining salbiy tomonga o'zgarganligida ifodalananadi. Masalan, bugun Yepropadagi bolalarning har uchtaidan bittasi nikohsiz tug'ilmoqda, tug'ilish keskin kamayib ketgan, umuman ayollar o'zidan sog'lom surriyot qoldirishni istamaydilar, farzand tug'ilishi va uni tarbiyalashga mablag' sarflashni xohlamaydilar. Olimlarni mavjud ahvolni ijobjiy tomonga o'zgartirish uchun farzand tug'ilishida davlat tomonidan ajratiladigan nafaqalarning, suyunchi pullar miqdorining orttirilishi, onalar uchun alohida imtiyozlarning joriy etilishi yoki bola soni ortgani sababli taqdim etiladigan uy-joy yetarli bo'larmikin, degan savol qiyinaydi. Chunki zamонави G'arb

¹ Бьюкенен П.Д. Смерть Запада. – М.: Изд-во «ACT», 2003.

yoshlari uchun bu kabi imtiyozlar bola tug‘ilishi va bu bilan bog‘liq tashvishlar oldida hech gap emas. Mansab pog‘onalariga ko‘tarilish, qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, millioner bo‘lish, yengil-yelpi hayot kechirish, o‘zi uchun yashash kabilar oilaviy yumush va quvonchu-tashvishlar oldida ular uchun qadrliroq, zarurroqday. Albatta, bu kabi holatlar ertani o‘ylayotgan har bir odam uchun noqulay muhitni yuzaga keltirishi mumkin¹.

Keyingi yillarda ommaviy ko‘ngilochar munosabatlar sharoitida yoshlarimiz ongiga G‘arb mamlakatlarining odatlari, qadriyatlari, an‘analari suqilib kirmoqda. Bu an‘analalar bilan birgalikda yoshlarimiz ongiga manfaatparastlik, individualizm, behayolik, axloqsizlik kabi salbiy illatlar ham kirib bormoqda. Bu juda tashvishli holat. Qachonki, yoshlarning hayotiy pozitsiyasi zaif, ular mustaqil fikrlashga o‘rganmagan va yaxshi oilaviy tarbiya olmagan bo‘lsa, bunday illatlar osongina shunday yoshlarni asir qilib oladi. Bunday holatda ham maskuraviy immunitet rolini sog‘lom ijtimoiy muhit o‘ynaydi. Shunday ekan, ijtimoiy muhitimizning sofligi uchun kurashishga to‘g‘ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, oila o‘zaro hurmat, burch, ezungulik, mehr-oqibat, vijdon qonunlari asosida qurilganda sog‘lom ijtimoiy muhit yuzaga keladi va o‘zining ko‘p asrlik mustahkam ma‘naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, shunda demokratik negizlarga asos solinadi, ularning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi.

Pedagog: Barcha ma’ruzalar tinglandi, endi munozaraga o‘tamiz.

Talabalar uch guruhgaga bo‘linib ishlaydilar. Har bir ma’ruza o‘sha guruhi a’zolari tomonidan himoya qilinadi. Pedagog mashg‘ulot davomida talabalarning xatolarini to‘g‘rilab, ularni baholab boradi. Talabalarni baholashda 5.2-jadval va talabalarning o‘zaro berilgan savol-javoblaridan samarali foydalaniladi.

¹ Бьюкенен П.Д. Смерть Запада. – М.: Изд-во «АСТ», 2003.

Shu bilan, «Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o‘rnini» mavzusidagi amaliy o‘quv mashg‘ulotimiz tugadi, yana uchrashguncha xayr, omon bo‘linglar!

5.3. «Ijtimoiy-axloqiy muhit akmeshaxs shakllanishining asosiy omili sifatida» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi

5.3.1-jadval

«Ijtimoiy-axloqiy muhit akmeshaxs shakllanishining asosiy omili sifatida» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt

T/r	Mikro-modullarning maqsadlari	Ajratilgan vaqt	Bajariladigan ish-harakatlar
1.	Ijtimoiy muhit alohida guruh, individlarning ma’naviy atmosferasi, partiylar jamoasining siyosiy burch va mafkurasi ta’sirida shakllanishi	20 daqiqa	Yozish
2.	Yoshlarni akmeologik ruhda tarbiyalash jamiyatning ustuvor ahamiyatga ega vazifasi sifatida	20 daqiqa	Tinglash. Munozara
3.	Shaxsning ongi va faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar	20 daqiqa	Tinglash. Munozara
4.	Ijtimoiy muhitning akmeshaxs shakllanishidagi o‘rnini tahlil etishda N.F.Reymers nazariyasi	20 daqiqa	Tinglash. Munozara
5.	Talabalar bilimini yakuniy baholash	10 daqiqa	Savol-javoblar va mavzuni mustahkamlash

5.3.2-jadval

«Ijtimoiy-axloqiy muhit akmeshaxs shakllanishining asosiy omili sifatida» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi va pedagogik usullar

T/r	Qabul qilingan o‘quv mashg‘ulotining tipi	Qo‘llaniladigan pedagogik usullar
1.	«Amaliy o‘quv mashg‘uloti»	«O‘qish va yozish»
2.	«Ma’ruza», «Diskussiya»	«O‘qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
3.	«Ma’ruza», «Diskussiya»	«O‘qish va yozish», «Kichik guruhlarda ishlash»
4.	«Qaytarish va mustahkamlash»	«Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujum», «BBB»

5.3.3-jadval

«Ijtimoiy-axloqiy muhit akmeshaxs shakllanishining asosiy omili sifatida» mikro-moduli tarkibidagi mikro-modullarda qo‘llaniladigan savollar

T/r	Nazorat savollari
1.	Farzand tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning roli haqida qadimda qanday qarashlar mavjud bo‘lgan?
2.	Markaziy Osiyo mutafakkirlarining oila masalalariga bag‘ishlangan ilk falsafiy qarashlari.
3.	Islom dinining muqaddas manbalari va hadislarda oila masalalariga qanday o‘rin berilgan?
4.	Oila masalasi jadid ma’rifatparvarlari asarlarida qanday yoritilgan?
5.	A.Avloniyning bola tarbiyasi haqidagi nazariyasini bilasizmi? Uni Reymers nazariyasini bilan taqqoslang.
6.	Mustaqil O‘zbekistondagi tadqiqotchi olimlarning oila masalasidagi qarashlariga misol keltiring.

Endi ushbu mashg‘ulot ssenariysini keltiramiz.

Pedagog «tanishuv» va «aytib berish» usullarini qo‘llab, hamda yozuv doskasi va kompyuterdan foydalanib, o‘quv mashg‘ulotini quyidagicha boshlaydi.

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Bugungi nazariy mashg‘ulotimizning mavzusi: «**Ijtimoiy-axloqiy muhit akmeshaxs shakllanishining asosiy omili sifatida**» deb nomlanadi.

Bugungi nazariy mashg‘ulotimiz fan bo‘yicha oxirgi ma’ruza bo‘lganligi uchun men sizlarga yangi ma’lumotlar bermoqchi edim. Siz ana shu ma’lumotlarni o‘z daftarlaringizga yozib olishingizni so‘rayman. Ma’ruzalarni avval eshitib, so‘ngra muhokamaga o‘tamiz.

So‘z yordamida. Ijtimoiy muhit alohida guruh, individlarning ma’naviy atmosferasi, partiylar jamoasining siyosiy burchi va maskurasi ta’sirida shakllanadi va natijada jamiyatning siyosiy-psixologik atmosferasi va axloqiy-psixologik iqlimi yuzaga keldi. Bu muhit kishilar, ayniqsa, yoshlar tafakkuri, ma’naviyati, shaxsiy hayoti, turmush tarzi, bilimi, mehnat faoliyatiga sezilarli darajada (vaziyatga qarab ijobji, salbiy) ta’sir o‘tkazadi.

Shu bois, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni komillikka yo‘naltirib tarbiyalashda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy qadriyatlarni tiklash va e’zozlash muhim jarayondir. Chunki «**Faqat chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin**»¹. Shu bois, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiya – sog‘lom turmush tarzini vujudga keltirishning muhim jihatlari ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – T.: «O‘zbekiston», 1998. –325-b.

Haqiqatan ham, yoshlarni akmeologik ruhda tarbiyalash jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari va boshqaruv tizimi, davlat hokimiyati, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy institutlar, mehnat jamoalarini ijtimoiy muhit va tarbiyaning tarkibiy elementlari bo‘lib, unda davlat tizimi, siyosiy tashkilotlar, iqtisodiy munosa-batlarning o‘tni alohida ustuvor ahamiyatga egadir.

Muhit har xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, tabiiy muhit, geografik muhit, siyosiy muhit, iqtisodiy muhit, ma’naviy muhit, ilmiy-ijodiy muhit, ijtimoiy muhit va h.k. lar.

Ijtimoiy muhit – shaxsnинг ongi va faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar yig‘indisidir. «Ijtimoiy muhit» tu-shunchasi haqida mualliflarining¹ turli, ayrim hollarda, hatto bir-biriga qarama-qarshi ta’riflari uchraydi. Masalan, ijtimoiy muhit kategoriyasining mohiyati haqida ayrim mualliflar uni insonning atrofini o‘rab turuvchi «ikkinchı olam»² sifatida qara-salar, **ikkinchı** bir guruh olimlar «jamoaning ruhiy holati»³

¹ Ziyomuhamedov B.G‘. Ekologiya va ma’naviyat. – T.: «Sharq», 1997; Ziyomuhamedov B.G‘., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – 12-b.; Попов С. Сознание и социальная среда. – М.: «Прогресс», 1979; Буева Л.П. Социальная среда и сознание личности. – М.: «Прогресс», 1968.

² Буева Л.П. Социальная среда и сознание личности. – М.: «Прогресс», 1968; Буева Л.П. Социальная среда и формирование гармоничной личности. – М.: «Знание», 1971; Попов С. Сознание и социальная среда. – М.: «Прогресс», 1979; Новикова Л.И. Школа и среда. – М.: «Знание», 1985; Реймерс Н.Ф. Природопользование: Словарь-справочник. – М.: «Мысль», 1990; Семенов В.Д. Взаимосвязь школы и социальной среды. – М.: «Педагогика», 1986.

³ Локк Дж. Избранные философские произведения. – М., 1960; Парыгин Б.Д. Социально-психологический климат коллектива: пути и методы изучения. – Л.: «Наука», 1981; Ошио. Осознанность. Ключ к жизни в равновесии. – СПб.: «Весь», 2006; Павлов Б.С. Социально-классовая преемственность и воспитание молодых рабочих. – М.: 1984; Сикевич З.В. Социология и психология национальных отношений. – СПб.: 1999; Чередниченко Г.А., Шубкин В.Н. Молодёжь вступает в жизнь. – М.: «Мысль», 1985.

deydiłar, uchinçhilari esa «moddiy olam»¹, yana birlari esa «insonning ongiga ta'sir etuvchi xolodayn»² deb e'tirof etadilar. Bunday qarama-qarshi fikrlarning yuzaga kelishining asosiy sababi shuki, ko'pchilik mualliflar «ijtimoiy muhit» kategoriyasiga mantiqiy ta'rif berish o'miga, uning u yoki bu sifatini alohida ko'rsatish bilan cheklanadilar.

Biz ijtimoiy muhitning akmeshaxs shakllanishidagi o'rnini tahlil etishda N.F.Reymers nazariyasidan foydalandik. N.F.Reymers ijtimoiy muhitni, «antropogen tipdag'i inson tur-mush tarzining tashqi ekologik omillari sifatida organizm va insonni o'rab turuvchi ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhit» sifatida tahlil etadi³. Bizning fikrimizcha, «ijtimoiy muhit» tushunchasiga berilgan bu ta'rifni to'g'ridan-to'g'ri «jamiyat», ya'ni bir butun tizim ko'rinishidagi jamiyat kategoriyasiga nisbatan ham ishlatish mumkin. Ammo bunday yondoshish tad-qiqotchining biroz chalg'ishiga olib keladi, zero, muhitni tasniflashda uni faqat tabiiy va antropogen turlarga emas, balki tabiiy va ijtimoiy muhit turlariga ham ajratgan ma'qul.

Akmeshaxs taraqqiyotida ishtirok etuvchi ijtimoiy muhit oddiy odamning muhitidan o'zining tolerantligi bilan farq qiladi. Bu nima degani? Bu shuki, akmeshaxsnинг ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida hamkorining irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib

¹ Диодро Д. Сочинения Т. 2. – М., 1935; Гоббс Т. Избранные произведения. В двух томах. Т. 1. – М., 1964; Щепанский Я. Элементарные понятия социологии. – М.: «Мысль», 1969.

² Вульф В. Холдинамика. Как развивать и управлять своей внутренней личностной силой. D-г. Vulif Wernon. Предисловие Ф.Дэвида Пита. Harbinger House Tucson, New-York. Холдинамика. / Пер. с англ. / Общ. ред. Л.Хохловой. – Т., 1994.

³ Реймерс Н.Ф. Природопользование: Словарь-справочник. – М.: «Мысль», 1990. – С. 494.

chiqishidan qat'i nazar u bilan sog'lom raqobat muhitida faoliyat olib boradi va atrofdagilari bilan do'stona munosabat o'rnatadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida inson huquqlarini muhofaza qilishni barcha xalqlar va davlatlar bajarishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qiladi. Bu hujjatning 2-moddasida «Har bir inson, biror-bir ayirmachiliksiz, irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat'i nazar, mazkur deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak», deb ta'kidlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida barcha narsa inson va uning manfaatlari uchun xizmat qilishi aytilgan. Ayni paytda unda barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida teng huquqli ekanliklari e'tirof etiladi (18-modda). Ammo jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish maqsadida Konstitusiyada fuqarolar o'z haq-huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy mansaatlari, huquqlari va erkinliklariga dahl qilmasliklari belgilab qo'yilgan (20-modda)². Bu me'yorlar jamiyatning axloqiy ideal shaxslari bo'lgan — akmeshaxslar uchun tamoyil vazifasini o'taydi.

Akmeshaxs jamiyatda o'zining oratorlik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari bilan ajralib turishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ana shunday fazilatlar va uning ziddi bo'lgan illatlarni jadval ko'rinishida keltirdik:

¹ Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. — Nyu-York, 1996. —5-b.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: «O'zbekiston», 1998. —18, 21-b.

Pedagog akmeshaxsnинг shakllanishinida axloqiy fazilatlar va uning ziddi bo'lgan illatlarni kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi.

5.3. 1-slayd

T/r	Ijobiy fazilatlar	Salbiy illatlar
1.	Jozibadorlik, dilbarlik, ko'r-kamlik. Bunday xislatlar insонни биринчи ко'rishdayoq ko'zga tashlanadi, bunday odamlar jozibali, dilbar, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ko'r kam odam nafaqat tashqi ko'rinishi (kiyinishi), balki muomalasi, odobi bilan e'tibor topadi.	Badbashara, xunuk, odobsiz. Bunday toifadagi insonlar jamoada nafaqat o'zlarining yoqimsiz ko'rinishlari bilan, balki so'zlashuv madaniyatining pastligi bilan yomon taassurot qoldiradi va suhbatdoshini o'zidan bezdiradi.
2.	Kelishganlik. Bunday xislatlar xipcha, yengil, bo'yи bastiga mos, ortiqcha og'irlikdan xoli, kiyimi o'ziga yarashgan, har bir narsasi o'ziga, yoshiga, atrof-muhitiga mos tanlangan, insonlar bilan muloqotga kirishganda odob-axloq me'yorlariga rioxha qiluvchi, maftunkor, afsunkor kishilarga xos. Ko'proq ayollarga xos bo'lib, go'zallik, ishvalik, o'ziga maftun etuvchi o'ziga xoslik bilan xarakterlanadi.	Ko'rimsiz, yoqimsiz, o'zidan boshqalarни uzoqlashtiruvchi.

3.	<p>Ochiqlik. Bunday insonlar barcha bilan teng munosabatda, tolerant, sabr-toqatli bo‘ladi. «Yuz ko‘r, hol so‘r», degan maqol ana shunday kishilar haqida aytilgan bo‘lsa, ajab emas. Ya’ni, ochiq ko‘ngilli insonning yuzida uning ochiq ko‘ngilligi ravshan ko‘rinib turadi.</p>	<p>Tundlik, mug‘ombirlik. Bu kabi insonlar o‘zlarining ni-hoyat darajadagi og‘ir kayfiyatlari bilan ajralib turadilar. Ular yoki ayyor, yoki shu kayfiyatda yurish ularga yoqadi.</p>
4.	<p>Salobat. Xalqimizda mehmonni kiyimiga qarab qarshi olib, aqliga ko‘ra kuzatiladi, degan naql bor. Salobat shaxsni atrofdagilarning nechog‘lik hurmatini balandroq qo‘yishga harakat qilishi bilan tavsiflanadi.</p>	<p>Beobro‘. Jamoada hech qanday mavqe va insonlarning e’tirofiga sazovor bo‘limgan shaxs.</p>
5.	<p>Daho. Ulkan inson, bilimdon, ko‘p ishlarga qurbi yetadigan, har doim og‘ir ishlarning amalga oshishida tashabbusni o‘z gardaniga oladi, ko‘pchilik insonlarning taqdirini ijobjiy tomonga burishga tayyor turadi.</p>	<p>Mas’uliyatsiz, qo‘rqaq. Biror bir ishni oxirigacha yetkazmaydi. Faoliyatida o‘zing manfaatlarini boshqalar-nikidan ustun qo‘yadi. Ulkan ishlardan o‘zini tortadi. Pismiq.</p>
6.	<p>Layerqatlik, monandlik. Insonning tanlagan faoliyat turi va kasbiga nisbatan aqliy, jismoniy, axloqiy, irodaviy xislatlarining uyg‘unlashuvi.</p>	<p>Pala-partish. Yolg‘onchi, ishi bilan gapi boshqa-boshqa insonlar.</p>
7.	<p>Barkamollik, komillik. Odam-zot orzu qilgan jamiki ezgu</p>	<p>Savodsiz, ongsiz. Yetarli bilimga ega bo‘limgan, jami-</p>

	<p>xislatlarning ifodachisi, u go'yo mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'lувchi muqaddas xilqat. Bizning misolimizda barkamollik – bu, insonning hayotdan olgan barcha bilim, ko'nikma va malakalarni yaxshi ishlarga tezkorlik bilan qo'llay olishi. Barkamollik mustaqil va hur fikrli, o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi ba-quvvat, iyemoni butun, hayotda aniq maqsadga ega, aqli, tafakkuri, mehnati, mas'uliyati bilan yashovchi, ongli, eski tushunchalar va aqidalaridan xalos bo'la olish.</p>	<p>yatning ijtimoiy jarayonlariga mutlaqo befarq, xalq g'ami, tashvishi, mas'uliyatidan yiroq, o'z harakatlari uchun javob bera olmaydigan, irodasi bo'sh kishi.</p>
8.	<p>Nafislik. Harir inson o'zining yurish-turishi, tabiatini bilan go'zallik namunasini eslatadi.</p>	<p>Qo'pol, befarosat. Bu kabi insonlarning o'z yaqinlari va atrofdagilarga nisbatan muomalasi kishining g'azabiga sabab bo'lishi mumkin.</p>
9.	<p>Boqiylik. Insonlarning bu hayotda qilgan ishi, yaratgan biror-bir ijodiy ishi, shogirdlari, afsonaviy qahramonligi, xalqiga, butun olam ahalliqa ko'rsatgan mislsiz karomati bilan tarix daftariga nomlarining oltin harflar bilan qayd etilishi. Ba'zi kishilar tirikligidayoq bu mavqega erishadilar. Akmeoliyada bu nihoyatda muhim ahamiyatga ega.</p>	<p>Tirik-murda. Bu kabi insonlar jamiyat uchun biror-bir foydali ish qilish uchun harakat qilmaydi. Ba'zi hollarda esa «zararkunanda» bo'lib qolishlari ham mumkin. Bu ularning ijtimoiy faoliyatlariga bog'liq.</p>

10.	<p>Madaniyatilik. E'tirof etish lozimki, har bir millatga xos odob-axloq me'yorlarining umuminsoniy, madaniylik elementlari bilan hamohang bo'lishi. O'zbek milliy mentalitetida kamsuqumlilik, odob-lilik, o'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'-lish, jiddiylik, bosiqlik, moslashuvchanlik, ziyolilik, odilik va oddiylik xislatlari mu-jassamdir.</p>	<p>Madaniyatsiz, tarbiyasiz,adolatsiz. Bu kabi insonlarda ko'pchilik hollarda manmanlik, kaltafahmlik, yengiltaklik, biror-bir ishda qo'nim bilmaslik, betoqatlik kuzatiladi.</p>
-----	---	--


Albatta, inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. Zero, yuqorida qayd etilgan xislat va fazilatlar biror-bir kishida sof holda uchramasligi ham mumkin. Bu xislatlarning shaxsda shakllanishi uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga chambarchas bog'liqdir.

Biz akmeshaxsnı o'rab turib, uning ongi hamda faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazuvchi barcha ijtimoiy shartsharoitlar, ijtimoiy muhitni aniqlashda N.F.Reymers nazariyasiga asoslandik.

Pedagog muhitni tasniflash bo'yicha N.F.Reymers nazariyasini kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi (5.3.2-rasm).

Ijtimoiy muhitni bargaror, muqim va dinamik (o'zgaruvchan) ijtimoiy muhitlarga ajratish mumkin. Birinchisi, muqim, bargaror ijtimoiy muhit – individning tug'ilib o'sgan joyiga bog'liqdir. Bu muhitga oila, mehribonlik uylari, mahalla kiradi. Oilada, otanya, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lар ta'sirida bola ilk tasavvurlarni oladi va uni o'rab turgan insonlar bilan ijtimoiy munosabatda bo'ladi.

Muhitni tasniflash bo'yicha N.F.Reymers nazariyasi



Shunday ekan, tarbiyaning asosiy o'zagiga oiladayoq poydevor qo'yiladi va bu tarbiya uning butun umri davomida berilgan boshqa ta'lim-tarbiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi. «Demak, tarbiyan dan gap ochishdan ilgari oila va undagi ruhiy muhit haqida gap yuritish lozim bo'ladi»¹. Oila muhitidan tubdan farq qilsa-da,

¹ Yo'ldoshev M. Oilada ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri. — T.: «Sanostandart» MCHJ, 2004. — 5-b.

mehribonlik uylari muhiti bolaning ilk tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Zero, ayrim sabablarga ko'ra, bola tug'ilgach shu yerga olib kelinadi va ba'zi hollarda butun hayotining eng asosiy qismi bo'lgan bolalik davri mehribonlik uyi muhiti bilan aloqadorlikda o'tadi. Shu jihatdan ham biz mehribonlik uyi muhitini barqaror, muqim muhitlar qatoriga qo'shdik. Ammo barqaror, muqim muhit ham o'zgaradi, uning turg'unligi nisbiydir.

Ikkinchisi, inson muayyan ideal bilan yashaydi. Ammo uning hayoti hamma vaqt ham ideal emas, balki u doimo o'zgaruvchan jonli hayot, real borliq, ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir. Hozirgi zamon tashqi muhiti o'ta dinamik o'zgaruvchanligi, doimo almashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunda davr, zamon, hatto asr xarakterining o'ziga xos tomonlari, jumladan, ijtimoiy jarayonlar va ma'lumotlar almashinuvining tezligi, beqarorligi tendensiya-sining inson taqdiriga turli xil darajada ta'sir etishi mumkinligini e'tiborga olmoq zarur. Ya'ni, hamma narsa har qanday daqiqada o'zgarishi, kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun dinamik-o'zgaruvchan muhitning tarkibiga:

- ta'lim-tarbiya maskanlari;
- mahalla;
- yoshlar tashkilotlari;
- siyosiy partiyalari;
- turli davlat va nodavlat tashkilotlar;
- diniy muassasalar;
- turli guruhlar, uyushmalar;
- xalqaro miqyosdagi birlashmalari kabilar kiradi.

Zamon o'zgarishi bilan muhitlar ham shaklan, ham mazmunan o'zgarib boradi.


Ijtimoiy muhit shaklan uch turga bo'linadi mikro (kichik), mezo (o'rta) va makro (yirik) muhitlar¹.

¹ Normurodov B. Ijtimoiy muhit va uning taraqqiyotdagi o'mni va roli. // «Ta'lif-tarbiya jarayonida ijtimoiy muhitning roli» ilmiy-amaliy seminarining maqolalar to'plami. – Qarshi: QarMII, 2004. –21–23-b.

Pedagog muhitlarning ijtimoiy makon xususiyatlariga ko‘ra turlarini kompyuterdan PowerPoint slaydi ko‘rinishida namoyish etadi (5.3.3-rasm).

5.3.3-slayd

Muhitlarning ijtimoiy makon xususiyatlariga ko‘ra turlari



1. Mikromuhit – shaxsning shakllanishi va kundalik hayoti kechayotgan bevosita shart-sharoitlar hisoblanadi. Unga oila, mehribonlik uylari, o‘quv, mehnat jamoalari kabilar kiradi. Shaxsning shakllanishi va faoliyati mana shu bevosita sharoit ta’sirida kechadi va ko‘p jihatdan ularning yo‘nalishi, darajasi hamda boshqa sifatlari shu muhit bilan belgilanadi. Jumladan, o‘sib kelayotgan yosh avlodning kamolotiga ta’sir etuvchi omillarning majmuyini umumiy ko‘rinishda ijtimoiy omillar jarayoni deb oladigan bo‘lsak, mikromuhit ana shu jarayon kechadigan kichik bir uyushma hisoblanadi. Shuningdek, shaxs mikromuhitda faoliyat olib borar ekan, uning bu faoliyati tufayli mikromuhit ham o‘zgarib boradi.

Shaxs mikromuhitga faol ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning mikromuhitga ta’sir darajasi uning ijtimoiy quvvati – aql-zakovati, ehtirosi va irodasi bilan belgilanadi. Jumladan, oilada bolani ertak, maqol, qo‘sniq, afsona, topishmoq, latifalar, nasihatlar,

rag'batlantirish, maqtov, namuna ko'rsatish, taqiqlash, majbur etish usullari orqali tarbiyalash ularning xulq-atvori, xattiharakati, ijobiy va salbiy xususiyatlari haqida fikr bildirishni talab qilish yo'li bilan ulardaadolat, to'g'rilik, yaxshilikning doimo yovuzlik, nopolik ustidan g'alaba qozonishi xususidagi tushunchaning shakllanishiga olib keladi. Ayni paytda bolalar yaxshi fazilat va yomon xislatlarni bilib olishadi, hurmat va muruvvat,adolat, do'stlik kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Natijada butun hayotlari davomida bu o'gitlar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo'lib xizmat qiladi. Natijada bola oila ijtimoiy muhitini sog'lomlashdirishda o'z hissasini qo'shadi.

2. Mezomuhit – *inson va u yashayotgan mikromuhitdagi hayoti hamda faoliyatida yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy tizimlar mezomuhitni tashkil qiladi. Mikromuhit mana shu tizimlar ta'sirida shakllanadi va uning ta'sirida mezomuhit ham o'zgaradi. Falsafada, hozirgi kungacha amal qilayotgan an'anaga ko'ra, ijtimoiy muhitni mikro va mezomuhitga bo'lish jamiyatning tarkibiy tizimini o'rganish uchun yetarli emas. Mikromuhit yoki makromuhitlar mezomuhit tarkibiga bevosita emas, balki oraliq tizimlar vositasida birikadi. Masalan, oila mikromuhit sifatida bevosita jamiyatga emas, avvalo, mahalla, xalq, elat, millat, mamlakat tarkibiga kiradi va so'ngra ular jamiyatning muhim bo'lagiga aylanadi.*

3. Mikromuhit – *inson o'zi yashab faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat va uni o'rab turgan dunyoning ijtimoiy jarayonlaridir. Mikrodunyo – xalqlar ma'naviyatini, millatlar madaniyatini ularning o'zaro ijtimoiy aloqalari orqali ifoda etuvchi bir qobiq. Mikromuhitga davlat siyosati darajasida Yer sharida mavjud boshqa davlatlarda yuz berayotgan barcha voqeja va hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati kiradi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasida keyingi yillarda eng dolzarb muammolardan biri deb*

qayd etilgan narkomaniya va narkobiznes xavfi, terrorizm balosi ularning yo‘nalishini, (shaxslararo) psixologik munosabatlarni ifodalovchi jamiyatning psixoiitimoiy infratuzilmasidir.

*Ijtimoiy muhit so‘zining kengroq ma’nosi — bu, shaxsning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan jamiyat, ijtimoiy tuzum. Ijtimoiy mayjudot sifatida akmeshaxslarni qayta tayyorlash va tarbiyalash hamda buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratish aynan shu tuzumning tamoyillarida nazarda tutiladi. Bu borada Yurtboshimiz aytganidek, «**Tariximizning qaysi davrini olmaylik, ilmu ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to‘xtamaganini, xalqimiz dahosining o‘lmas timsoli sifatida eng og ‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib kelganini ko‘rishimiz mumkin»¹. Demak, bu boqiy va muqaddas merosimiz durdonalari sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va barkamol avlod bo‘lib yetishishimizga yordam beradi. Ularda insonparvarlik, yurtparvarlik, bir-biriga daxldorlik, bag‘rikenglik, halollik, ilm-ma’rifatga muhabbat, kasb-hunarga sadoqat, Vatanga sodiqlik tuyg‘ularini kamol toptiradi.***

Mamlakatimiz istiqlol tufayli totalitar davlat tizimidan ozod bo‘ldi, xalqimizning o‘z milliy mustaqilligiga ega bo‘lib, jamiyatning bo‘lajak poydevori hisoblangan yosh avlodning erkin rivojlanishiga keng yo‘l ochildi. Jamiyatdagi hurfikrlilik ko‘ppartiyaviy siyosiy muhitni vujudga keltirdi, mulk munosabatlari o‘zgardi, mulkka yangicha munosabat shakllandi va erkin rivojlanmoqda. Davlat mulkinining hukmronligi tugatilib, xilma-xil mulk shakllari paydo bo‘ldi, bu esa jamiyatdagи ijtimoiy muhit va tarbiyaning tubdan o‘zgarishiga olib keldi.

Bugungi XXI asr avlodni har jihatdan bilimdon, aqli, qobiliyatli, odobli, har qanday murakkab vazifalarни bajarishga qodir bo‘la

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: «Ma’naviyat», 2008. —49-b.

oladi, deb ishonch va g'urur bilan e'tirof etadilar Yurtboshimiz. Xotira va qadrlash kuni Prezidentimiz yoshlar salohiyati, shijoati, qobiliyatini yuksak baholab, ota-bobolar boshlagan ishlarni, ezgu maqsadlarga erishish uchun munosib farzand bo'la olishlariga, jamiyat rivojida salmoqli o'rin egallahshlariga yuksak ishonch bildirdilar. Kelajagimiz egasi yoshlarimiz har jihatdan bilimli, axloqiy yetuk, shaxs sifatida mukammal, zamonaviy texnika va texnologiyani chuqur egallahgan mutaxassis bo'lishlari uchun hamma imkoniyatlar mavjud.

Akmeshaxs shakllanishining omillaridan yana biri – bu sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasidir. Inson salomatligini yaxshilash tabiiy muhit bilan bir qatorda ijtimoiy muhitning holati bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, inson sog'lig'i davlat mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham insonning biosotsial salomatligini asrash yo'li orqali ijtimoiy muhit holatini mo'tadil saqlashga intilish, shular asosida akmeshaxslarni shakllantirish imkoniyatini qo'iga kiritish davlat ahamiyatiga molik vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bois, yoshlarimizni mustaqil vatanimizda globallashuv sharoitida xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi o'ta zararli illatlar, mafkuraviy ta'sirlarga berilmaydigan barkamol avlodni tarbiyalash, ijtimoiy muhitning tamoyil va omillarini yanada mustahkamlash lozimligini ilmiy asoslashni talab qiladi. Zero, ularni mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaati uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga, hayotni aniq manfaat va maqsadga muvofiq istiqbolli tomonqa o'zgartirishga qodir qilib tarbiyalash dasturning asosiy maqsadidir. Bu vazifalarni bajarish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Ijtimoiy muhit ta'sirida yoshlarda akmeologik qarashlarni shakllantirish kelajakka yo'nalganligi bilan tahsinga sazovordir.

Shu jihatdan ham shaxs rivojining yoshlik davrini o'rganishda akmeologiya muhim o'rinni egallaydi. Ushbu fan asosida ko'p asrlar mobaynidagi inson g'oyalalarining ulkan madaniyati yotadi. Ular tom ma'noda insonlardagi nozik va qimmatli tuyg'ularni, ulardagи ijodiyot va mukammallahuvga bo'lgan qobiliyatni o'z ichiga oladi.

Qobiliyat, iste'dod, komillik, odamdagi intiluvchanlik akmeologiya bilan uzviy bog'liq. Intiluvchanlik – istak, xohish, mayl, qiziqish, xobbi va boshqalar o'zini ochiq yoki yashirin holda ko'rsatadi. Akmeologiya shuning uchun ham «Intilganga tole yor», «Xudo yorlaqagan» kasb-korga erishish qonunlari va mexanizmlarini o'rganmoqda. Ushbu harakatdagi akmeologiya fani hal etishi lozim bo'lgan muammolardan biri inson va ijtimoiy muhitning tavsiflaridagi bir-biri bilan o'zaro aloqasini ochib berish hisoblanadi. Mustaqil fikr yurita oladigan shaxs, jamiyat manfaati uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga, hayotni samarali manfaat va maqsadga muvofiq istiqbolli tomoniga o'zgartirishga qodir komil insonni ijtimoiy muhitning ham obyekti, ham subyekti sifatida o'rganish ijtimoiy falsafaning eng muhim ilmiy muammolaridan biridir.

Individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatidagi rivojlanishlarni yuqori cho'qqiga olib chiqadigan tarzda ularni shakllantirishi bu o'zaro harakatning natijasidir. Demak, o'z rivojlanishida odam jismonan sog'liqning qay darajasiga ko'tarila oladi, uning voqelikka bo'lgan munosabatlarida hayot va madaniyatning qanday qadriyatlari o'z aksini topadi, o'z mehnatida jamiyat uchun eng muhim natijalarning qanday ijodkori bo'la oladi, degan umumiyl savollar barcha mutaxassislarni qiziqtiradi. Odamning ushbu cho'qqilar tomon shakllanishi ijtimoiy muhitda ham jismonan, ham ruhan yaqin bo'ladigan odamlar va ularning uyushmasi bilan kunda kechadigan jarayonlarida sodir bo'ladi.

*Bunday odamlar uyushmasi bo'lib
maskani, guruhdagi do'stlar, pedagoglar,*

Hozirgi paytda diyorimizning barcha
va yaratilayotgan nozu-ne'matlar umumi
akmesidagi o'ziga xoslikni, uni individual
biat va ijtimoiy mikro va makromuhitlar
mumkin. Akme fenomenidagi yagonalik esa
darajadagi irlsiy yoki tug'ma xususiyatlari biriki
gensiyasi) natijasi bo'lib chiqadi. Faoliyat su
odam erishadigan akmelar, xususan, kasban si aylanadigan
akmelar kasbiy tanloving ustunligi, uni muvaffaqiyatli bajarish
ko'p hollarda uning psixofiziologik va ijtimoiy-psixologik
xususiyatlari bilan tutashib ketadi.

Ilm, fan-texnika aniqlikka, haqiqiylikka intilishi turgan gap,
bu uning maqsadi. Ammo isbotini topmagan taxminlar, haddan
ziyod hisob-kitoblar voqelikka to'la mos kelarmakin? Har bir
odam o'zicha rivojlanadi va ularning har birida muhit va irlsiylik
ta'sirining ulushi bor, albatta. Ammo bizning fikrimizcha,
irlsiylik va ijtimoiy muhitdagi tarbiya va ta'lif muhim o'rinc
tutadi.

Ta'lif va tarbiya muhitining jamiyatga to'laqonli shaxslarni
yetkazib berishga qobil va qodir ulkan kuch ekanligini o'zbek
voqeligidagi o'z cho'qqisiga chiqayotgan yoshlar misoldida
ko'rayapmiz. Uni boshqarishda barcha vositalardan: ta'lifot,
metodlar, tamoyillar, yondashuvlar, paradigmalar va boshqa
lardan to'xtovsiz va tizimli hamda maqsadli foydalanishimiz
natijasi bo'lmoqda.

Akmeologik qarash – odam o'sishi, rivojlanishi va mukam-
mallashuvi dasturidagi oq dog'larni yopadi va bo'sh o'rinnlarni
to'ldirishga xizmat etadi. Bunyod etilgan ijtimoiy muhit vazifasi – yangi tafakkur, yangicha yashash stili asosida va yoshlar-
ning individual xususiyatlariga, qobiliyat va imkoniyatlariga

anollik, mukammallikka (mikro va makro-)
i ochib berishdan iborat bo'ladi.
Qo'qotlarning ko'rsatishicha, tabiat tomonidan berilgan
soiliyat nishonalariga tayangandagina odamdag'i ma'lum xossa
va sisatlarning rivojlanib borishini ta'minlash mumkin. Bunda
XXI asrning tezkor o'zgarishlarida, globallashuv va axborotla-
shuv jarayonlarida ijtimoiy muhit ijobiy innovatsion rivojlanish
darajasiga tayanadi. Akmelar tomon rivojlanish va muhit
o'rtaqidagi o'zaro munosabatlarning murakkab dialektikasi ana
shulardan iborat. Yaratilayotgan ijtimoiy muhit samarasini irlashtirish
bilan shartlangan ta'lim va tarbiyada ko'zga tashlanadi.

*Demak, akmelarning ro'yobga chiqishi ularning reallik daraja-
siga, imkoniyatlarni, ichki resurslarni qay darajada mos kelishiga
bog'liq. O'zining bolaligidan ezgu niyatlarini hayotda to'liq na-
moyon qilib, O'zbekistonni dunyoga tanitayotgan ko'plab sportchi,
sanatkor, hunarmand ustalar, iste'dod egalarining ezgu ishlari
yoshlarga o'rnak bo'lishi kerak. Dunyoga mashhur bo'lgan
olimlarimizning hayot yo'li o'z cho'qqisiga ega bo'lib, yoshlar
uchun saboq bo'lmog'i lozim.*

Bu, o'z navbatida, shaxsiy g'alaba va ijtimoiy g'alaba nashi-
dasi: «Men buni qildim», «Men qodirman, qobilman» bilan undagi
motivatsiya va rag'bat oqibatining birligidagi ifodasi. Endilikda
yoshlarning intellektual salohiyatlarini, xulqlarini, motivatsiyasini,
emotionsiallikni, ijtimoiy xulqning rivojini va boshqa muhim
sifatlarini shakllantirishda akmeologik qarashlarning ahamiyati
tobora ortib bormoqda. Bularning rivojlanishi esa, albatta ijtimoiy
shaxsni o'rab turgan ijtimoiy-axloqiy muhitga chambarchas
bog'liq.

Ammo barqaror, muqim muhit ham o'zgaradi, uning turg'unligi
nisbiydir. Zero, inson muayyan ideal bilan yashaydi. Ammo, uning
hayoti hamma vaqt ham ideal emas, balki u doimo o'zgaruvchan
jonli hayot, real borliq, ijtimoiy muhit bilan bog'likdir.

Shu o'rinda, N.A.Ribnikov olib borgan tadqiqotlar natijasida yosh bolalarning nazaridagi «mahalliy ideal»lar — ota-onalari, yaqin qarindoshlar, so'ngra «mahalliy arbob»lar — o'qituvchilar va shu kabi o'qimishli kishilar, biroz katta yoshga yetgach esa, ularning o'mini «tarixiy-adabiy ideallar» egallar ekan¹.

1913—1916-yillar davomida Rossiya, AQSH, Germaniya va Fransiya maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarda «Sizning idealingiz kimlar?» deb berilgan savolga javoblar qiziqlarli natijalarini bergan.

Pedagog ushbu so'rvonoma natijalarini kompyuterdan PowerPoint slaydi ko'rinishida namoyish etadi (5.3.4-slayd)².

5.3.4-slayd

Sizning idealingiz kimlar?			
Rossiyalik o'quvchilar	AQSHlik o'quvchilar	Germaniyalik o'quvchilar	Fransiyalik o'quvchilar
1913-yilda			
L.N.Tolstoy (3,0%), Pushkin (2,5%), Lomonosov (2,5%), Petr I (2,0%), Suvorov (1,5%), Gogol (1,5%), Edison (0,9%), Napoleon (0,7%), Kutuzov (0,5%), Sherlok Xolms (0,3%).	Vashington (19,5%), Linkoln (8,3 %); Edison (3,2%), Longfello (2,4%), Ruzvelt (1,6%), Vilgelm Tell (0,8%), Vilson (1,2%), Kolumb (1,1%).	Lyuter (8,8%), Bismark (2,6%), Vilgelm II (2,3%), Fridrix Buyuk (1,2%), Shiller (1,0%), Vilgelm Tell (0,8%), Sepellin (0,6%), Gyote (0,4%).	Paster (9,7%), Napoleon (2,8%), Gvugo (2,3%), Lamartin (1,2%), Vashington (1,0%), Edison (0,9%), Kolber (0,9%), Genrix IV (0,75%), Sokrat (0,6%).

¹ Рыбников Н.А. Деревенский школьник и его идеалы. — М., 1916.

² O'sha joyda.

1924 yilga kelib			
Lenin (4,9%), Pushkin (2,5%), Lermontov (1,1%), Trotskiy (1,0%), Marks (0,9%), Gogol (0,6%), Edison (0,5%), Stefenson (0,5%).	O'zgarmagan	O'zgarmagan	O'zgarmagan

Jadvaldan ko'riniб turibdiki, bolalar o'z davrining taniqli davlat arboblari va badiiy qahramonlarni «axloqiy ideal» sifatida tanlaganlar va hayotda ularga taqlid qilganlar. Davrlarning o'zgarishi ularning «axloqiy ideallari»ning o'zgarishiga olib kelgan. Bu esa yoshlarni akmeshaxs etib shakllantirishda aynan ibrat mакtabiga alohida e'tibor berish lozim, degan xulosaga olib keladi. Biz bugungi kunda ham N.A.Ribnikov yaratgan metodikadan yoshlarni tarbiyalashda foydalanishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Zero, bola o'zining axloqiy ideal shaxslariga o'xshashga harakat qiladi. Shunday ekan, ibrat mакtabini ta'lif-tarbiyaning barcha bo'g'inlariga joriy etish foydadan xoli bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ijtimoiy muhit ta'sirida axloqiy fazilatlarni o'zlashtirishiga akmeologik nuqtayi nazardan yondashsak ikki holatga duch kelamiz.

Birinchisi, shaxs bu fazilatlarni o'zlashtirishi bilan ma'naviy-axloqiy va xatti-harakat jihatdan mahorat hosil qiladi.

Ikkinchisi, shaxs bu fazilatlarni o'zlashtirishi natijasida ijtimoiy hayotda o'z mavqeini mustahkamlab oladi.

Ammo har ikkala holatda ham salbiy xususiyatlarning kelib chiqmasligi uchun axloqiy muvozanatni tartibga solib turuvchi mezonlar aniq bo'lishi kerak.

Bizningcha, bugungi kunda jamiyatimizda bunday mezon vazifasini O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» bajarishi mumkin. Ayni paytda, axloqiy muvazanatning ilmiy-nazariy mezolarini belgilab olishga ehtiyoj bor. Chunki bulardan to‘g‘ri foy-dalanish shaxsning akmeologik cho‘qqini egallashi uchun asosiy pillapoya vazifasini bajarishi mumkin. Sir emas, ba’zi shaxslar (guruuhlar, ijtimoiy qatlamlar) tor manfaatlarni ko‘zlab, arzimagan omad tufayli jamiyatda o‘z mavqelarini ko‘tarishga intiladilar. Bunday ko‘tarilishni ayrim holatlarda «yulduzlik» kasa-liga qiyoslash ham mumkin.

Ammo ma’lum vaqt o‘tgach, bu shaxslar qanday tezlik bilan ko‘tarilgan bo‘lsalar, o’shandek qulaydilar. Ana shunday qulashning yuz bermasligining oldini olish esa bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, akmeshaxsnинг o‘z tanlagan kasbi, mashg‘ulotini sevishi va unga nisbatan «akmeologik moyillik»ning mavjudligi.

Ikkinchidan, professionalizmga erishish borasida akmeshaxsga yaratib berilgan ijtimoiy-axloqiy muhit. O‘sib kelayotgan yosh avlodning kamolotiga ta’sir etuvchi omillarning majmuyini umumiyo ko‘rinishda ijtimoiy omillar jarayoni deb oladigan bo‘sak, mikromuhit ana shu jarayon kechadigan kichik bir uyushma hisoblanadi. Shuningdek, shaxs mikromuhitda faoliyat olib borar ekan, uning bu faoliyati tufayli mikromuhit ham o‘zgarib boradi.

Shaxs mikromuhitga faol ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning mikromuhitga ta’sir darajasi uning ijtimoiy quvvati – aql-zakovati, ehtirosi va irodasi bilan belgilanadi. Jumladan, oilada bolani ertak, maqol, qo’shiq, afsona, topishmoq, latifalar, nasihatlar, rag‘batlantirish, maqtov, namuna ko‘rsatish, taqiqlash, majbur etish usullari orqali tarbiyalash ularning xulq-atvori, xattiharakati, ijobjiy va salbiy xususiyatlari haqida fikr bildirishni talab

qilish yo'li bilan ulardaadolat, to'g'rilik, yaxshilikning doimo yovuzlik, nopolik ustidan g'alaba qozonishi xususidagi tushunchaning shakllanishiga olib keladi. Ayni paytda bolalar yaxshi fazilat va yomon xislatlarni bilib olishadi, hurmat va muruvvat,adolat, do'stlik kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'llishadi. Natijada butun hayotlari davomida bu o'g'itlar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo'lib xizmat qiladi. Natijada bola oila ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirishda o'z hissasini qo'shadi.

Uchinchidan, kasb-korlik yuzasidan olingen malakali bilim, tajriba. Fan arbobi, professor X.O.Shayxovaning fikricha, jamiyat taraqqiyotining istiqboli – shaxs, ayniqsa yosh avlodning tafakkuri va ma'naviy-axloqiy qarashlariga asoslanadi. Oilada ota-onaning ibratli odobi, xulqi farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Ya'ni ma'naviy-axloqiy tarbiya ijtimoiy muhitni vujudga keltirib, ta'limning uzbek qismiga aylanmoqda. Zero, o'zbekona ma'naviy-axloqiy tarbiya o'zining betakror qadriyatlariga ega va ular meros sifatida o'tib, sog'lom avlod kamolotida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

To'rtinchidan, akmeshaxsnинг milliy va umuminsoniy tamoyillarga qat'iy amal qilishi, halollik va h.k.

Umuman olganda, biz akmeshaxsnинг yuqorida ta'kidlab o'tilgan mezonlarga amal qilishi, uning omad qanoti yuksaklarga parvozini uzogroq davom etishiga ko'mak berishi mumkin, deya olamiz. Bu borada, albatta ijtimoiy muhitning xususiyatlarini alohida inobatga olmoq muhim.

So'z yordamida. Hurmatli talabalar, biz yuqorida akmeologiya faniga oid barcha mavzular yuzasidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda gaplashib oldik. Siz yozuv daftaringizdagi barcha konspektlar va qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida ushbu materialni yaxshilab o'zlashtirishingiz lozim.

Shu bilan, biz «Akmeologiya» fanining mashg'ulotlarini tugatdik. Yana uchrashguncha xayr, omon bo'linglar!

GLOSSARY

Akmeologiya (yunoncha *akme –cho‘qqi, kamolot, yuksalish, yetuklik, logos – fan*) – ilmiy manbalarda professionalizm va ijod rivojlanishidagi qonuniyatlar va texnologiyani o‘rganuvchi integrativ kompleks fandir. U kasb-kor faoliyatida yuksaklikka erishish uchun yangi yo‘nalish va professionalizmning yuksak darajadagi muvaffaqiyatlar sari yo‘naltirilgan samarador tizimlar darajalarini belgilash usullarini ishlab chiqadi va bu jarayonni tabiiy qonuniyatlarga tatbiq etadi¹, deyilgan. Bizningcha, tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi fandir va insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmini hamda asosan bundanda yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini o‘rganadi. Ushbu atama biror kasbga, biror bir sohaga mehr qo‘yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashni bildiradi. Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «*akmeologik moyillik*» iborasi bo‘lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xususiyatini anglatadi.

Akmeologiyaning ta’lim jihatı – umumiyl, professional va uzlusiz ta’lim tizimida bilim, ko‘nikmalarni aniqlashga hamda oshirishga yo‘naltiriladi.

Akmeologiyaning professional jihatı – mehnat faoliyatidagi imkoniyat va natijalarni mavjud mehnat turi, ushbu jarayonning

¹ Бодалев А.А., Васина Н.В. Акмеология. Настоящий человек. Каков он и как им становится? – СПб: «Речь», 2010. –С. 7.

ijtimoiy holat darajasi va natijasiga ta'sirini kasbiy foydalilik, psixologik tayyorgarlikni tushuntirish orqali baholashga yo'naltirilgan. Zero, shaxs mehnati o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan aqliy mehnat ekan, demak, bu mehnat a'lo o'qishda, ilmiy faoliyatda va fan asoslarini ijodiy o'zlashtirishda o'z ifodasini topadi. Bu esa akmeshaxsning professional faoliyatidir.

Akmeologiyaning kreativ jihatı – sarflangan kuch haqqoniyligini professionalizm, uning mahorat darajasigacha yuksaluvchi refleksiv-innovatsion potensiali va ijod jarayonida olin-gan ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish yo'li bilan belgilashga qaratilgan. Zero, eng dolzarb muammolardan biri – ta'lim, bilim berish sohasidagi umumilmiy davlat dasturimizni yangi bosqichga ko'tarish va yangi mazmun bilan boyitishimiz zamонавиy bilim olish, hayotda kerak bo'lgan kasb-hunarga ega bo'lish va ish bilan ta'minlash hamda har bir yoshning o'ziga xos qobiliyat va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro'yobga chiqarish, mutaxassislik madaniyati, odobi, ijod va yetuklik tajribasini chuqr egallashi bilan muntazam shug'ul-lanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Akmeologiyaning refleksiv jihatı – xuddi rivojlanayotgan «MEN» degan shaxs o'z ongi va ish faoliyati jarayonida hamkorlarning alohida tushunuvchanligi bilan bog'liq inson professionallashuvida ajratilgan akmeologik jihatlarning optimal qo'shiluvini ta'minlovchi sifatida ifodalanadi. Buni akmeshaxsning *muruvvatli* yoki *sahovatli* holati bilan qiyoslash mumkin. Muruvvat va sahovatda umummanfaatdorlik yuzaga keladi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) jamiyatda insonparvarlik keng tarkib topadi;
 - 2) mehr-oqibat va sahovat muhiti rivojlanib boradi;
 - 3) ijtimoiy hamkorlik va birodarlik yuksala boradi;
 - 4) ijtimoiy hamkorlik va birodarlik madaniyati shakllanadi.
- Demak, muruvvat va sahovat qadriyatlarining yuksalishidan ko‘pchilik manfaat ko‘radi. Bu akmeshaxsnинг asosiy fazilatlaridan biridir.

Akmeshaxs – akmeologiyaning asosiy predmeti bo‘lib, uning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim orqali chuqr egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobjiy ta’sirini ku-chaytirishga xizmat qilishini chuqr anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iborat bo‘lib, u insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy dunyosida yuksakroq cho‘qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o‘rganadi. «Akme» – insonning ko‘p o‘l-chamli yuksalish holati, uning hayotini vaqt o‘lchami bo‘yicha ahamiyatli bosqichini qamrab olgan holda, uning jamiyatdagi fuqaroligi, ma’lum faoliyat doirasidagi mutaxassisligi, boy yoki kamtarona yashash turmush tarzi, oilaviy holati, ota yoki ona ekanligi bilan ajralib turadi.

Akmeogramma – bu insonning individual-ruhiy va psixofiziologik o‘ziga xos xususiyati va kasbiy faoliyatini kompleks tarzda tavsiflash bo‘lib¹, buyuk zotlarning o‘sib-ulg‘ayishi va

¹ Акмеология: Учебник. Изд. 2-е. / Под общей ред. А.А.Деркача. – М.: Изд. РАГС, 2006. – С. 134–136.

mukammallashuvi, o‘z kasbi tomon intilishi jarayoni, qanday qilib olamshumul yangiliklar yaratganliklari va liderlik qobiliyatlarini o‘rganadi. Aytish lozimki, ana shunday akmeologik tahlil natijasida insonni yoshligidanoq kasbga yo‘naltirish keljakda samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Natijada, jamiyatimizning ilg‘or akmeshaxslari o‘tmishdagi ajdodlarimiz bosib o‘tgan yo‘l, ular erishgan cho‘qqilar — kamolot va mukammal cho‘qqisiga erishish mexanizmlarini yaxshiroq va mukammal anglaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, bugungi kun nuqtayi nazaridan istiqbolimiz yo‘nalishini ham belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Akmeogrammik xarita asosida shaxsnинг mahsuldarlik qobiliyatini oolib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi ko‘rsatiladi. Zero, samarador faoliyat akmeologiyaning tushuncha apparatini tashkil qiladi.

Antimanipulyativ xulq-atvor — birovlarning shaxsiy qadr-qiymatini, huquqini poymol etmasdan, o‘z qadrini, huquqini bilib unga rioxva etish va talab qila olishdan iboratdir. Buni «assertiv» xulq deyiladi, chunki qachonki inson o‘z xattiharakatlarining chegarasi, me’yorini bilib unga rioxva etsa, birovlarning qadrini, huquqini hurmat qilib, odob doirasida uni joyiga qo‘ya oladi.

Barkamol inson — mustaqil va hur fikrli, o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega, aqli, tafakkuri, mehnati, mas’uliyat bilan yashovchi, ongli, eski tushunchalar va aqidalardan xalos bo‘lgan inson.

Bibliometriya (yunoncha *biblion* — kitob va *metron* — o‘lchov, *metreo* — o‘lchayman) — XX asrning 60-yillarida yuzaga

ga kelgan ilmiy faoliyatda hujjatlar oqimining miqdorini tadqiq etuvchi yangi ilmiy yo‘nalish.

Gerontologiya (yunoncha *gerontos* — qariya, qartayish, *logos* — fan) — inson qarishini o‘rganadigan tibbiy-biologik va psixologik fanlar yig‘indisi.

Globallashuv — insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo‘layotgan jarayonlar tufayli olamshumul ahamiyat kasb etishidir. Uning hozirgi davrda uch manbayi mavjud: 1) kommunikatsiya vositalaridagi tub o‘zgarishlar; 2) investitsiyalardagi yangi jarayon; 3) dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishimi ta’minalashdir. Globallashuvga to‘g‘ri yondashuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlikni ta’minlaydi, davr zARBalaridan omon qolib yashash darajasini yuksaltiradi, ijtimoiy bar-qarorlikni, siyosiy mavqega egalikni ta’minlaydi hamda qo‘shti davlatlar bilan muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson faoliyatining milliy qoliplardan chiqishi, transmilliy shakllarni shu holda yaratish individlar, ijtimoiy guruh va jamoalar, xalqlar va davlatlarning turmush tarzida tub o‘zgarishlar yasaydi.

Dinamik-o‘zgaruvchan ijtimoiy muhit — doimo o‘zgaruvchan jonli hayot, real borliq, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq mehnat faoliyati. Hozirgi zamon tashqi muhiti o‘ta dinamik o‘zgaruvchanligi, doimo almashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunda davr, zamon, hatto asr xarakterining o‘ziga xos tomonlari, jumladan, ijtimoiy jarayonlar va ma’lumotlar almashinuvining tezligi, beqarorligi tendensiyasining inson taqdiriga turli xil darajada ta’sir etishi mumkinligini e’tiborga olmoq zarur.

Evgenika – Frengsia Galton tomonidan 1883-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan termin bo‘lib, (yunoncha *eugenys* – zotdor, nasldor; zodagonlar, oliy tabaqa kishilariga o‘xshab ketadigan) nasl, zotning irsiy tozaligini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyat turidir. Keyingi davrlarda yevgenika tushunchasi ko‘proq inson naslining irsiy tozaligini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

Ijtimoiylashuv – individning jamiyatni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirishi jarayonidir. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalaydi. Bu omillarning ba’zilari insonning butun hayot davrida davom etadi. Ommaviy axborot vositalari esa uning hayotining ma’lum davrida ta’sir qiladi. Ijtimoiylashuv faqatgina shakllanayotgan shaxsning faolligigagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, ayni paytda atrof-muhitning unga bo‘lgan ta’siri hamdir. Ayrim tadqiqotchilar, ijtimoiylashuvning ikki jihatini ko‘rsatadilar: *ijtimoiy moslashuv* va *interiorizatsiya*. Birinchi jihat, individning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitga, ijtimoiy hayotning turli darajalaridagi tartib-qoidalarga, insonni o‘rab turgan muhit sifatidagi mavjud ijtimoiy guruuhlar, qatlamlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy institularga, jamiyatdagi o‘zining mavqeyiga moslashuvini nazarda tutsa, ikkinchi jihat esa interiorizatsiya, ya’ni ijtimoiy qadriyatlar va tartib-qoidalarning inson ichki dunyosiga singib borishi.

Inson – kishi, uning ongi, odob-axloqi, ma’naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy,

siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmuyi bo'Igan inson ham unga mos bo'ladi. Inson dunyoda eng murakkab mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti, hayot gulidir. Insonning bebaholigi – uning aql-idrok va tafakkuriga egaligidadir. U aql-idrok sohibi bo'Igani uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.

Ijtimoiy muhit – shaxsni o'rab turgan, uning ongi hamda xulqiga faol (bevosita va bilvosita, stixiyali va ongli) ta'sir o'tkazuvchi barcha ijtimoiy shart-sharoitlar, faoliyatlar va aloqadorliklarni belgilashda xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya.

Ijtimoiy-axloqiy muhit – akmeshaxs shakllanishining asosiy omili bo'lib, akmeshaxs taraqqiyotida shaxsning shaxsiy imkoniyatlar bazasi bilan bir qatorda ta'sir etuvchi vosita sifatida ishtirok etadi.

Ijtimoiy hayot – keng va tor ma'nolarida qo'llaniladi.

Keng ma'nodagi ijtimoiy hayot – yaxlit bir tizim hisoblanib, ijtimoiy hayot voqeligi sifatida insonlarning barcha ongli harakati natijasida vujudga kelgan moddiy va nomoddiy narsalar tizimiga aytildi. Bularga ruhiy, iqtisodiy, siyosiy va tor ma'nodagi ijtimoiy hayotlar kirib ketadi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot – kishining bioijtimoiy mavjudot sifatida, o'z ixtiyori bilan namoyon qiluvchi hayot jahalariga aytildi. Bularga oiladagi kundalik hayot, o'zining shaxsiy hayoti hamda mehnat va siyosat bilan bog'liq bo'limgan barcha faoliyatlar kiradi. Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot tizi-mining qismlari – ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at

deb nomlanishini yuqorida aytib o'tdik. Bu unsurlarning har birini alohida-alohida ilm tarmoqlari o'rganib, ular shu ilmlarning tadqiqot obyektlari hisoblanadi.

Imij (inglizcha *image* – timsol, shakl) – ommaviylashtirish, reklama qilish maqsadida ma'lum bir kishilarga emotsiyal-psixologik ta'sir ko'rsatish asosida ularda aniq bir shaxs, hodisa, predmetning maqsadli yo'naltirilgan timsolini shakllantirishdir. Imijning bir necha xususiyatlarining mohiyatiga e'tiborni qarash mumkin:

- birinchidan, imij – timsol, ya'ni kategoriya sifatida asosan siyosiy-psixologiyaga tegishli hodisadir;
- ikkinchidan, timsol maqsadli yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish natijasida shakllanar ekan, kishilar va jamiyatga ta'sir ko'rsatish jarayonining o'zini hech bir mubolag'asiz davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning ishtirokini talab etuvchi siyosiy jarayon sifatida ko'rsatish mumkin.

Komil inson – inson zoti orzu qilgan jamiki ezgu xislatlar namoyandasi, u go'yo mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'lувчи muqaddas xilqat, ya'ni ijtimoiy-axloqiy ideal. Tasavvuf axli sig'ingan g'oya – komil inson, ya'ni xalq g'oyasi adabiyot g'oyasi edi. Tasavvuf shayxlari zulm va qorong'ilik lashkariga qarshi ma'rifatni quroq qilib olishdi. Komil inson tushunchasi o'rtalarda shakllangan bo'lib, islom Sharqida asosan islomiy nuqtayi nazardan ta'riflab kelingan.

Komil insonning xislatlari – yoqimlilik, ko'rkamlilik, jozi-badorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug-sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniylik, odoblilik va boshqalar.

Komil inson fazilatlari – insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylilik, insoniylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalilik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, halollik, to'g'rilik, diyonatllilik, haromdan hazar qilish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar. Bizningcha, ayni shu xislat va fazilatlarning singdira borilishi yosh avlodni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mezomuhit – inson va u yashayotgan mikromuhitdag'i hayoti va faoliyati yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy tizimlar mezomuhitni tashkil qiladi. Mikromuhit mana shu tizimlar ta'sirida shakllanadi. Mikromuhit faoliyati ta'sirida mezomuhit ham o'zgaradi. Falsafa fanida, hozirgi kungacha amal qilayotgan an'anaga ko'ra, ijtimoiy muhitni mikro va mezomuhitga bo'lish jamiyatning tarkibiy tizimini o'rganish uchun yetarli emas deyish mumkin. Chunki mikromuhit yoki mikromuhitlar mezomuhit tarkibiga bevosita emas, balki oraliq tizimlar vositasida birikadi. Masalan, oila mikromuhit sifatida, bevosita jamiyatga emas, avvalo, mahalla, xalq, elat, millat, mamlakat tarkibiga kiradi va so'ngra ular jamiyatning muhim bo'lagiga, uning asosiy negiziga aylanadi.

Mikromuhit – inson o'zi yashab faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat va uni o'rab turgan dunyoning ijtimoiy jarayonlaridir. Mikrodunyo xalqlar ma'naviyatini, millatlar madaniyatini ularning o'zaro ijtimoiy aloqalari orqali ifoda etuvchi bir qobiq. Mikromuhitga davlat siyosati darajasida yer sharida mavjud boshqa davlatlarda yuz berayotgan barcha voqealari hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati kiradi. Jumladan, BMT Bosh

assambleyasida keyingi yillarda eng dolzarb muammolardan biri deb qayd etilayotgan: narkomaniya va narkobiznes xavfi, terrorizm balosi ularning yo‘nalishini, (shaxslararo) psixologik munosabatlarini ifodalovchi jamiyatning psixojtimoiy ifratuzilmasidir. Agar ijtimoiy-ekologik manbalari jamiyat taraqqiyotida tizim sifatida qaralsa, uning iyerarxik ko‘rinishdagi o‘zaro bog‘liq OITS kasalligining oldini olish, global isish xavfini solayotgan ekologik muammolar butunjahon inson taraqqiyotiga katta xavf tug‘diradigan bir ziddiyatni vujudga keltirmoqdaki, shunga ko‘ra Yer kurrasining umumiy ijtimoiy muhitini a’lo deb aytib bo‘lmaydi. Bu muammolar inson ekologiyasi va ruhiyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Ma’naviy yetuklik – bu insoniy sifatlarning uyg‘un bo‘lishi masalasidir, ya’ni nafs xurujini, lazzatlarga bo‘lgan moyillik ojizligini yenga olish. Insonning komil inson va mukarram inson martabasiga ko‘tarilishi uning ma’naviyatining yuksalishi demakdir.

Mafkura – jamiyat, millat yoki alohida olingan ijtimoiy guruhlarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning ma’naviyatida aks etadigan falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, badiiy va diniy qarashlarning omuxtasidan iborat bo‘lgan, bir butun g‘oyalar, nuqtayi nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmuyi.

Mikromuhit. Shaxsning shakllanishi va kundalik hayoti kechayotgan bevosita shart-sharoit mikromuhit hisoblanadi. Unga jamiyatdagi oila, mehribonlik uylari, o‘quv, mehnat jamoalari kabilar kiradi. Shaxsning shakllanishi va faoliyati mana shu bevosita mavjud bo‘lgan sharoit ta’sirida kechadi va ko‘p jihatdan ularning yo‘nalishi, darajasi hamda boshqa

sifatlari mikromuhit bilan belgilanadi. Jumladan, o'sib kelayotgan yosh avlodning kamolotiga ta'sir etuvchi omillarning majmuyini umumiyligi ko'rinishda ijtimoiy omillar jarayoni deb oladigan bo'lsak, mikromuhit ana shu jarayon kechadigan kichik bir uyushma hisoblanadi. Ikkinci tomondan, shaxs mikromuhitda faoliyat olib borar ekan, uning bu faoliyati tufayli mikromuhit ham o'zgarib boradi. Chunki shaxs, uning faoliyati mikromuhitga faol ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning mikromuhitga ta'sir darajasi uning ijtimoiy quvvati – aql-zakovati, ehtirosi va irodasi bilan belgilanadi.

Muhit – inson va inson ongiga bog'liq bo'limgan holda mavjud bo'lgan obyektga ta'sir etuvchi jarayonlar, hodisalar va shartlar majmuasi va tizimi.

Naukometriya – ilmshunoslikning bir bo'limidir. Naukometriyada ilm tadqiqot obyekti sifatida olinadi.

Oila – kishilarning tabiiy biologik jinsiy munosabatlar, uyro'zg'orni boshqarish, huquqiy nikohni fuqarolik holatlarda qayd etish, ma'naviy er-xotin, ota-onalar va bolalar o'rtaсидagi sevgi, mehr-muhabbat tuyg'usi va shu kabilalar munosabatlariga asoslangan birlik, kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizmi. Oila kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizmi. Oila – nikohning rivojlangan bosqichidir, u nikohning ichki taraqqiyoti, mustahkamlanishi natijasida vujudga keladi.

Oilaviy muhit – bu o'zining barcha qirralari va ko'rnishlarida butun bir jamiyat deb nomlanadigan majmuadir. U insonning o'ziga xos taraqqiyot qonuniyatlariga ega bo'lgan

butun moddiy va ma'naviy, madaniy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, estetik g'oyalari, qonuniyatlari, didi va qadriyatlar yig'indisidan iborat ijtimoiy birlikdir. Oilada, ota-on, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lar orasida bola ilk tasavvurlarni oladi va uni o'rab turgan insonlar bilan ijtimoiy munosabatda bo'ladi. Oiladagi tarbiya muhiti, avvalambor, oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabatlari, o'zaro totuvlik, mehr-oqibat, g'amxo'rlik, qariyalarga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari, to'g'ri tarbiyalangani, ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lishi kabilar oila madaniyatining nozik qirralaridir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, o'sha oiladagi sog'lom muhitga putur yetadi. Demak, oilada sog'lom muhit va sog'lom munosabat qaror topsa, oilada ham, millat va jamiyatda ham sog'lom muhit mavjud bo'ladi.

Oilaning tibbiy-ekologik muhiti – oila a'zolarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali ularning salomatligini saqlash va mustakamlashdir.

Pedologiya (yunonchadan *pais (paidos)* – go'dak, bolalar, *logos* – fan) – bola rivojining psixologik, biologik, ijtimoiy, pedagogik konsepsiyalari yig'indisidir.

Salomatlik – inson organizmining biologik, ruhiy, jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligi. Sihat-salomatlik har bir kishi uchun baxt-saodat, uning mehnat unumdarligini, mamlakatning iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini rivojlantirishning zaruriy sharti.

Tarbiya – shaxsning hayotga, mehnatga layoqatliligin maqsadga yo‘naltirilgan, tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda shakllantiruvchi faoliyat.

Turg‘un ijtimoiy muhit – individning tug‘ilib, doimiy ravishda aloqadorlikda bo‘ladigan muhitidir. Bu muhitga oila, mehribonlik uylari kiradi. Oilada, ota-onas, aka-uka, opa-singil, qarindosh urug‘lar orasida bola ilk tasavvurlarni oladi va uni o‘rab turgan insonlar bilan ijtimoiy munosabatda bo‘ladi. Shunday ekan, tarbiyaning asosiy o‘zagiga oiladayoq poydevor qo‘yiladi va bu tarbiya uning butun umri davomida berilgan boshqa ta’lim-tarbiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Fenomen (yunonchadan *phainomenes* – hodisa) – akmeologik fenomenlar, birinchidan, murakkab tirik organizm bo‘lgan insonni individ sifatida namoyon bo‘lishi, avvalo, professional sifatidagi, arbob sifatidagi voqelikning turli-tuman tomonlariga insondagi paydo bo‘lgan yadroviy munosabatlarning ko‘rinishlari, ikkinchi jihatdan, uni jamiyatdagi bajaradigan roliga qarab, insonlarning kichik va katta birlashmlarida ko‘rinadigan hayot faoliyatini yashash sharoitining konkret ko‘rinishlari orqali chiqadigan hodisalar.

MUNDARIJA

So‘zboshi	
I. «Akmeologiya faniga kirish» mezo-modulining loyihasi	6
II. «Akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlari» mezo-modulining loyihasi	18
2.1. «Akmeologiyaning mohiyati va asosiy kategoriyalari» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi	27
2.2. «Akmeologiyaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi va yo‘nalishlari» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi	38
2.3. «Akmeologiyaning rivojlanish bosqichlari: latent, kombinatsion, inkubatsion, institusional» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi	50
III. «Akmeologiyaning metodologik asoslari» mezo-modulining loyihasi	60
3.1. «Akmeologiyaning metodologik asoslari: xususiy metodologiyasi» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi	66
3.2. «Akmeologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadi» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi	78
3.3. «Akmeologiyaning asosiy prinsiplari» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi	90

IV. «Akmeologiyaning metodlari» mezo-modulining loyihasi	95
4.1. «Akmeologiyaning nazariy va amaliy metodlari» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi	100
4.2. «Akmeogramma akmeologiyaning metodi sifatida» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi	102
4.3. «Test akmeshaxsnинг akmeogrammik xaritasini tuzishning asosiy vositasi sifatida» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi.....	116
V. «Tarixiy tafakkurda akmeshaxs rivojining obyektiv va subyektiv omillari haqida mavjud nazariyalar hamda yuksak yutuqlarga erishishning zamonaviy mexanizmlari» mezo-modulining loyihasi	124
5.1. «Markaziy Osiyo va G‘arb mutafakkirlarining qarashlarida insonning ijtimoiy-axloqiy kamoloti, yetuklik g‘oyalari va akmeologik nazariyalar» mikro-moduli nazariy mashg‘uloti loyihasi	131
5.2. «Professional yetuk akmeshaxs rivojida oila institutining o‘rnii» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi.....	138
5.3. «Ijtimoiy-axloqiy muhit, akmeshaxs shakllanishining asosiy omili sifatida» mikro-moduli amaliy mashg‘uloti loyihasi	154
Glossariy	177

Tillayeva G.H.

AKMEOLOGIYA ASOSLARI

*«TAFAKKUR BO‘STONI»
TOSHKENT — 2014*

Muharrir	<i>Sh. Rahimgoriyev</i>
Musahhih	<i>S. Abdullaev</i>
Tex. muharrir	<i>D. O‘rinova</i>
Sahifalovchi	<i>U. Vohidov</i>

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011-y.

Bosishga 2014-yil 29-avgustda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$.
Offset qog‘ozи. «Times» garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 12,0.
Nashr tabog‘i 12,5. Shartnoma № 37-2014. Adadi 500. Buyurtma № 37-1.

«TAFAKKUR BO‘STONI» MCHJ.
100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 9-mavze, 13-uy.
Telefon: 199-84-09. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«TAFAKKUR BO‘STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko‘chasi, 1-uy.